

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘l yozma huquqida

UDK: 809.15.25

BBK: 81.2-2 (915)

A-75

ARIFDJANOV ZOKIR TAXIROVICH

FORS TILIDA SODDA VA QO‘SHMA FE‘LLARNING
INVARIANTLARI

5A 120102 – Lingvistika (fors tili)

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya

Ilmiy rahbar:

fil.fan.d., prof. Quronbekov A.

TOSHKENT-2014

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Fakultet: Sharq filologiyasi va
falsafa
Kafedra: Eron-afg‘on filologiyasi
O‘quv yili: 2013-2014

Magistratura talabasi: Arifdjanov Zokir
Ilmiy rahbar: fil.fan.d., prof. Quronbekov A.
Mutaxassisligi: 5A120102-Lingvistika (fors
tili)

“FORS TILIDA SODDA VA QO‘SHMA FE‘LLARNING
INVARIANTLARI” MAVZUSIDAGI MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI
ANNOTATSIYASI

Magistrlik dissertatsiyasida fors tilidagi fe‘llarning invariant va variantlari tadqiq etilgan bo‘lib, unda birinchi marta fors tili fe‘l tizimidagi invariant-variant munosabati, xususan, fors tilidagi fe‘llarning funksional ekvivalentligidagi formal invariantlik tadqiq qilingan. Tadqiqotda fe‘llarning formal invariantlarini ularning leksik-semantik variantlari, funksional ekvivalentlari, yagona invariant ma‘nosi va invariant ma‘noni o‘zida mujassam etuvchi formal invariantni aniqlash usuli ishlab chiqilgan. Fors tilidagi fe‘llarning leksik-semantik variantligi va funksional ekvivalentligi hodisalari ham sistematik va kompleks tarzda o‘rganilgan.

Dissertatsiya kirish, uch bob, to‘qqiz bo‘lim, o‘ttiz olti band va xulosadan iborat. I bobda til tizimida variantlik va invariantlik, II bobda fors tilida fe‘liy birliklarning variantligi va III bobda fors tili fe‘l tizimida invariant-variant munosabati *xāstan*, *bar-dāštan* va *barresi kardan* fe‘llari misolida tadqiq qilingan.

Dissertatsiyada funksional ekvivalentlarning formal invarianti ana shu funksional ekvivalentlardan biri ekanligi, funksional ekvivalentlarning barchasini umumiy qilib faqatgina formal invariant vositasida ta‘riflash mumkinligi, funksional ekvivalentlarning formal invariantini gap ma‘nosini o‘zgartirmagan holda uning funksional ekvivalentlaridan har birining o‘rnida ishlatish mumkinligi to‘g‘risida xulosaga kelingan. Qolaversa, invariant borasida aniq yagona ta‘rif, qoida va nazariyani ishlab chiqish, turli til sathlaridagi invariantlarini o‘rganishni boshlash, fors tilidagi turli til birliklarining turli til sathlaridagi variantlarini, jumladan, fors tilidagi leksik-semantik variantlik va funksional ekvivalentlikni o‘rganish hamda o‘zbek tilshunosligida variantlik va invariantlik bilan bog‘liq tushunchalar xususida aniq va yagona qarashlar, atamalar tizimini yaratish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Ilmiy rahbar

fil.fan.d., prof. Quronbekov A.

Magistratura talabasi

Arifdjanov Zokir

**MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION
OF THE REPUBLIC UZBEKISTAN**

TASHKENT STATE INSTITUTE OF ORIENTAL STUDIES

Faculty: Eastern Philology and
Philosophy

Chair: Iran-Afghan Philology **Academic
year:** 2013-2014

Master student: Arifdjanov Zokir
Scientific adviser: Ph/D Kuronbekov A.
Specialty: 5A120102–Linguistics
(Persian)

**ANNOTATION OF MASTER’S DISSERTATION ON THEME
“INVARIANTS OF SIMPLE AND COMPOUND VERBS IN PERSIAN
LANGUAGE”**

In the master’s dissertation, having learnt the variants and invariants of verb system of Persian Language, for the first time there was studied invariant-variant relations of verbs of Persian Language, in particular, the formal invariant in functional equivalents in Persian Language. In the research work, there was worked out a method of definition of formal invariants of verbs, their lexical-semantic variants, functional equivalents, only one invariant meaning and formal invariant that includes invariant meaning. Lexical-semantic variants and functional equivalents of functional equivalents occasions are studied systematically and complexly.

The dissertation consists of an introduction, three chapters, nine parts, sixty six paragraphs and conclusion.

In the first chapter, there is analyzed variant and invariant in language system, In the second chapter, variant of verb units in Persian Language and in the third chapter, there is analyzed invariant-variant relation in language system of Persian Language in the example of verbs *xāstan*, *bar-dāstan* and *barresi kardan*.

In the dissertation, there is reached conclusion about that, the formal invariant of functional equivalents is one of those functional equivalents, functional equivalents are can be characterized generally only by formal invariant means. There is came to conclusion about that, the formal invariant of functional equivalents can be used in each place of its functional equivalents without changing the meaning of a sentence. However, there given recommendations on working out of exact single characteristics, rules and theories of invariant, undertaking to learn invariants in various languages spheres, variants in various language spheres of various language units in Persian Language, including learning lexical-semantic variant and functional equivalent in Persian Language as well as creation exact and single looks, term systems about meaning related with variant and invariant in Uzbek lexicology.

Scientific adviser:

Ph/D Kuronbekov A.

Master student:

Arifdjanov Zokir

MUNDARIJA

Kirish	7
I bob. Til tizimida variantlik va invariantlik	17
1.1. Til birliklari variantliligi hodisasi	17
1.1.1. Til birliklari variantliligi tushunchasi	17
1.1.2. Til birliklari variantlari turlari	18
1.2. Tilshunoslikda invariant tushunchasi	22
1.2.1. Invariant to'g'risida ma'lumot	22
1.2.2. Til sathlaridagi invariant turlari	27
1.3. Invariantlikning turli mamlakatlarda o'rganilishi	32
1.3.1. Invariantlikning chet elda o'rganilishi	32
1.3.2. Invariantlikning Rossiya olimlari tomonidan o'rganilishi	33
1.3.3. Invariantlikning O'zbekistonda o'rganilishi	34
1.3.4. Invariantlikning Eronda o'rganilishi	36
I bob bo'yicha xulosalar	38
II bob. Fors tilida fe'liy birliklarning varianliligi	41
2.1. Fors tilida fe'llar variantliligining asosiy omillari va turlari	41
2.1.1. Fors tilidagi fe'llarning til variantliligida tutgan o'rni	41
2.1.2. Fors tilidagi fe'llar variantlarining turlari	44
2.2. Fors tilida fe'llarning leksik-semantik variantlari	47
2.2.1. Fors tilida fe'llarning leksik-semantik variantlashuvi omillari	47
2.2.2. Fe'llarning leksik-semantik variantlashuvida ma'no guruhlari	52
2.3. Fors tilida fe'llarning funksional ekvivalentlari	55
2.3.1. Fors tilida fe'llarning funksional ekvivalentligi omillari	55
2.3.2. Fe'llardagi leksik-semantik variantlashuv va funksional ekvivalentlikning o'zaro bog'liqligi	58
II bob bo'yicha xulosalar	61

III bob.	Fors tili fe'l tizimida invariant-variant munosabati	63
3.1.	Fors tilida sodda fe'llarning formal invariantlari (خو استن [xāstan] fe'li misolida)	63
3.1.1.	خو استن [xāstan] sodda fe'lining funksional ekvivalentlari	63
3.1.1.1.	خو استن [xāstan] sodda fe'lining ma'no guruhlarida funksional ekvivalentlik munosabati	63
3.1.1.2.	خو استن [xāstan] sodda fe'lining ma'no guruhlaridan birida funksional ekvivalentlik munosabati	69
3.1.1.2.1.	خو استن [xāstan] fe'lining funksional ekvivalentlari va ularning yasalishi	70
3.1.1.2.2.	خو استن [xāstan] fe'lining funksional ekvivalentlarining qo'llanilish o'rinlari	72
3.1.1.2.3.	خو استن [xāstan] fe'lining funksional ekvivalentlarining ma'no guruhchalari	80
3.1.2.	خو استن [xāstan] sodda fe'lining formal invariantlari	82
3.1.2.1.	خو استن [xāstan] sodda fe'li funksional ekvivalentlarining umumiy o'rinlardagi invarianti	83
3.1.2.2.	خو استن [xāstan] sodda fe'li funksional ekvivalentlarining ma'no guruhlaridagi invariantlari	87
3.2.	Fors tilida prefiksli fe'llarning formal invariantlari برداشتن [bar-dāštan] fe'li misolida)	92

3.2.1.	برد داشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining funksional ekvivalentlari.....	92
3.2.1.1.	برد داشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining ma'no guruhlarida funksional ekvivalentlik munosabati	92
3.2.1.2.	برد داشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining ma'nolaridan birida funksional ekvivalentlik munosabati	99
3.2.1.2.1.	برد داشتن [bar-dāštan] fe'lining funksional ekvivalentlari va ularning yasalishi	99
3.2.1.2.2.	برد داشتن [bar-dāštan] fe'lining funksional ekvivalentlarining qo'llanilish o'rinlari	100
3.2.2.	برد داشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining formal invariantlari	102
3.3.	Fors tilida qo'shma fe'llarning formal invariantlari (بررسی کردن [barresi kardan] fe'li misolida)	105
3.3.1.	بررسی کردن [barresi kardan] fe'lining funksional ekvivalentlari ...	105
3.3.1.1.	بررسی کردن [barresi kardan] fe'lining ma'no guruhlarida funksional ekvivalentlik munosabati	105
3.3.1.2.	بررسی کردن [barresi kardan] fe'lining ma'no guruhlaridan birida funksional ekvivalentlik munosabati	114
3.3.1.2.1.	بررسی کردن [barresi kardan] fe'lining funksional ekvivalentlari va ularning yasalishi	115
3.3.1.2.2.	بررسی کردن [barresi kardan] fe'li funksional ekvivalentlarining qo'llanilish o'rinlari	117

.....	
3.3.2.	بررسی کردن [barresi kardan] fe'lining formal invariantlari 123
.....	
3.3.2.1.	بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'li funksional ekvivalentlarining umumiy invarianti 124
3.3.2.2.	بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'li funksional ekvivalentlarining alohida ma'nolardagi invariantlari 128
III bob	bo'yicha xulosalar 136
Xulosa	 140
Foydalanilgan adabiyot va manbalar ro'yxati	 146

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi sho‘ro istibdodi davrida uzilib qolgan dunyo mamlakatlari bilan bo‘lgan aloqalarning tiklanishiga, jahondagi ko‘pchilik davlatlar, jumladan, mintaqa mamlakatlari bilan siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning o‘rnatilishi va rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Mustaqil yurtimizning xorijiy mamlakatlar bilan o‘zaro aloqalari jarayonida ushbu mamlakatlarning tarixi, madaniyati va tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ham oshib bormoqda. Mustaqilligimizning o‘tgan davrida O‘zbekiston bilan yaqin aloqada bo‘lgan jahonning ko‘pgina mamlakatlari tarixi, madaniyati, tili, siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi borasida amalga oshirilgan ko‘plab tadqiqotlar ana shundan dalolat beradi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan ilk paytlardanoq mamlakatimiz rahbariyati yurtimizda chet tillarni o‘rgatish ishiga katta e‘tibor qaratib kelmoqda. Jumladan, mustaqilligimizning daslabki yillaridayoq prezidentimiz Islom Karimov ta‘limning turli bosqichlarida tahsil olayotgan yosh avlodga xorijiy tillarni o‘rgatishning zarurati va ahamiyatini ta‘kidlab shunday degan edi: “Ularga chet tillarni mukammal bilib olishlari, erkin muloqot qilishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz kerak. Bu bizning jahon miqyosiga chiqishimizda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi”¹. Keyinchalik yurtboshimiz yurtimizda chet tillarni o‘rgatishga berilayotgan katta e‘tibor borasida quyidagi fikrlarni bildiradi: “Hozirgi paytda xorijiy tillarni o‘rganish va o‘rgatishga yurtimizda katta ahamiyat berilmoqda. Bu ham, albatta, bejiz emas. Bugun jahon hamjamiyatidan o‘ziga munosib o‘rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o‘z buyuk kelajagini

¹ Karimov I.A. Asarlar. 4-jild. Bунёдкорлик йўлидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – Б.283.

qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo‘qdir”².

Shunday bir sharoitda yurtimizda sharq tillari, jumladan, fors tilini o‘rganish, shuningdek, ushbu til borasida tadqiqotlar olib borish keng tus olib bormoqda. Aytib o‘tish lozimki, mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan to shu kunga qadar o‘zbek eronshunos olimlari va tadqiqotchilari tomonidan fors tili bo‘yicha ko‘pgina tadqiqotlar amalga oshirilib, bir necha fors tili darsliklari³ yaratildi.

Mavzuning dolzarbligi. Ushbu magistrlik dissertatsiyamiz fors tilidagi fe’llarning formal invariantlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda invariantlik bilan bog‘liq bo‘lgan variantlik turlari, xususan fe’llarning formal invariantlarini aniqlashda tayanch bo‘lib xizmat qiladigan funksional ekvivalentlar to‘g‘risida ham to‘xtalib o‘tilgan.

Fe’llar fors tilidagi variantlashuv hodisasida muhim o‘rin tutadi. Fors tilidagi fe’llarda tilning barcha sathlarida uchraydigan variantlashuv hodisasini, jumladan, fonetik, morfologik, leksik, leksik-semantik, formal, stilistik va orfografik variantlashuvni kuzatish mumkin bo‘lib, bular orasida fe’llarning leksik-semantik variantlari va funksional ekvivalentligi muhim o‘rin tutadi.

Aytish mumkinki, shu kungacha fors tilidagi fe’llarning turli til sathlaridagi variantlaridan aynan leksik-semantik variantlar eronlik tilshunoslar tomonidan nisbatan yaxshiroq o‘rganilayotgan fe’l variantlashuvi turi hisoblanadi. Fors tilidagi fe’llarning leksik-semantik variantlarini o‘rganish esa, bir tomondan ularning leksik-semantik invariantlarini aniqlashga, ikkinchi tomondan esa ularning funksional ekvivalentlarini o‘rganishga yordam beradi. Fe’llarning funksional ekvivalentlari asosida esa dissertatsiya ishimizning mavzusi bo‘lgan fe’llarning

² Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. – Б.185. *Shuningdek qarang:* Каримов И. Асарлар. 6-жилд. Хавфсизлик ва барқарорлик йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – Б.307.

³ *Qarang:* Abdusamatov M. Fors tili. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan uchinchi nashri. – Toshkent: Sharq, 2007; Quronbekov A., Vohidov A. va Ziyayeva T. Fors tili (oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun). – Toshkent: Musiq, 2006; Quronbekov A., Vohidov A. va Ziyayeva T. Fors tili (oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun). - Toshkent, 2009; Quronbekov A. Fors tili (akademik litseylar o‘quvchilari uchun). – Toshkent, 2010; Vohidov A. Fors tili (akademik litseylar o‘quvchilari uchun). Toshkent, 2011.

formal invariantlarini aniqlash mumkin bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan ham dissertatsiya ishimizda fe’llarning formal invariantlarini aniqlashni ularning leksik-semantik variantlarini o‘rganishdan boshladik.

Fors tili fe’l tizimida invariant-variant munosabati, fors tilidagi fe’llarning formal invariantlari nafaqat o‘zbek eronshunosligida, balki boshqa xorijiy mamlakatlar sharqshunosligi, hatto Eron tilshunosligida ham jiddiyoq o‘rganilmagan mavzulardan hisoblanadi. Bizning dissertatsiya ishimiz esa ushbu mavzuni tadqiq qilish xususidagi ilk qadamlardan hisoblanadi. Shu o‘rinda aytib o‘tish lozimki, fors tilidagi fe’llarning invariantlari, jumladan, leksik-semantik va formal invariantlari mavzusi shu choqqacha yaxshi o‘rganilmagan bo‘lishiga qaramasdan, til nazariyasi va amaliyotidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Fors tilidagi fe’llarning leksik-semantik invariantlarini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar shu paytgacha nashr etilgan fors tili izohli lug‘atlarida so‘zlarning umumiy ma’nolarini aks ettirish bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab kamchilik va nuqsonlarning bartaraf etilishiga, fe’llarning aniqlangan formal invariantlari esa muayyan og‘zaki yoki yozma nutqning tinglovchi yoki o‘quvchiga turli shakllarda yetkazilishi, masalan qayta bayon qilinishi yoki tarjima etilishiga yordam beradi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. “Fors tilida sodda va qo‘shma fe’llarning invariantlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi shaklidagi ilmiy tadqiqotni amalga oshirishdan ko‘zda tutilgan maqsad o‘zbek eronshunosligida birinchi marta hozirgi fors tili fe’l tizimidagi invariant-variant munosabati, xususan, fors tilidagi fe’llarning funksional ekvivalentligidagi formal invariantlikni namuna sifatida tanlab olingan uch fe’l misolida o‘rganish, hamda tadqiqot bo‘yicha o‘zimizning ilk mulohaza va xulosalarimizni ma’lum qilishdan iboratdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun esa quyidagi vazifalarni yechishga to‘g‘ri keldi:

1. Fors tilidagi fe’llarning formal invariantlarini o‘rganishda namuna sifatida tanlab olingan fe’llarning leksik-semantik variantlarini aniqlash.

2. Namuna sifatida tanlab olingan fe'llarning aniqlangan leksik-semantik variantlari asosida ularning funksional ekvivalentlarini aniqlash.

3. Namuna sifatida tanlab olingan fe'llarning aniqlangan funksional ekvivalentlari asosida ularning formal invariantlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Fors tilida funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishuvchi fe'llar va ularning formal invariantlari, hamda fors tili fe'l tizimidagi funksional ekvivalentlik munosabatidagi formal invariantlik "Fors tilida sodda va qo'shma fe'llarning invariantlari" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi shaklidagi ilmiy tadqiqotning obyekti va predmeti sifatida tanlab olindi.

Etimologik jihatdan qo'shma fe'lga mansub bo'lgan, hozirda esa prefiksli fe'l jumlasidan hisoblanadigan fe'llar fe'l tizimida salmoqli o'rin egallagani sababli prefiksli fe'llar va ularning funksional ekvivalentlik va formal invariantlik munosabatlari ham tadqiqot obyekti sifatida tadqiq qilindi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Invariant umuman tilshunoslikda, jumladan, fors tilshunosligida hali yaxshi o'rganilmagan mavzu ekanligi, fors tilidagi leksik-semantik invariantlik va formal invariantlikni o'rganish esa hali boshlanmaganligi, shuningdek, fors tilida invariantlik bilan bog'liq bo'lgan variantlik hodisasi ham nafaqat o'zbek eronshunosligi, balki boshqa mamlakatlar, xususan, rus eronshunosligida ham haligacha yaxshi o'rganilmaganligi ushbu magistrlik dissertatsiyamizda fors tilidagi turli til birliklarining turli sathlaridagi variantlari, fors tilidagi fe'llarda leksik-semantik variantlik va funksional ekvivalentlik munosabatlarini ko'rib chiqish, so'ngra esa shu asosda fe'llarning formal invariantlarini aniqlashni tadqiqotning asosiy masalalari sifatida belgilab olinishiga sabab bo'ldi. Tadqiqotda o'rtaga tashlangan asosiy farazlar esa quyidagilardan iborat: 1) muayyan ma'noni ifodalashda bir-biriga funksional ekvivalent bo'lib kelayotgan fe'llarning formal invarianti ana shu funksional ekvivalentlardan biri bo'ladi; 2) muayyan ma'noni ifodalashda bir-biriga

funksional ekvivalent bo'lib kelayotgan fe'llarning barchasini umumiy qilib faqatgina formal invariant vositasida ta'riflash mumkin; 3) muayyan ma'noni ifodalashda bir-biriga funksional ekvivalent bo'lib kelayotgan fe'llarning formal invariantini gap ma'nosini o'zgartirmagan holda uning funksional ekvivalentlari vazifasini bajarib keladigan boshqa fe'llardan har birining o'rnida ishlatish mumkin; 4) muayyan funksional ekvivalentlik qatorida invariant hisoblangan fe'l ushbu funksional ekvivalentlik qatorining ma'no ottenkalariga ko'ra bo'linadigan ma'no guruhchalarida invariant bo'lmasligi va har bir ma'no guruhchasi o'z invariantiga ega bo'lishi ham mumkin.

Mavzuning o'rganilganligi. O'tgan davr mobaynida fe'l tizimidagi invariant-variant munosabati bo'yicha ham talaygina tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu borada rossiyalik tilshunolar A.I. Smirnitkiy⁴, V.A. Zveginsev⁵, N.D. Artyunova⁶, Y.D. Apresyan⁷, D.N. Shmelev⁸, V.M. Solntsev⁹, N.V. Pertsov¹⁰, S. Shaumyan¹¹, I.M. Kobozeva¹², A.V. Bondarko¹³, A.M. Plotnikova¹⁴, N.S. Potilitsina¹⁵, shuningdek, amerikalik tilshunoslardan Ch. Filmor¹⁶, E. Rosh¹⁷ va J. Lakoff¹⁸lar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarni eslatib o'tish mumkin.

⁴ Смирницкий А.И. Значение слова // Вопросы языкознания. – Москва, 1955. – № 2; Смирницкий А.И. К вопросу о слове (проблема «тождества» слова) // Тр. Ин-та языкознания АН СССР. – Москва, 1954.

⁵ Звегинцев В.А. Семасиология. – Москва, 1957.

⁶ Арутюнова Н.Д. О минимальной единице грамматической системы // Единицы разных уровней грамматического строя языка и их взаимодействие. – Москва: Наука, 1969.

⁷ Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. – Москва: Наука, 1974.

⁸ Шмелев Д.Н. Современный русский язык. Лексика. – Москва: Просвещение, 1977.

⁹ Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – Москва: Наука, 1977.

¹⁰ Перцов Н.В. Инвариант в русском словоизменении. – Москва, 2001.

¹¹ Шаумян С. Абстракция в современной лингвистике. Логос, 1999. – № 1.

¹² Кобозева И.М. Лингвистическая семантика: Учебное пособие. – Москва, 2004.

¹³ Бондарко А.В. Инварианты и прототипы в системе функциональной грамматики [Текст] / Бондарко А.В. // Проблемы функциональной грамматики: Семантическая инвариантность / вариативность. / отв. ред. Бондарко А.В., Шубик С.А. – СПб.: Наука, 2003.

¹⁴ Плотникова А.М. Когнитивное моделирование семантики глагола: Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Екатеринбург, 2009.

¹⁵ Потилицина Н.С. Модели репрезентации концепта «mouvement» в старофранцузском тексте: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Иркутск, 2012.

¹⁶ “The Case for Case” (1968). In Bach and Harms (Ed.): Universals in Linguistic Theory. – New York: Holt, Rinehart and Winston; “Frame semantics and the nature of language” (1976): In Annals of the New York Academy of Sciences: Conference on the Origin and Development of Language and Speech. Volume; “Frame semantics” (1982). In Linguistics in the Morning Calm. Seoul, Hanshin Publishing Co.; Филлмор Ч. 1988. Фреймы и семантика понимания // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII. 1988.

¹⁷ Rosch E. Human categorization // Studies in cross-cultural psychology. – N. Y.: Academic press, 1977.

Tilshunoslar E.V. Kuznetsova¹⁹, Sh. Balli²⁰, L.V. Kropotova²¹, A.A. Zaliznyak²², L.V. Vasilyeva²³lar tomonidan tilning leksik sathi, jumladan, fe'llardagi funksional ekvivalent, hamda formal (funksional) invariant bo'yicha tadqiqotlar olib borishdi.

Fors tili fe'l tizimidagi invariant-variant munosabatining o'rganilishi xususida esa haligacha yirikroq tadqiqotlar amalga oshirilganicha yo'q. Biz bu o'rinda faqatgina eronlik tadqiqotchilardan Shahlo Sharifiy²⁴ va Ibrohim Murodiylarning²⁵ qo'shma fe'llar semantikasi, Rohila Gandumkorning²⁶ fe'l sinonimiyasi, Ali Safariy²⁷ va Maryam Sodot Fayozlarning²⁸ fe'l variantligi, shuningdek Laylo Sharifiy²⁹, Hamid Rabiyy³⁰ va Arslon Gulfomlarning³¹ fe'llarning leksik-semantik variantlariga bag'ishlangan tadqiqotlarida fe'llarning leksik-semantik va funksional variantlashuvida mavjud bo'lgan ma'lum umumiyliklarga qilingan

¹⁸ 2003 (1980) with Mark Johnson. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press, 2003; Лакофф Дж. 1981. О порождающей семантике // Новое в зарубежной лингвистике. – Москва: Прогресс, 1981. Вып. X.; Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем, – Москва, 2004.

¹⁹ Кузнецова Э.В. Лексикология русского языка. – Москва: Высшая школа, 1989.

²⁰ Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – Москва: Эдиториал УРПС, 2001.

²¹ Кротова Л.В. Проблема разграничения синонимии и вариативности // Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2009. – № 2.

²² Зализняк А.А. Лингвистическая многозначность // Вопросы языкознания. – Москва: Наука, 2004. – № 2.

²³ Васильева Л.В. Модальный глагол MUST и его функциональные эквиваленты как сегмент функционально-семантического поля модальности: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1990.

²⁴ شهلا شریفی. بررسی معنایی افعال مرکب اندام بنیاد از دیدگاه معناشناسی شناختی // مجموعه مقالات ششمین همایش بین المللی «انجمن ترویج زبان و ادبیات فارسی». دانشگاه مازندران – خرداد 1390. ص 3000 – 2990.

²⁵ ابراهیم مرادی. بررسی معنایی فعل مرکب در زبان فارسی // نشریه ادب و زبان دانشکده ادب و علوم انسانی دانشگاه شهید با هنر کرمان. سال 16، شماره 33، بهار و تابستان 1392.

²⁶ راحله گندمکار. رویکردی شناختی به مسئله هم معنایی بافتی در سطح افعال زبان فارسی // پژوهش های زبانی، دوره دوم، شماره 2، پاییز و زمستان 1390. ص 115-125.

²⁷ علی صفری. تناوب سببی در زبان فارسی // پژوهش های زبانی، دوره 3، شماره 1، بهار و تابستان 1392. ص 94-75؛

علی صفری. معناشناسی زمینه و تناوب فعل های مرکب در زبان فارسی // جستارهای زبانی، دوره 2، شماره 2، بهار و تابستان 1392. ص 98-81.

²⁸ مریم سادات فیاضی. خاستگاه استعاره افعال حسی چندمعنا در زبان فارسی از منظر معنی شناسی شناختی // ادب پژوهی، شماره 6، زمستان 1382. ص 109-87.

²⁹ لیلا شریفی. رویکردی شناختی به یک فعل چندمعنای فارسی // تازه های علوم شناختی، سال 11، شماره 4، 1388. ص 11 – 1.

³⁰ حمید ربیعی. عناصر مؤثر در تغییر معنای فعل // رشد آموزش زبان و ادبیات فارسی. دوره بیست و سوم، شماره 2، زمستان 1388. ص 50-48.

³¹ ارسلان گلفام. فضای معنایی فعل «شدن» در زبان فارسی: نگرش شناختی // پژوهش های زبان و ادبیات تطبیقی. دوره 2، شماره 4، زمستان 1390.

ayrim ishoralar kuzatilishini aytib o‘tishimiz mumkin. Shunga qaramasdan, Eron, O‘zbekiston, Rossiya va boshqa mamlakatlar tilshunoslari va eronshunoslari (P.N. Xonlariy³², H. Anvari, H. Ahmadiy Givi³³, Sh. Mohutiyon³⁴, U. Tabibzoda³⁵, A. Sodiqiy³⁶, Y.A. Rubinchik³⁷, S. Karimiy³⁸, D.A. Azimdjanova³⁹ va boshqalar) tomonidan fors tilidagi fe’llar, jumladan, fe’llar sinonimiyasi bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar biz tomonimizdan fors tili fe’l tizimidagi invariant-variant munosabati, fors tilidagi fe’llarning formal invariantlarini tadqiq etilishida muhim manbalar bo‘lib xizmat qildi.

Tadqiqot uslubi va uslublari. “Fors tilida sodda va qo‘shma fe’llarning invariantlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi shaklidagi ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda O‘zbekiston, Rossiya, Eron va boshqa mamlakatlar tilshunoslari va eronshunoslari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda qo‘llanilgan ilmiy-nazariy uslublardan asosiy ilmiy-uslubiy asos sifatida foydalanildi. Jumladan, ishda struktur tilshunoslik, sistem analiz, komponent tahlil va tavsifiy metodlar qo‘llanildi. Ishning metodologik asosi qilib struktur tilshunoslik namoyandalari L. Yelmslev⁴⁰, A. Martine⁴¹, V.M. Solntsev⁴²ning struktur tilshunoslik bo‘yicha tadqiqotlari olindi.

³² نائل خانلری، پرویز، دستور زبان فارسی، تهران: انتشارات توس، تهران، 1359؛ نائل خانلری، پرویز، تاریخ زبان فارسی، جلد دوم، ساختمان فعل، تهران، 1349.

³³ انوری، حسن؛ احمدی گیوی، حسن، دستور زبان فارسی 2، قم: انتشارات فاطمی، 1373. *Qarang:*

³⁴ ماهوتیان شهرزاد، دستور زبان فارسی، تهران: نشرمرکز، 1387. *Qarang:*

³⁵ طبیب زاده، امید. ستور زبان فارسی: براساس نظریه گروه های خودگردان در دستور وابستگی، تهران: نشر مرکز، 1391. *Qarang:*

³⁶ ادقی علی اشرف. در باره فعل های جعلی در زبان فارسی // مجموعه مقالات سمینار زبان فارسی و زبان علم. تهران، مرکز نشر دانشگاهی، 1372.

³⁷ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - Москва: Восточная литература РАН, 2001.

³⁸ Karimi S. Complex predicates in Iranian languages, opening remarks. – Paris, 2008.

³⁹ Азимджанова Д.А. Синонимия глагольной лексики персидского языка: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1997.

⁴⁰ Ельмслев Л. Прологомены к теории языка. – Новое в лингвистике. Вып.1. - Москва, 1960.

⁴¹ Мартин А. О книге “Основы лингвистической теории” Луи Ельмслева // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 1. – Москва: Прогресс, 1960.

⁴² Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – Москва: Наука, 1977.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. “Fors tilida sodda va qo‘shma fe’llarning invariantlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi shaklidagi ilmiy tadqiqotning natijalaridan quyidagilarda foydalanish mumkin:

1. Fors tili leksikologiyasi va semantikasi, jumladan, fe’l tizimi bo‘yicha amalga oshiriladigan, fors tili fe’l tizimidagi turli variantlashuv hodisalari, fe’llardagi leksik-semantik variantlilik va funksional ekvivalentlikka, shuningdek, fors tilining turli sathlaridagi invariantlik, jumladan, leksik-semantik va formal invariantlikka bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarda.

2. Tadqiqotda keltirilgan leksik-semantik invariantlar xususidagi mulohazalar va xulosalardan kelajakda fors tilining yangi izohli lug‘atlarini tuzishda, formal invariantlik bo‘yicha mulohazalar va xulosalardan esa fors tilidagi fe’llarning funksional ekvivalentlari va formal invariantlari lug‘atlarini tuzishda.

3. Oliy o‘quv yurtlarida fors tilida variantlik va invariantlikka bag‘ishlangan maxsus kurslar tashkil etishda.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. “Fors tilida sodda va qo‘shma fe’llarning invariantlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi shaklidagi ilmiy tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

1. Ushbu tadqiqotda birinchi marta fors tili fe’l tizimidagi invariant-variant munosabati, xususan fors tilidagi fe’llarning funksional ekvivalentligidagi formal invariantlik namuna qilib olingan fe’llar asosida sistematik ravishda tadqiq qilindi. Shu nuqtayi nazardan mazkur ilmiy ish fors tili fe’l tizimidagi invariant-variant munosabati, xususan fors tilidagi fe’llarning funksional ekvivalentligidagi formal invariantlikka bag‘ishlangan ilk tadqiqot hisoblanadi.

2. Fors tilidagi fe’llarning funksional ekvivalentligidagi formal invariantlikni aniqlash bo‘yicha ilk urinish bo‘lgan ushbu tadqiqotda fe’llarning formal invariantlarini ketma-ket amalga oshiriladigan quyidagi to‘rt bosqichda aniqlash usuli ishlab chiqildi: 1) fe’lning leksik-semantik variantlarini aniqlash; 2) fe’lning aniqlangan leksik-semantik variantlari asosida ularning funksional ekvivalentlarini

aniqlash; 3) fe'lining aniqlangan funksional ekvivalentlarini birlashtirib turadigan yagona invariant ma'noni aniqlash; 4) funksional ekvivalentlarni birlashtirib turadigan yagona invariant ma'noni o'zida to'la yoki nisbatan ko'proq mujassam etuvchi formal invariantni aniqlash.

3. Fe'llarning formal invariantligi funksional ekvivalentlik, funksional ekvivalentlik esa leksik-semantik variantlilik bilan bog'liq bo'lganligi sababli, ushbu tadqiqotda birinchi marta fors tilidagi fe'llarning leksik-semantik variantliliigi va funksional ekvivalentligi hodisalari ham sistematik va kompleks tarzda ko'rib o'tildi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya kirish, uch bob, to'qqiz bo'lim, o'ttiz olti band (paragraf) va xulosadan iborat bo'lib, ayrim bandlar yanada kichikroq bandchalarga bo'lingan.

Kirish qismida fors tili fe'l tizimidagi funksional ekvivalentlik munosabatidagi formal invariantlik tadqiqot obyekti va predmeti sifatida ko'rsatilib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, asosiy masalalari va farzlari, tadqiqot uslublari, tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqotning ilmiy yangiligi to'grisida so'z yuritilgan hamda mavzu bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili va dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi keltirilgan.

Dissertatsiyaning "Til tizimida variantlik va invariantlik" deb nomlangan birinchi bobining "Til birliklari variantliliigi hodisasi" deb nomlangan birinchi bo'limida til birliklari variantliliigi tushunchasi, hamda til birliklari variantlari turlari, "Tilshunoslikda invariant tushunchasi" deb nomlangan ikkinchi bo'limida esa invariant tushunchasi, hamda til sathlaridagi invariant turlari to'grisida ma'lumot beriladi. Ushbu bobning uchinchi bo'limi invariantlikning turli mamlakatlarda o'rganilishiga bag'ishlangan.

Dissertatsiyaning "Fors tilida fe'liy birliklarning variantliliigi" deb nomlangan ikkinchi bobida fors tilida fe'llarning til variantligida tutgan o'rni tadqiq etiladi. Jumladan, ushbu bobning "Fors tilida fe'llar variantliliigining asosiy omillari va

turlari” deb nomlangan birinchi bo‘limida fors tilidagi fe’llarning til variantlilikida tutgan o‘rni hamda fors tilidagi fe’llar variantlarining turlari to‘g‘risida so‘z yuritilsa, ushbu bobning “Fors tilida fe’llarning leksik-semantik variantlari” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida fors tilida fe’llarning leksik-semantik variantlashuvi omillari va fe’llarning leksik-semantik variantlashuvida ma’no guruhlari tadqiq etiladi. Ikkinchi bobning “Fors tilida fe’llarning funksional ekvivalentlari” deb nomlangan uchinchi bo‘limi fors tilida fe’llarning funksional ekvivalentligi omillari, hamda fe’llardagi leksik-semantik variantlashuv va funksional ekvivalentlikning o‘zaro bog‘liqligini tadqiq etishga bag‘ishlangan.

“Fors tili fe’l tizimida invariant-variant munosabati” deb nomlangan uchinchi bob dissertatsiyaning eng katta bobi bo‘lib bunda خواستن [xāstan], برداشتن [bar-dāštan] va بررسی کردن [barresi kardan] fe’llari misolida fors tilidagi sodda, prefiksli va qo‘shma fe’llarning formal invariantlari dissertant tomonidan ishlab chiqilgan usulda aniqlanadi. Jumladan, ushbu bobning birinchi bo‘limida fors tilida sodda fe’llarning formal invariantlari خواستن [xāstan] fe’li misolida, ikkinchi bo‘limida fors tilida prefiksli fe’llarning formal invariantlari برداشتن [bar-dāštan] fe’li misolida va uchinchi bo‘limida fors tilida qo‘shma fe’llarning formal invariantlari بررسی کردن [barresi kardan] fe’li misolida tadqiq etiladi.

Xulosa qismida dissertatsiyada ko‘rib chiqilgan masalalar yuzasidan chiqarilgan xulosalar va tavsiyalar bayon etilgan bo‘lib unda fe’llarning formal invariantlarini aniqlashning dissertant tomonidan ishlab chiqilgan usuli, shuningdek, fe’llarning formal invariantlari xususiyatlarining dissertant tomonidan aniqlangan xususiyatlari ko‘rsatib berilgan.

I BOB. TIL TIZIMIDA VARIANTLIK VA INVARIANTLIK

1.1. Til birliklari variantligi hodisasi

1.1.1. Til birliklari variantligi tushunchasi

Aynan bir til birligining turli o‘rinlarda har xil shakllarda ifodalanishidan iborat bo‘lgan til birliklari variantligi, bir tomondan tilning keng ifoda imkoniyatlariga ega ekanligini ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan tilning turli o‘rinlarda variantlikka bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqadigan hodisadir. O.S. Axmanovanning “Tilshunoslik terminlari lug‘ati”da variantlik “nutq qo‘llanishining turli sharoitlari, shuningdek, so‘zlovchi shaxslarning ijtimoiy va hududiy mansubligidagi farqlari bilan belgilanadigan rang-barangligi va har xilligi”⁴³ deb ta’riflangan. Boshqa bir rus tilshunosi V.M. Solntsev esa “variantlik til birliklari va butun til tizimining mavjudligi, ishlab turishi va evolyutsiyasi (tarixiy rivojlanishi) usulini yaqqol anglatib turuvchi termindir”⁴⁴, deydi. Til fonetikasi va morfologiyasidan boshlab semantik va stilistik qatlamlargacha bo‘lgan barcha sathlarda uchraydigan variantlashuv hodisasi, haqiqatdan ham, tilning boyishi va rivojlanishini ta’minlovchi muhim omillardan hisoblanadi. Aynan bir til birligining turli o‘rinlarda uning eng munosib variantlari vositasida ifodalanishi darajasi, shubhasiz, tilning boy ifoda imkoniyatlari ko‘rsatkichi bo‘lib ham xizmat qila oladi.

Tilshunoslikning bir qator masalalari kabi tildagi so‘z variantligi bo‘yicha ham turli, ba’zan esa bir-biriga zid bo‘lgan qarashlarni uchratish mumkin. Ba’zilar variantlarni ma’nosi o‘xshash bo‘lgan turli til birliklari (masalan, turli so‘zlar – A.Z) desalar, boshqalar variantlarni aynan bir so‘zning turli grammatik formalardagi qisman tovush o‘zgarishlariga uchragan shakli deb bilishadi⁴⁵. Xususan, D.E. Rozental va M.A. Telenkovalar tomonidan tuzilgan “Tilshunoslik

⁴³ Axmanova O.C. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1969. - С.71.

⁴⁴ Солнцев В.М. Вариативность, вариативность // Русский язык – энциклопедия. – Москва: БРЭ, 1997. - С.60.

⁴⁵ Литературная норма и вариативность. – Москва, 1981. - С.5.

terminlarining lugʻat-maʼlumotnomasi”da soʻz variantlari deganda “soʻzning ayni morfem tarkibi saqlangan holda biror-bir munosabatda bir-biridan farqlanadigan shakliy oʻzgarishi”ni tushunish lozimligi koʻrsatilgan⁴⁶. Biroq N.G. Mixaylovskayaning fikricha, “soʻz variantlilik masalasi, bir tomondan, soʻzning fonetik va morfologik turlanishi sifatida, ikkinchi tomondan, soʻzning sinonimlar bilan boʻlgan munosabati sifatida oʻrganiladi”⁴⁷. Bizning nazarimizda ham soʻz variantlari deganda nafaqat uning turli talaffuz (fonetik), tuslanish (grammatik) va maʼno (semantik) variantlari, balki maʼnodoshlik (sinonimik), shakliy (formal) va qoʻllanuv (funksional) variantlari ham tushunilmogʻi lozim.

1.1.2. Til birliklari variantlari turlari

Tilning turli sathlaridagi variant turlari va soni boʻyicha ham turlicha qarashlar mavjud. O.S. Axmanova oʻzining yuqorida eslatib oʻtilgan lugʻatida tildagi variantlarni *umumiy, yordamchi, grafik va asosiy variantlar* degan toʻrt umumiy variant, soʻzlarning *dialektik, leksik-sintaktik, morfologik, semantik va fonetik variantlari* degan besh soʻz varianti, hamda yetti xil (*kombinator, oʻzgarmas, asosiy, qoʻshimcha, erkin, stilistik va fakultativ-kombinator*) fonema variantiga boʻlib koʻrsatsa⁴⁸, D.E. Rozental va M.A. Telenkovalar oʻzlarining yuqorida eslatib oʻtilgan lugʻatlarida soʻzlarning *aksentologik (urgʻu), morfologik (grammatik), orfoepik (talaffuz), semantik, soʻz yasash va fonetik variantlari* kabi olti variant turini koʻrsatib oʻtishgan⁴⁹. Bundan bir necha oʻn yillar oldin tuzilgan va bugunga kelib maʼlum darajada eskirib qolgan ushbu lugʻatlarda, bizning nazarimizda, tilning fonetik sathidagi variantlashuvga katta eʼtibor berilishi bilan bir paytda boshqa til sathlari va qatlamlaridagi variantlashuv hodisasi toʻliq aks ettirilgan deya

⁴⁶ Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – Москва, 1985. - С.31.

⁴⁷ Михайловская Н.Г. Системные связи в лексике древнерусского книжно-письменного языка XI-XIV вв. – Москва, 1980. - С.17.

⁴⁸ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1969. - С.71-72.

⁴⁹ Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – Москва, 1985. - С.31-32.

olmaymiz. Shu jihatdan 1997-yilda nashr etilgan “Rus tili ensiklopediyasi”da ushbu kamchilik ma’lum darajada tuzatilgan: unda til variantlari *fonetik*, *grammatik* va *leksik variantlar* kabi uch variantlar guruhiga bo’lib ko’rsatilgan. Ushbu manbada keltirilishicha, fonetik variantlar o’z navbatida *orfoepik* (talaffuz bilan bog’liq), *aksent* (urg’u bilan bog’liq) va *fonematik* (tovush almashinuvi bilan bog’liq) *variantlarga*, grammatik variantlar ham *so‘z o‘zgartiruvchi*, *so‘z yasovchi* va *sintaktik variantlarga* bo’linadi⁵⁰.

Boshqa bir tilshunos N.S. Valgina grammatik variantlarni *morfologik* va *sintaktik variantlarga* bo’lib ko’rsatgan⁵¹. Boshqa bir o’rinda esa fonetik va morfologik variantlarni ularning til tizimi funksiyasi bilan bog’liq ekanligidan kelib chiqib, *funksional variantlar* deb atashni, funksional variantlarni esa o’z navbatida *struktur* va *pozitsion* variantlarga bo’lishni taklif qilinadi⁵². Ushbu tilshunos, shuningdek, til tizimida mavjud bo’lgan yana bir variant turi – so’zning *leksik-semantik variantlari* to’g’risida ma’lumot berib o’tadi. Uning ta’kidlashicha, ko’pma’noli so’zning ma’lum o’rinda ishlatilayotgan har bir alohida ma’nosi o’sha so’zning leksik-semantik varianti deb ataladi.

Rus tilshunosi E.V. Kuznetsova shakliga ko’ra har xil bo’lgan, ammo tilda bir xil mazmuniy funksiyani bajaradigan formal (shakliy) variantlik turini *funksional ekvivalent* deb ataydi⁵³. Rus tilshunosi S.O. Kwartsevskiyning ko’pma’nolilik va sinonimiyani tildagi variantlilik munosabatlarining asosiy turlaridan deb hisoblaganiga asoslanib⁵⁴ Sh. Balli funksional ekvivalentlik munosabatlari bilan bog’langan turli so’zlarni semantik variantlarga qarshi o’laroq *leksik variantlar* deb atashni taklif qiladi⁵⁵. Ammo L.V. Kropotova leksik variant tilshunoslikda

⁵⁰ Солнцев В.М. Варианты слова // Русский язык – энциклопедия. – Москва: БРЭ, 1997. – С.60-61.

⁵¹ Валгина Н.С. Активные процессы в современном русском языке. Учебное пособие. – Москва: Логос, 2001. Часть 3.

⁵² Манакова Н.А. Слово и его лексико-семантические варианты // <http://genling.ru/books/item/f00/s00/>

⁵³ Кузнецова Э.В. Лексикология русского языка. – Москва: Высшая школа, 1989. – С.123.

⁵⁴ Карцевский С.О. Об асимметричном дуализме лингвистического знака // История языкознания 19-20 веков в очерках и изречениях. – Москва, 1965. Ч. 2.

⁵⁵ Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. – Москва: Эдиториал УРСС, 2001. – С.87.

variantlashuvning boshqa turiga nisbatan qo‘llanilayotganligidan kelib chiqib ularni *funksional ekvivalentlar* yoki *formal variantlar* deb ataydi⁵⁶.

Bizning nazarimizda so‘zlarning funksional ekvivalentlari ham mavjudligi, boshqacha qilib aytganda, nafaqat shakl, balki ma’no birligi ham hisoblangan so‘zning formal yoki funksional jihatdan ham variantlashuvi mumkinligi to‘g‘risida so‘z yuritgan ushbu tilshunoslarning fikrlariga qo‘shilmaslik mumkin emas. Ta’kidlab o‘tish joizki, tildagi variantlashuv hodisasida muhim o‘rin tutadigan so‘zlarning funksional ekvivalentlari tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda asosiy rollardan birini o‘ynaydi.

Boshqa bir tilshunos T.V. Jerebilo so‘zning turli uslublarga mansubligi jihatidan bir-biridan farqlanadigan *stilistik variantlari* mavjudligi to‘g‘risida ham eslatadi⁵⁷. Stilistik variantlashuvning alohida hodisa sifatida talqin etilishiga e’tiroz bildirmagan holda so‘z variantlarining boshqa turlari ham muayyan stilistik jihatlarga ega bo‘lishini eslatib o‘tish lozim deb o‘ylaymiz. Jumladan, yuqorida eslatib o‘tilgan so‘zlarning turli funksional ekvivalentlarida ham turlicha (adabiy, rasmiy, ilmiy, og‘zaki va h.k.) uslublar ko‘zga tashlanadi.

Tilda so‘zlarning yuqorida eslatib o‘tilgan variant turlaridan tashqari uning yozuvda ifodalanishi bilan bog‘liq bo‘lgan variantlar: *orfografik variantlar* ham mavjud. Rus tilshunoslaridan O.S. Axmanova⁵⁸, B.Z. Bukchina⁵⁹, V.N. Nemchenko⁶⁰ va boshqalarning asarlarida so‘zlarning orfografik variantlari xususiyatlari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Aytib o‘tish lozimki, yozuv tizimining o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan fors tilida orfografik variantlar muhim o‘rin tutadi.

⁵⁶ Кропотова Л.В. Проблема разграничения синонимии и вариативности // Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2009. - № 2 (4). - С.158.

⁵⁷ Жеребило Т.В. Термины и понятия лингвистики: Лексика. Лексикология. Фразеология. Лексикография: Словарь-справочник. - Назрань: ООО «Пилигрим», 2011. - С.15.

⁵⁸ Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. – Москва, 2004. – С.208-210.

⁵⁹ Букчина Б.З. Орфографические варианты // Литературная норма и вариантность. – Москва, 1981. – С.224.

⁶⁰ Немченко В.Н. Основные понятия лексикологии в терминах. Учебный словарь-справочник. – Нижний Новгород, 1994. – С.24.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, tildagi so'z variantlari bir tomondan bir-biridan alohida bo'lgan variant turlari hisoblansalar, ikkinchi tomondan ushbu variant turlari o'rtasida muayyan bog'liqlik ko'zga tashlanadi. Ya'ni har bir variant turida boshqa bir variant yoki boshqa variantlar xususiyatlari ham aks etishi mumkin bo'ladi. Jumladan, ma'lum so'zning turli funksional ekvivalentlarida turli stilistik variantlardan tashqari, turli fonetik, leksik yoki semantik variantlar xususiyatlari ham ko'zga tashlanadi.

Hozirga qadar ushbu eslatib o'tilgan variantlarning ayrimlari haqida ham yagona qarash shakllanmagan. Xususan, *leksik variant* bo'yicha ikki xil qarash mavjud bo'lib bir guruh tilshunoslar uni ayni bir so'zning ayrim tovush o'zgarishlariga uchragan turli ko'rinishlari deb bilsalar, boshqa bir guruh tilshunoslar turli kontekstlarda bir ma'noni ifodalab keladigan turli so'zlar yoki so'z birikmalariga leksik variantlar deyishadi. Masalan, yuqorida eslatib o'tilgan "Rus tili ensiklopediyasi"da leksik variantlar ayni bir so'zning bir xil leksik-semantik funksiyaga ega bo'lgan va ayrim tovush o'zgarishlariga uchragan turli ko'rinishlari deb ta'riflansa⁶¹, L.P. Jukovskaya leksik variantlar deganda ma'nosi bir xil yoki yaqin bo'lganligi sababli o'zaro o'rin almasha oladigan ikki so'z yoki ikki so'z guruhini tushunish lozimligini aytadi⁶². N.G. Mixaylovskaya esa o'z semantik strukturasida ayni bir xil ma'noga ega bo'lgan turli so'zlarni leksik variantlar deb ataydi⁶³. Shuningdek, yuqorida eslatib o'tganimizdek, Sh.Balli ham funksional ekvivalentlik munosabatlari bilan bog'langan turli so'zlarni semantik variantlarga qarshi o'laroq leksik variantlar, deb atashni taklif qiladi⁶⁴. Ammo biz ko'pchilik tilshunoslarga ergashgan holda ushbu tadqiqotimizda ayni bir so'zning

⁶¹ Солнцев В.М. Варианты слова // Русский язык – энциклопедия. – Москва: БРЭ, 1997. - С.60.

⁶² Жуковская Л.П. Лексические варианты в древних славянских рукописях / Исследования по исторической лексикологии древнерусского языка. - Москва, 1964. - С.6; Жуковская Л.П. Текстология и язык древнейших славянских памятников. - Москва, 1976. - С.89.

⁶³ Михайловская Н.Г. Системные связи в лексике древнерусского книжно-письменного языка XI-XIV вв. - Москва, 1980. - С.143.

⁶⁴ Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. - Москва: Эдиториал УРСС, 2001. - С.87.

bir xil leksik-semantik funksiyaga ega bo'lgan va ayrim tovush o'zgarishlariga uchragan turli ko'rinishlarini leksik variantlar deb atashga qaror qildik.

Bundan tashqari, ayrim o'rinlarda *semantik variant* va *leksik-semantik variant* tushunchalarining aralash holda qo'llanishi kuzatilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, tilshunoslar tomonidan semantik variantlashuv deb kontekstual-interpretatsion ma'no turlanishiga⁶⁵, leksik-semantik variantlashuv deb esa polisemiyaga⁶⁶ nisbatan aytilishini eslatib o'tishni lozim deb bilamiz.

Til birliklari variantlari to'g'risida turli tilshunoslarning yuqorida eslatib o'tilgan turlicha qarashlari va xulosalari hamda o'zimizning bu boradagi mulohazalarimizni umumlashtirgan holda so'zlarning variantlarini quyidagi turlarga bo'lib ko'rsatishimiz mumkin: 1) fonetik variantlar (talaffuz, urg'u va tovush almashinuvi bilan bog'liq variantlar); 2) grammatik variantlar (so'z o'zgarishi va so'z yasalishi bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, morfologik va sintaktik variantlar); 3) leksik variantlar; 4) funksional ekvivalentlar; 5) semantik variantlar; 6) leksik-semantik variantlar; 7) stilistik variantlar; 8) orfografik variantlar.

Fors tilidagi fe'llarning formal (funktional) invariantlariga bag'ishlangan ushbu tadqiqotimizda fe'llarning leksik-semantik hamda funksional ekvivalentlari to'g'risida batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

1.2. Tilshunoslikda invariant tushunchasi

1.2.1. Invariant to'g'risida ma'lumot

Dastlab aniq fanlar, jumladan, matematikada qo'llanila boshlagan *o'zgarmas birlik*, *o'zgarmas miqdor* ma'nosini anglatuvchi⁶⁷ **invariant** atamasi (fransuzcha

⁶⁵ Шереметьева А.Г. Лексико-грамматическая вариантность в русском языке (синхронно-диахронный аспект): Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Ташкент, 2001. – С.38.

⁶⁶ Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. Ярцева В.Н. – Москва: Сов. энциклопедия, 1990. – С.382.

⁶⁷ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 8 жилдли. - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2005. Ж.4. – Б.158.

“invariant” – o‘zgarmas) keyinchalik fizika, biologiya, falsafa, psixologiya, tilshunoslik kabi boshqa fan sohalariga ham ko‘chib o‘tdi. Invariant tushunchasi turli fan sohalarida o‘sha fanlardan har biriga oid bo‘lgan hodisalar va munosabatlarga nisbatan qo‘llanilishi sababidan turlicha talqinlarga ega bo‘lsa-da, uning mohiyati – umumiy, o‘zgarmas birlik yoki miqdorni anglatishi barcha fan sohaları uchun umumiy bo‘lib qoladi. Xususan, falsafada ham invariant “o‘zgarmas miqdor” sifatida ta’riflanadi⁶⁸.

Invariantlik tushunchasi tilshunoslikka falsafadan kirib kelgan bo‘lib barqaror, o‘zgarmas belgilar yig‘indisi degan ma’noni bildiradi. Falsafiy tushuncha sifatida invariantga variant atamasi ziddiyatga qo‘yiladi. Bu zidlanish Kopengagen universiteti professori L. Yelmslev asarlarida yorqin ifodasini topgan. Uning ta’kidlashicha, matnning ko‘p joylarida “ayni bir xil” qo‘shma gaplar, “ayni bir xil” sodda gaplar, “ayni bir xil” so‘zlar va hokazolar uchraydi. Boshqacha qilib aytganda, har bir qo‘shma gapning, har bir sodda gapning, har bir so‘zning bir qancha namunalari uchraydi. Ana shu bir qancha namunalar variantlar, bu variantlar ortidagi mohiyat esa invariant sanaladi⁶⁹.

Tilshunoslikda invariant atamasi aniq qo‘llanish shakllaridan alohida bo‘lgan til strukturaviy birligi (fonema, morfema, leksema va boshqalar)ga nisbatan ishlatiladi⁷⁰. Boshqacha qilib aytganda, bir mohiyatning (birlikning) turli ko‘rinishlaridan iborat bo‘lgan *variant* tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan *invariant* “bir mohiyatning (birlikning) o‘zining turli ko‘rinishlaridan alohida bo‘lgan, variantlar vositasida shakllantiriladigan obyektlarning umumiy xususiyatini o‘zida aks ettiradigan, hamda variantlardan har biriga xos bo‘lgan abstrakt belgisidir”⁷¹.

Invariant allofondan boshlab matn semantikasiga qadar bo‘lgan til birliklarining tub ma’nosi bilan bog‘liq tomonlarini aks ettiradigan hodisa sifatida

⁶⁸ Краткая философская энциклопедия. – Москва: Прогресс, 1994. – С.175.

⁶⁹ Ельмслев Л. Прологомены к теории языка. – Новое в лингвистике. Вып.1. – Москва, 1960. – С.320.

⁷⁰ Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – Москва, 1985. – С.86.

⁷¹ Лингвистический энциклопедический словарь / Под ред. Ярцевой В.Н. – Москва: Советская энциклопедия, 1990.

til birligi tahlili tuzilishining asosini tashkil etadi. Rus tilshunos olimi N.V. Pertsov tilshunoslikda invariantlik muammosini keng tahlil qilib invariantni “ko‘pma’noli til birligining asosiy ma’nosini umumlashtiruvchi” sifatida belgilab berdi⁷². Shuningdek, ushbu tilshunos tilshunoslikda invariantlik nazariyasi mohiyati asosini aniqlab shunday yozadi: “Muayyan til birligi turlicha talqinlarining umumlashmasi xususidagi masala hamda ushbu umumlashmaning lingvistik tavsifi invariantlik nazariyasi mohiyatini tashkil etadi”⁷³. Shu bilan birga N.V. Pertsov invariant tushunchasining faqatgina ko‘pma’noli va ko‘pfunksiyali til birliklariga tegishli ekanligini ta’kidlar ekan, shunday birliklardan har birining invarianti deganda tegishli birlik yoki tegishli ma’noning turli kontekstlarda namoyon bo‘ladigan turlicha talqinlarini o‘zida birlashtiruvchi umumiy mazmunni tushunadi⁷⁴.

Invariantni lingvistik hodisa sifatida o‘rganish nisbatan yaqinda boshlangan bo‘lib haligacha invariant hodisasi qat’iy qoidalar yoki biror bir nazariya doirasida aniq belgilab berilganicha yo‘q. Shu sababli ham invariant tushunchasi turli tilshunoslar asarlarida umumiy ma’noga ega bo‘lgan turlicha nomlar bilan berilgan. Masalan, I.M. Kobozeva matn semantikasidagi *variant* va *invariant* tushunchasini *konkret ma’no* va *virtual ma’no* sifatida belgilaydi⁷⁵. S. Shaumyan asarlarida esa *umumiy ma’no* tushunchasini uchratamiz⁷⁶. Shuningdek, D.N. Shmelev ko‘pma’noli til birligining umumiy ma’nosini izlash shart emasligini ta’kidlar ekan, bu o‘rinda *yagona semantik birbutunlik* mavjudligi to‘g‘risida gapiradi⁷⁷. L. Yelmslevning asarlarida esa invariant *mohiyat*, variant esa *namuna* sifatida tushuntiriladi⁷⁸.

⁷² Перцов Н.В. Инвариант в русском словоизменении. - Москва, 2001. - С.25.

⁷³ Ko‘rsatilgan asar. - B.20.

⁷⁴ Ko‘rsatilgan asar. - B.12.

⁷⁵ Кобозева И.М. Лингвистическая семантика: Учебное пособие. - Москва, 2004. - С.55.

⁷⁶ Шаумян С. Абстракция в современной лингвистике. Логос, 1999. - № 1. - С.186.

⁷⁷ Шмелев Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики (на материале русского языка). - Москва: Наука, 1973. - С.76.

⁷⁸ Ельмслев Л. Прологомены к теории языка // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 1. - Москва: Прогресс, 1960. - С.320.

O‘zbek tilshunoslari asarlarida tilning turli sathlaridagi invariantga nisbatan *umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab*, variantga nisbatan *xususiylik, hodisa, voqelik, oqibat*, invariant-variant munosabatiga nisbatan esa *umumiylik-xususiylik (mohiyat-hodisa, imkoniyat-voqelik, sabab-oqibat) munosabati (dialektikasi)* kabi atamalarning qo‘llanilishi kuzatiladi⁷⁹. Ammo shu bilan birga invariant va variant tushunchalarining o‘zi ushbu atamalar vositasida ifodalanayotgan ma’nolarning umumiy nomlanishi sifatida ishlatiladi.

Biroq bularning barchasiga qaramasdan, aksariyat tilshunoslarning invariant hamda invariant-variant munosabati borasidagi qarashlarida farqlanishdan ko‘ra umumiylik, o‘xshashlik ko‘proq ekanligini kuzatish mumkin. Yuqorida nomlari keltirib o‘tilgan tilshunoslarning invariantlik to‘g‘risida bildirgan qarashlarini umumlashtirib, **invariant turli variantlarda namoyon bo‘ladigan til birligining birlamchi shakli, uning turli variantlarining umumlashmasidir** degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan misollardan ma’lum bo‘ladiki, tilshunoslikda invariantga nisbatan “abstrakt” va hatto “real mavjud bo‘lmagan obyekt” sifatida qarash keng tarqalgan. Invariantga nisbatan “belgi”, “unsur”, “ifoda”, “predmet” kabi turli so‘zlarni qo‘llagan tilshunoslar uning abstrakt ekanligi yoki abstrakt tizimga mansubligi to‘g‘risida so‘z yuritadilar. Masalan, rus tilshunosi O.S. Axmanova invariantni “o‘zining aniq qo‘llanish shakllaridan alohida bo‘lgan tilning abstrakt tizimi elementi sifatidagi ema”⁸⁰, deb ta’riflasa, “Tilshunoslik entsiklopedik lug‘ati”da invariant “bir mohiyatning o‘zining aniq turlanishlaridan – variantlaridan alohida bo‘lgan abstrakt ifodasidir”⁸¹, deb izohlangan. Shuningdek, boshqa bir rus tilshunosi V.M. Solntsev invariant tushunchasi to‘g‘risida shunday yozadi:

⁷⁹ Qarang: Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент, 2001; Сайфуллаева Р., Курбонова М., Менглиев Б., Бокиева Г. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланмаси. – Тошкент, 2005; Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. – Тошкент, 2005; Абузалова М., Назарова С. Систем тилшунослик асослари. Лингвистика (ўзбек тилшунослиги) мутахассислиги магистрантлари учун қўлланма. – Бухоро, 2008.

⁸⁰ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1969. – С.176.

⁸¹ Лингвистический энциклопедический словарь / Под ред. Солнцева В.М. – Москва, 2002. – С.81.

“Invariant deb abstrakt xususiyatlari bilan xarakterlanadigan ayrim abstrakt predmetga aytish lozim. Binobarin, invariant nisbatan bir xil predmetlar yoki hodisalar sinfida obyektiv ravishda mavjud bo‘ladigan umumiylikdir. Invariant abstrakt predmet sifatida predmetlar yoki hodisalar qatoridan umumiylikni xayolan chiqarib olish hamda uni predmetlar o‘rtasidagi ushbu sinf uchun asosiy bo‘lmagan farqlardan alohidalashtirish orqali loyihalashtiriladi. Invariant predmetlarning ushbu qatori yoki ushbu qatorga kiruvchi har bir predmetning umumiy xususiyatlarini o‘rganish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan ideal obyektidir”⁸². Boshqa bir tilshunos T.V. Levina esa yanada aniqroq qilib, invariantning o‘zi alohida obyekt sifatida mavjud emasligini, uning hatto biror bir sinf vakili, etalon yoki “namunaviy variant” ham deb bo‘lmashligini ta’kidlar ekan, “invariant nom sifatida so‘z ko‘rinishidagina mavjud”, deb xulosa chiqaradi⁸³.

Ko‘pchilik tilshunoslarning invariantning real bo‘lmagan, xayoldagina mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan tushuncha ekanligi to‘g‘risidagi qarashlari va xulosalarini taftish qilish niyatidan uzoq bo‘lgan holda, o‘zimizning bu xususdagi ayrim mulohazalarimizni bildirib o‘tishni lozim deb bilardik. Bizning nazarimizda invariant mavzusi tilshunoslikda, jumladan, fonetik va grammatik sathlarda o‘rganila boshlagan paytlarda uning abstraktligi yoki xayoliyligi to‘g‘risidagi xulosalar to‘g‘ri bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Zero haqiqatdan ham fonetik va grammatik (morfologik, shuningdek so‘z yasalishi va so‘z tuslanishi bilan bog‘liq bo‘lgan) invariantlar abstrakt holatdagina mavjud bo‘lib, konkret voqelanishda ularning variantlarini ko‘ramiz, xolos. Biroq XX asrning o‘rtalaridan boshlab shu kunga qadar tilning leksik va semantik sathlaridagi, jumladan, leksik-semantik invariant, oxirgi yillarda esa funksional ekvivalent ustida olib borilayotgan tadqiqotlar invariantning leksik-semantik hamda formal (funksional) invariant turlarida anchagina darajada abstraktlik saqlangan holda, real mavjudlik

⁸² Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. – Москва: Наука, 1977. - С.214.

⁸³ Левина Т.В. Инвариант в языкознании и теория инварианта в языке. Вестник КАСУ (Казахстанско - Американский свободный университет), 2005. - №2. - С.18.

xususiyatlarining ham namoyon bo'lishi kuzatilmoqda. Masalan, ko'pma'noli so'zning leksik-semantik invariantini aniqlash va tavsiflashdan ko'zda tutilgan maqsadlardan biri izohli lug'atlarda shunday so'zning barcha ma'nolarini o'zida aks ettira oladigan asosiy, umumiy ma'nosi yoki ma'nolarini qamrab oladigan izohni berish bo'lsa⁸⁴, ana shu izohning o'zi ayrim holatlarda (masalan, biror axborotni qisqaroq, lo'ndaroq va umumiyroq tarzda yetkazishda) muayyan reallik xususiyatini olishi, ya'ni real nutqda ishlatilishi mumkin. Bizning ushbu tadqiqotimizda qo'llanilayotgan formal (funktional) invariant esa xuddi ana shu holatda (ya'ni biror axborotni qisqaroq, lo'ndaroq va umumiyroq tarzda yetkazishda) undan-da ko'proq real qo'llanilish xususiyatiga ega bo'la oladi.

1.2.2. Til sathlaridagi invariant turlari

Invariant tushunchasi tilshunoslikka dastlab uning **fonologiya** sohasi orqali kirib keldi. A. Martinening guvohlik berishicha: "variantlar va invariantlarni qarama-qarshi qo'yish Praga fonologlari, shuningdek, Deniel Jounz va uning shogirdlari tomonidan ifoda planida amalga oshdi. Fonemalar invariantlar deb atala boshlandi"⁸⁵. Agar bunda fonema invariant sifatida tavsiflana boshlangan bo'lsa, uning tovushda voqelanishi variantlar sifatida belgilana boshlandi.

Keyinchalik *variant* va *invariant* tushunchalari tilning boshqa sohalariga ham ko'chib o'tdi. Invariant va variantlar mohiyati va nisbati nafaqat ifoda plani, balki mazmun planiga ham ega bo'lgan *morfema* va *leksema* kabi ikkitomonlama til birliklariga nisbatan yanada murakkabroq hisoblanadi.

XX asrning 30–50 yillarida grammatik va leksik invariant ma'no g'oyasi **grammatika** va **leksikologiyada** keng tarqaldi. Masalan, grammatikada *grammema nomi* (masalan, hozirgi zamon, birlik son) uning lisoniy ma'nosi (invariant), qolgan

⁸⁴ Подтележникова Е.Н., Кретов А.А. О лексико-семантическом инварианте и его роли в организации словаря // Вестник ВГУ, 2008. - №3, - С.17-21.

⁸⁵ Мартине А. О книге "Основы лингвистической теории" Луи Ельмслева // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 1. – Москва: Прогресс, 1960. - С.448.

barchasi (ma'nolari, ma'no ottenkalari, mazmun) grammatik tavsif doirasidan tashqarida bo'lgan kontekst effektlari (variantlar) sifatida baholandi. Bu borada amalga oshirilgan ishlar orasida eng mashhurlari R.O. Yakobson⁸⁶, A.V. Isachenko⁸⁷ kabilar qalamiga mansub.

XX asrning o'rtalaridan boshlab invariant nazariyalari **leksikologiya** va **semantikada** ham keng tarqala boshladi. Bu borada V.A. Zvegintsev⁸⁸, A.I. Smirnitkiy⁸⁹ kabi tilshunoslarning asarlari alohida o'rin tutadi. Bunda ko'pma'noli so'zning leksik-semantik variantlarini aniqlash va ajratib ko'rsatish boshlandi. Aytib o'tish lozimki, leksik-semantik variantlarni aniqlash va ajratib ko'rsatish asosida har qanday til birligida faqat birgina ma'no mavjud bo'ladi degan umumiy tezis yotadi. Invariant ma'no deb ataluvchi ana shu yagona ma'no kontekstga qarab turlanadi⁹⁰.

Oxirgi yillarda *variant* va *invariant* tushunchalari **nutq matni** sathida ham tildagi o'zaro so'zlashuvning tipik holati, matnning uslubiy va kompozitsion tuzilishi, hamda til vositalarining funksional farqlanishini modellashtirishda ham qo'llanila boshlangan bo'lib, bunda rossiyalik tilshunoslar G.G. Moskalchuk⁹¹, T.V. Jerebilo⁹² va boshqalarning tadqiqotlari ahamiyatga molik.

Shu kunga qadar tilshunoslikning bir qancha sohalariga kirib borishga ulgurgan *invariant* tushunchasining o'zi u qo'llanilayotgan til sathlari bilan bog'liq bo'lgan bir necha turlarga bo'linadi. Hozirgi zamon tilshunosligida invariantning til fonetik sathidagi fonema-tovush munosabatlariga nisbatan qo'llaniluvchi *fonetik invariant*, tilning grammatik (morfologik) sathida so'zlarning turli grammatik

⁸⁶ Qarang: Якобсон Р.О. О структуре русского глагола, 1932; К общему учению о падеже, 1936.

⁸⁷ Qarang: Исаченко А.В. Грамматический строй русского языка в сопоставлении со словацким. Морфология. 1960.

⁸⁸ Qarang: Звегинцев В.А. Семасиология. - Москва, 1957.

⁸⁹ Qarang: Смирницкий А.И. Значение слова. "Вопросы языкознания", 1955. - №2; Смирницкий А.И. К вопросу о слове (проблема «тождества» слова) // Тр. Ин-та языкознания АН СССР. - Москва, 1954.

⁹⁰ Грязнова В.М. Понятие инварианта в лингвистике: история вопроса и современное состояние // Вестник Ставропольского университета, 2009. - №65. - С.187.

⁹¹ Москальчук Г.Г. Структура текста как синергетический процесс. - Москва: Едиториал, 2003.

⁹² Qarang: Жеребило Т.В. Лингвостилистическая парадигма в информационном пространстве современного языкознания. - Назрань: Пилигрим, 2007.

formalar va kategoriyalarda variantlashuviga nisbatan qo'llaniladigan *grammatik (morfologik, shuningdek so'z yasalishi va so'z tuslanishi bilan bog'liq bo'lgan) invariant*, bir so'zning barcha shakl va ma'nolari majmuiga nisbatan qo'llaniladigan *leksik invariant*, tilning turli sathlaridagi variantlashuvda kuzatiladigan semantik umumiylikka nisbatan ishlatiladigan *semantik invariant*, ko'p ma'noli so'zning ma'no variantlashuvdagi umumiylik yoki mohiyatga nisbatan qo'llaniladigan *leksik-semantik invariant* ko'p ma'noli so'zning shakli to'g'ridan-to'g'ri atov (nominativ) ma'nosi va umumiy formal semantik belgilarining umumlashmasiga nisbatan qo'llaniluvchi *formal-semantik invariant*, nutq matnidagi umumiylikka nisbatan qo'llaniladigan *funksional-stilistik invariant*, *matn tuzilishi invarianti*, *syujet invarianti*, *muallif invarianti* kabi turlari borasida so'z yuritiladi.

Bulardan tashqari, invariantning til sathlarining turli bo'limlari va qirralariga oid bo'lgan, ya'ni muayyan til sathlaridagi invariantlar bilan bog'liq bo'lgan kichikroq turlari ham eslatib o'tilganiga guvoh bo'lamiz. Invariantning bunday kichik yoki ikkilamchi turlari sifatida turli tilshunoslar tadqiqotlarida aytib o'tilgan *leksik birlik invarianti*, *so'z yasalishidagi invariant*, *so'z o'zgarishi (tuslanishi, turlanishi)dagi invariant*, *til tizimining funksional-stilistik invarianti*, *so'z yasalishining funksional-stilistik invarianti*, *kommunikativ sifatning funksional-stilistik invarianti*, *tarjima invarianti* kabilarni eslatib o'tishimiz mumkin.

Bulardan tashqari bevosita fe'llar bilan bog'liq bo'lgan invariant to'g'risida so'z yuritilishining guvohi bo'ldik. Jumladan, A.M. Plotnikova tadqiqotida muayyan leksik-semantik guruhlar tarkibiga kiruvchi fe'llarga nisbatan invariant vazifasidagi *asosiy fe'l* (базовый глагол) va variantlar vazifasidagi *oddiy a'zolar* (рядовые члены) iboralarining qo'llanilishi kuzatildi⁹³. Tilshunos tadqiqotchi

⁹³ Плотникова А.М. Когнитивное моделирование семантики глагола: Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. - Екатеринбург, 2009. - С.24.

N.S. Potilitsina esa fe'l semantik turlaridan biri bo'lgan *harakat fe'llari invariantini* topishga uringan⁹⁴.

Shuni eslatib o'tish lozimki, hozirga qadar ayrim o'rinlarda *semantik invariant* va *leksik-semantik invariant* tushunchalari o'rtasida aniq farq yoki chegara qo'yilmasdan, ularni aralash holda qo'llash kuzatilmoqda. Shu o'rinda aniqlik kiritib o'tish lozimki, ko'pma'noli so'zning bir necha ma'no variantlaridagi umumiylik yoki mohiyatga nisbatan qo'llaniladigan *leksik-semantik invariant* tushunchasidan farqli o'laroq, *semantik invariant* deb kontekstual-interpretatsion ma'no turlanishidagi umumiylikka aytiladi⁹⁵.

Shuningdek, A.V. Bondarko "semantik invariantlardan bir tomondan, grammatik formalar ma'nosi, ikkinchi tomondan, morfologik, sintaktik, leksik-grammatik va leksik vositalarning turli birikmalari orqali ifodalanadigan semantik kategoriyalar ajralib chiqadi"⁹⁶, deya semantik invariantning ham grammatik formalar ma'nolari ham ko'p ma'noli so'zlar ma'nolaridagi umumiylikni bildirishini ta'kidlab o'tadi.

Bundan tashqari, ayrim tilshunoslar *leksik invariantni* bir so'zning barcha shakl va ma'nolari majmui sifatida tavsiflab, bunda leksema invariant, lekse esa uning varianti degan fikrni bildirsalar, boshqa tilshunoslar leksik invariant deganda "so'zning undan variantlar – konkretroq xususiy ma'nolar ajralib chiqadigan umumiy ma'nosi"ni tushunishadi⁹⁷.

Shunisi e'tiborliki, yuqorida eslatib o'tganimizdek, tilshunoslikka fonologiya orqali kirib kelib, keyinchalik uning boshqa bir necha sohasiga ham tatbiq etilgan invariantlikning tilning bundan ham boshqa sathlari va o'rinlarida izlashning yaxshigina istiqbollari mavjud. Invariant tushunchasi variant tushunchasi bilan

⁹⁴ Потылицина Н.С. Модели репрезентации концепта «mouvement» в старофранцузском тексте: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. - Иркутск, 2012. - С.3.

⁹⁵ Шереметьева А.Г. Лексико-грамматическая вариантность в русском языке (синхронно-диахронный аспект): Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Ташкент, 2001. – С.38.

⁹⁶ Бондарко А.В. Функциональная грамматика: проблемы сочетаемости // Русский язык в научном освещении, 2003. - №1. - С.9.

⁹⁷ Кошелев А.Д. К проблеме лексической многозначности. Описание общего значения глагола *брать / взять* // Язык. Личность. Текст: К 70-летию Николаевой Т.М. - Москва: Языки славянских культур, 2005. - С.315.

bevosita bog‘liq ekanligidan, aniqroq qilib aytganda, “invariant variant bilan o‘zaro aloqada ko‘rib chiqilishi”⁹⁸dan kelib chiqadigan bo‘lsak, tildagi variantlilik hodisasi yuz beradigan boshqa o‘rinlarda ham invariantlikni izlash imkoniyatlari mavjudligi to‘g‘risida gapirish mumkin.

Shu o‘rinda tildagi invariantlikning yaxshi o‘rganilmagan yana bir jihati – *formal* yoki *funksional invariantlik* to‘g‘risida ham eslatib o‘tsak. Yuqorida E.V. Kuznetsova, Sh. Balli va L.V. Kropotovalar tomonidan tilda bir xil mazmuniy funksiyani bajaradigan turli so‘zlarga nisbatan funksional ekvivalentlar kabi tushunchalarning qo‘llanilganligi to‘g‘risida eslatib o‘tdik. Biz ushbu tilshunoslar tomonidan o‘rtaga tashlangan va bizning nazarimizda yetarli asosga ega bo‘lgan funksional ekvivalentlar tushunchalariga tayangan holda, fe’llarning sinonimik, stilistik, kontekstual va frazeologik variantlashuvidagi *formal* yoki *funksional invariantlik* to‘g‘risida ham so‘z yuritish mumkin deb hisoblaymiz. Aytib o‘tish lozimki, shu kunga qadar o‘zbekistonlik tadqiqotchi Y.O. Zinin tomonidan rossiyalik tilshunoslar E.V. Kuznetsova, A.A. Zaliznyak va boshqalarning fikrlariga tayangan holda *formal invariant* tushunchasining qo‘llanilganligi kuzatildi⁹⁹. Rus tadqiqotchisi L.V. Vasilyevaning fe’llarning funksional ekvivalentlarini yagona invariant ma’no birlashtirib turishi to‘g‘risidagi xulosalariga¹⁰⁰ tayangan holda, ana shu yagona invariant ma’noning o‘zaro variantlik munosabatida bo‘lgan fe’llarning birida, ayrim holatlarda esa bir nechtasida, ya’ni formal yoki funksional invariant vazifasidagi fe’lda yoki fe’llarda mujassam bo‘lishini ham mumkin bo‘lgan holat deb hisoblaymiz.

Biz ushbu tadqiqotimizda yuqorida eslatib o‘tilgan invariant turlaridan faqatgina *formal (funksional) invariant*, ya’ni fors tilida bir fe’l vositasida

⁹⁸ Жеребило Т.В. Инвариантно-вариативная парадигма в современной лингвистике и перспективы ее развития.

⁹⁹ Зинин Е.О. Русские деминутивы в общевариологическом аспекте: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 2008.

¹⁰⁰ Васильева Л.В. Модальный глагол MUST и его функциональные эквиваленты как сегмент функционально-семантического поля модальности: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 1990. – С.18.

ifodalanadigan muayyan ma'noning turli o'rinlarda o'sha fe'lning funksional ekvivalentlari vositasida berilishidagi invariant-variant munosabati to'g'risida so'z yuritamiz.

1.3. Invariantlikning turli mamlakatlarda o'rganilishi

XIX asrning oxirlaridan matematika va fizikada qo'llanila boshlagan invariant tushunchasi XX asrning boshlarida tilshunoslikka ham kirib keldi. Tilshunoslikda invariant muammosining o'rganilishi shveytsariyalik tilshunos F. de Sossyur (1857-1913) tomonidan boshlab berilgan degan qarashlar mavjud. Aniqrog'i 1916-yil uning mashhur "Leksiyalar kursi"ning nashr etilishidan so'ng tilshunoslikda invariantlik g'oyasining ishlab chiqilishi boshlandi. F. de Sossyurdan keyin rus va amerika tilshunosi Roman Yakobson invariantlikning eng uyg'un lingvistik nazariyalaridan birini yaratib berdi.

O'tgan davr mobaynida Yevropa, AQSh, Rossiya va boshqa mamlakatlarda tilshunoslikdagi invariant-variant munosabatini tadqiq etish bilan shug'ullanadigan, hamda invariantlik nazariyasining rivojlanishiga asosiy hissa qo'shgan bir qator tilshunoslar yetishib chiqdilar. Quyida invariantlikning o'rganilishiga o'z hissasini qo'shgan turli mintaqalar va mamlakatlar tilshunoslari to'grisida qisqacha ma'lumotlar keltirib, shuningdek, O'zbekiston va Eron tilshunosligida bu mavzuning o'rganilishi bilan bog'liq vaziyatga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

1.3.1. Invariantlikning chet elda o'rganilishi

Yevropada. Buyuk Britaniyalik tilshunos D. Jounz¹⁰¹ fonologiyadagi invariantlik, slovak olimi A.V. Isachenko¹⁰² esa grammatik invariant ma'no ustida tadqiqotlar olib borishgan.

¹⁰¹ Jones D. The Phoneme: its Nature and Use. – Cambridge, 1950.

¹⁰² Исаченко А.В. Грамматический строй русского языка в сопоставлении со словацким. Морфология. – Братислава: Словацкая Академия наук, 1960.

AQShda. Tilshunoslikdagi invariant-variant munosabatini tadqiq etish bilan shugʻullangan amerikalik tilshunoslardan Ch. Filmor¹⁰³, E. Rosh¹⁰⁴ va J. Lakoff¹⁰⁵ lar tilning leksik va semantik sathlaridagi, M. Halle¹⁰⁶ esa fonetik sathidagi invariantlarni tadqiq qilishgan.

1.3.2. Invariantlikning Rossiya olimlari tomonidan oʻrganilishi

Tilshunoslikdagi invariant-variant munosabati rus tilshunoslari tomonidan anchagina keng va chuqur oʻrganilgan boʻlib, shu choqqacha Rossiyada tilning turli sathlaridagi invariantlikni tadqiq etish bilan shugʻullanadigan tilshunoslarning bir necha avlodi yetishib chiqdi. Asli rossiyalik boʻlib keyinchalik AQShga koʻchib ketgan XX asrning buyuk tilshunoslaridan hisoblangan R. Yakobson (1896-1982) tomonidan boshlab berilgan rus invariantshunoslari undan keyin yetishib chiqqan oʻnlab tilshunoslar tomonidan davom ettirildi. Shu kungacha tilning turli sathlaridagi invariant-variant munosabatini tadqiq etgan va tadqiq etayotgan rus tilshunoslaridan quyidagi asosiylarini eslatib oʻtish mumkin. **Fonologiyada:** L.V. Sherba¹⁰⁷, A. Martine¹⁰⁸, L. Yelmslev¹⁰⁹ va boshqalar; **grammatika, morfologiya va soʻz yasashida:** R. Yakobson¹¹⁰, I.S. Uluxanov¹¹¹, V.A. Plungyan¹¹² va boshqalar; **leksikologiya va semantikada:** A.I. Smirnitskiy¹¹³,

¹⁰³ “The Case for Case” (1968). In Bach and Harms (Ed.). *Universals in Linguistic Theory*. - New York: Holt, Rinehart, and Winston; “Frame semantics and the nature of language” (1976). In *Annals of the New York Academy of Sciences. Conference on the Origin and Development of Language and Speech. Volume; “Frame semantics”* (1982). In *Linguistics in the Morning Calm*. - Seoul: Hanshin Publishing Co.; Филлмор Ч., 1988. Фреймы и семантика понимания // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII, 1988.

¹⁰⁴ Rosch E. *Human categorization* // *Studies in cross-cultural psychology*. - N. Y.: Academic press, 1977.

¹⁰⁵ 2003 (1980) with Mark Johnson. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press, 2003; Лакофф Дж. 1981. О порождающей семантике // Новое в зарубежной лингвистике. - Москва: Прогресс, 1981. Вып. X.; Лакофф Д., Джонсон М. *Метафоры, которыми мы живем*. - Москва, 2004.

¹⁰⁶ Halle, M. 1995. *Feature Geometry and Feature Spreading*. *Linguistic Inquiry* 26(1); Halle, M. 2005. *Palatalization / Velar softening: What it is and what it tells us about the nature of language*. *Linguistic Inquiry* 36.

¹⁰⁷ Щерба Л.В. *Фонетика французского языка*. - Москва: Наука, 1953.

¹⁰⁸ Мартин А. О книге “Основы лингвистической теории” Луи Ельмслева // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.1. - Москва: Прогресс, 1960.

¹⁰⁹ Ельмслев Л. *Пролегомены к теории языка* // Новое в зарубежной лингвистике. Вып.1. - Москва: Прогресс, 1960.

¹¹⁰ Якобсон Р.О. О структуре русского глагола, 1932; Якобсон Р.О. К общему учению о падеже, 1936.

¹¹¹ Улуханов И.С. *Словообразовательная семантика в русском языке*. - Москва: Наука, 1977.

¹¹² Плунгян В.А. *Общая морфология*. - Москва: Эдиториал УРСС, 2000.

V.A. Zveginsev¹¹⁴, N.D. Artyunova¹¹⁵, Y.D. Apresyan¹¹⁶, D.N. Shmelev¹¹⁷,
V.M. Solntsev¹¹⁸, N.V. Pertsov¹¹⁹, S. Shaumyan¹²⁰, I.M. Kobozeva¹²¹,
A.V. Bondarko¹²² va boshqalar; **matn nazariyasida:** G.G. Moskalchuk¹²³,
A.I. Novikov¹²⁴, T.V. Jerebilo¹²⁵, V.V. Sdobnikov¹²⁶, S.V. Serebryakova¹²⁷ va
boshqalar.

Shu o‘rinda eslatib o‘tish lozimki, ko‘pchilik rus tilshunoslari hozirgi zamonda invariant bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda N.V. Pertsovning rolini alohida ta’kidlab ko‘rsatishmoqda. Uning “Rus tilidagi so‘z o‘zgarishida invariantlar” («Инварианты в русском словоизменении». - М., 2001) asarida invariant mavzusi anchagina batafsil ochib berilgan.

1.3.3. Invariantlikning O‘zbekistonda o‘rganilishi

O‘zbek tilshunoslari asarlarida tildagi invariant-variant munosabati tilning turli sathlarida namoyon bo‘ladigan umumiylik-xususiylik dialektikasi sifatida ko‘rib chiqiladi.

¹¹³ Смирницкий А.И. Значение слова. Вопросы языкознания. 1955, - №2; Смирницкий А.И. К вопросу о слове (проблема «тождества» слова) // Тр. Ин-та языкознания АН СССР. - Москва, 1954.

¹¹⁴ Звегинцев В.А. Семасиология. - Москва, 1957.

¹¹⁵ Арутюнова Н.Д. О минимальной единице грамматической системы // Единицы разных уровней грамматического строя языка и их взаимодействие. - Москва: Наука, 1969.

¹¹⁶ Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. - Москва: Наука, 1974.

¹¹⁷ Шмелев Д.Н. Современный русский язык. Лексика. - Москва: Просвещение, 1977.

¹¹⁸ Солнцев В.М. Язык как системно-структурное образование. - Москва: Наука, 1977.

¹¹⁹ Перцов Н.В. Инвариант в русском словоизменении. - Москва, 2001.

¹²⁰ Шаумян С. Абстракция в современной лингвистике. Логос, 1999. - №1. - С.186.

¹²¹ Кобоzeва И.М. Лингвистическая семантика: Учебное пособие. - Москва, 2004.

¹²² Бондарко А.В. Инварианты и прототипы в системе функциональной грамматики [Текст] / Бондарко А.В. // Проблемы функциональной грамматики: Семантическая инвариантность / вариативность. / отв. ред. Бондарко А.В., Шубик С.А. - СПб.: Наука, 2003.

¹²³ Москальчук Г.Г. Структура текста как синергетический процесс. - Москва: Едиториал, 2003.

¹²⁴ Новиков А.И. Семантика текста и ее формализация. - Москва: Наука, 1983.

¹²⁵ Жеребило Т.В. Функционально-стилистический инвариант в учебной лексикографии. - Назрань: Пилигрим, 2005; Жеребило Т.В. Лингвостилистическая парадигма в информационном пространстве современного языкознания. - Назрань: Пилигрим, 2007.

¹²⁶ Сдобников В.В., Петрова О.В. Теория перевода. - Москва: Восток – Запад, 2006.

¹²⁷ Серебрякова С.В. Концептуально значимая информация как инвариант перевода. Пилигрим, 2007. Статья. Lingua-Universum - №4.

O'zbek tilshunosligida umumiylik-xususiylik dialektikasi A. Nurmonov¹²⁸, R. Sayfullayeva¹²⁹, D. Nabiyeva¹³⁰, M. Abuzalova¹³¹ kabilarning tadqiqotlari, darslik va o'quv qo'llanmalarida keng yoritib berilgan.

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, o'zbek tilshunoslari tilning turli sathlaridagi invariantga nisbatan *umumiylik*, *mohiyat*, *imkoniyat*, *sabab*, variantga nisbatan *xususiylik*, *alohidalik*, *yakkalik*, *hodisa*, *voqelik*, *oqibat*, invariant-variant munosabatiga nisbatan esa *umumiylik-xususiylik* (*umumiylik-alohidalik*, *umumiylik-yakkalik*, *mohiyat-hodisa*, *imkoniyat-voqelik*, *sabab-oqibat*) *munosabati* (*dialektikasi*) kabi atamalarni qo'llashadi. Bundan tashqari, o'zbek tilshunoslari tomonidan invariant va variantga nisbatan qo'llanilgan ushbu tushunchalarni umumlashtirishga bo'lgan urinish ham ko'zga tashlanadi. Masalan, R. Sayfullayeva va boshqalar 2005-yilda nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv qo'llanmasida tilning turli sathlariga nisbatan qo'llaniladigan umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab tushunchalarining birlashtirilishi asosida ushbu so'zlarning bosh harflari ishtirokida hosil bo'lgan UMIS, shuningdek alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat tushunchalarining birlashtirilishi asosida ushbu so'zlarning bosh harflari ishtirokida hosil bo'lgan AHVO tushunchalarini muomalaga kiritdilar¹³². M. Abuzalova va S. Nazarovalar esa "Sistem tilshunoslik asoslari" qo'llanmasida AHVO tushunchasining o'rniga yakkalik, hodisa, voqelik, oqibat so'zlarining bosh harflari ishtirokida hosil bo'lgan YAHVO tushunchasini qo'llashgan¹³³.

Aytib o'tish lozimki, tilning turli sathlaridagi invariant-variant munosabatini izohlash uchun *umumiylik-xususiylik* kabi o'zbekcha ibora yoki atamadan

¹²⁸ Нурмонов А. Лисоний бирликларда умумийлик ва хусусийлик, мохият ва ҳодиса диалектикаси. ЎТА. - Тошкент, 1995. 1-сон; Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. - Тошкент, 2001.

¹²⁹ Сайфуллаева Р., Курбонова М., Менглиев Б., Боқиева Г. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланмаси. - Тошкент, 2005.

¹³⁰ Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. - Тошкент, 2005.

¹³¹ Абузалова М., Назарова С. Систем тилшунослик асослари. Лингвистика (ўзбек тилшунослиги) мутахассислиги магистрантлари учун қўлланма. - Бухоро, 2008.

¹³² Сайфуллаева Р., Курбонова М., Менглиев Б., Боқиева Г. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланмаси. - Тошкент, 2005. - Б.25-32.

¹³³ Абузалова М., Назарова С. Систем тилшунослик асослари. Лингвистика (ўзбек тилшунослиги) мутахассислиги магистрантлари учун қўлланма. - Бухоро, 2008. - Б.9-14.

foydalangan o'zbek tilshunoslari invariantning turlari, jumladan, tilning semantik sathidagi invariantlarga nisbatan ham o'zbekcha atamalarni qo'llashga urinishmoqda. Masalan, agar o'zbek tilshunosi J.B. Bo'ronov tipologik kategoriyadagi *tipologik ma'no* bilan bog'liq invariant haqida so'z yuritsa¹³⁴, A.N. Tixonov, A.N. Pardayev¹³⁵, Sh.O'. Mirzaqulov¹³⁶ va D.A. Abdullayeva¹³⁷ tadqiqotlarida *mazmuniy umumiylik* tushunchasini uchratamiz.

Shu kunga qadar o'zbek tilshunosligida asosan tilning fonetik, morfologik va semantik sathlaridagi invariant bo'yicha tadqiqotlar olib borilayotgan bo'lib, so'zlarning funksional ekvivalentlari bilan bog'liq bo'lgan formal invariant tilshunosligimizdagi hali yaxshi o'rganilmagan mavzulardan hisoblanadi.

1.3.4. Invariantlikning Eronda o'rganilishi

Eronda haligacha tilning turli sathlaridagi, jumladan, leksik va semantik sathlardagi invariantlik xususida yirikroq tadqiqotlar amalga oshirilganicha yo'q. Biroq hozirgi zamon Eron tilshunos tadqiqotchilari tomonidan fe'llarning ishlatilishidagi leksik-semantik va funksional variantlashuvni tadqiq qilish jarayonida ushbu variantlashuvda mavjud bo'lgan ma'lum umumiyliklarga qilingan ayrim ishoralar kuzatiladi. Jumladan, eronlik tadqiqotchilardan Shahlo Sharifiy¹³⁸ va Ibrohim Murodiylarning¹³⁹ qo'shma fe'llar semantikasi, Rohila Gandumkorning¹⁴⁰ fe'l sinonimiyasi, Ali Safariy¹⁴¹ va Maryam Sodot

¹³⁴ Бўронов Ж.Б. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. - Тошкент: Ўқитувчи, 1973.

¹³⁵ Тихонов А.Н., Пардаев А.С. Роль гнезд однокоренных слов в системной организации русской лексики. Отраженная синонимия. Отраженная омонимия. Отраженная антонимия. – Ташкент, 1989.

¹³⁶ Мирзакулов Ш.Ў. Ўзбек тилида сўз ясаши маъноси ва парадигмаси: Филол. фан. номз. дисс. – Самарқанд, 1995.

¹³⁷ Абдуллаева Д.А. Ўзбек тилида антисемия: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2010.

¹³⁸ شهلا شريفی. بررسی معنایی افعال مرکب اندام بنیاد از دیدگاه معناشناسی شناختی // مجموعه مقالات ششمین همایش بین المللی «انجمن ترویج زبان و ادبیات فارسی». دانشگاه مازندران - خرداد 1390. ص 3000 - 2990.

¹³⁹ ابراهیم مرادی. بررسی معنایی فعل مرکب در زبان فارسی // نشریه ادب و زبان دانشکده ادب و علوم انسانی دانشگاه شهید باهنر کرمان. سال 16، شماره 33، بهار و تابستان 1392.

¹⁴⁰ راحله گندمکار. رویکردی شناختی به مسئله هم معنایی بافتی در سطح افعال زبان فارسی // پژوهش های زبانی، دوره دوم، شماره 2، پاییز و زمستان 1390. ص 125-115.

Fayoziylarning¹⁴² fe'l variantligi, shuningdek, Laylo Sharifiy¹⁴³, Hamid Rabi'iy¹⁴⁴ va Arslon Gulfomlarning¹⁴⁵ fe'llarning leksik-semantik variantlariga bag'ishlangan tadqiqotlarida fe'l semantikasi va funksiyalarini struktur va kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq etish jarayonida fe'lning turli variantlarini bir-biriga bog'lab turadigan رابطه مفهومی *tushuncha aloqasi*, shuningdek, tilshunoslikda invariant bilan tenglashtiriladigan نمونه نخستین *prototip* kabilar to'grisida so'z boradi. L. Sharifiy o'zining "Forscha ko'pma'noli bir fe'lga kognitiv yondashuv" nomli maqolasida prototipni so'zning asosiy va o'zgarmas (invariant) ma'nosi (معنى اصلی و ثابت واژه) deb ataydi: "Eng yaxshi qo'llanish shakli ko'pma'nolilikda bo'lgan prototip haqiqatda so'zning asosiy va o'zgarmas (invariant) ma'nosi bo'lib boshqa ma'nolar unga qanchalik yaqin va o'xshash bo'lsalar shunchalik darajada uning yaxshiroq a'zolari (variantlari) hisoblanadilar"¹⁴⁶. Bu o'rinda eronlik tadqiqotchi leksik-semantik invariant to'g'risida so'z yuritmoqda.

Fors tilidagi fe'llarning funksional ekvivalentlari vositasida beriladigan invariant-variant munosabatini ko'rib chiqish uchun invariantlik bilan bevosita bo'g'liq bo'lgan variantlik, ya'ni fors tilidagi fe'llarning variantlashuvi turlari va fe'llardagi funksional ekvivalentlikning xususiyatlari to'g'risida ham to'xtalib o'tishga to'g'ri keladi. Shu sababli ham dissertatsiyamizning navbatdagi bobi ana shu mavzuga bag'ishlandi.

¹⁴¹ علی صفری. تناوب سببی در زبان فارسی // پژوهش های زبانی، دوره 3، شماره 1، بهار 1392. ص 75-94؛ و تابستان 1392.

علی صفری. معنائی زمینه و تناوب فعل های مرکب در زبان فارسی // جستارهای زبانی، دوره 2، شماره 2، بهار و تابستان 1392. ص 81-98.

¹⁴² مریم سادات فیاضی. خاستگاه استعاره افعال حسی چندمعنا در زبان فارسی از منظر معنی شناسی شناختی // ادب پژوهی، شماره 6، زمستان 1382. ص 87-109.

¹⁴³ لیلا شریفی. رویکردی شناختی به یک فعل چندمعنای فارسی // تازه های علوم شناختی، سال 11، شماره 4، 1388، ص 11-1.

¹⁴⁴ حمید ربیعی. عناصر مؤثر در تغییر معنای فعل // رشد آموزش زبان و ادبیات فارسی. دوره بیست و سوم، شماره 2، زمستان 1388، ص 48-50.

¹⁴⁵ ارسلان گلفام. فضای معنایی فعل «شدن» در زبان فارسی: نگرش شناختی // پژوهش های زبان و ادبیات تطبیقی. دوره 2، شماره 4، زمستان 1390.

¹⁴⁶ لیلا شریفی. رویکردی شناختی به یک فعل چندمعنای فارسی // تازه های علوم شناختی، سال 11، شماره 4، 1388، ص 9.

Birinchi bob bo'yicha xulosalar

Dissertatsiyamizning birinchi bobida tildagi variantlilik hodisasi so'zning turli variantlari xususidagi turlicha qarashlar va talqinlarni ko'rib chiqish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. So'z variantlari deganda nafaqat uning turli talaffuz, grammatik va ma'no variantlari, balki ma'nodoshlik, shakliy va qo'llanuv variantlari ham tushunilmog'i lozim.

2. So'zlarning **funksional ekvivalentlari** ham mavjud bo'lib, ular tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda asosiy rollardan birini o'ynaydi.

3. Bizningcha, so'zlarning variantlarini quyidagi turlarga bo'lib ko'rsatish mumkin: 1) fonetik variantlar (talaffuz, urg'u va tovush almashinuvi bilan bog'liq variantlar); 2) grammatik variantlar (so'z o'zgarishi va so'z yasalishi bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek morfologik va sintaktik variantlar); 3) leksik variantlar; 4) funksional ekvivalentlar; 5) semantik variantlar; 6) leksik-semantik variantlar; 7) stilistik variantlar; 8) orfografik variantlar.

4. So'z variantlari bir tomondan, bir-biridan alohida bo'lgan variant turlari hisoblansalar, ikkinchi tomondan ushbu variant turlari o'rtasida muayyan bog'liqlik ko'zga tashlanadi. Ya'ni **har bir variant turida boshqa bir variant yoki boshqa variantlar xususiyatlari ham aks etishi mumkin bo'ladi.**

5. Tilshunoslikda leksik variant to'g'risida ikki xil qarash mavjud bo'lib, bir guruh tilshunoslar uni ayni bir so'zning ayrim tovush o'zgarishlariga uchragan turli ko'rinishlari deb bilishlari, boshqa bir guruh tilshunoslar esa turli kontekstlarda bir ma'noni ifodalab keladigan turli so'zlar yoki so'z birikmalarini leksik variantlar deb atashlaridan kelib chiqqan holda, leksik variant masalasiga aniqlik kiritilishi va unga yagona ta'rif berilishi lozim deb hisoblaymiz.

Shuningdek, birinchi bobda tilshunoslikda invariant tushunchasi, tilning turli sathlaridagi invariant-variant munosabatining turli tilshunoslar tomonidan

o'rganilishi, invariant haqidagi turlicha qarashlar va talqinlar hamda invariant turlarini ko'rib chiqish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. O'rganilishi nisbatan yaqinda boshlangan invariant hodisasi haligacha qat'iy qoidalar yoki biror bir nazariya doirasida aniq belgilab berilmaganligi sababli invariant tushunchasi turli tilshunoslar asarlarida umumiy ma'noga ega bo'lgan turlicha nomlar bilan berilgan. Biroq aksariyat tilshunoslarning invariant hamda invariant-variant munosabati xususidagi qarashlarida farqlanishdan ko'ra umumiylik, o'xshashlik ko'proq ekanligi kuzatiladi. Yuqorida nomlari keltirib o'tilgan tilshunoslarning invariantlik to'g'risida bildirgan qarashlarini umumlashtirib, invariantni quyidagicha tavsiflashimiz mumkin: **invariant turli variantlarda namoyon bo'ladigan til birligining birlamchi shakli, uning turli variantlarining umumlashmasidir.**

2. Hozirgi zamon tilshunosligida invariantning turli til sathlaridagi *fonetik invariant, grammatik (morfologik) invariant, semantik invariant, leksik invariant, leksik-semantik invariant, formal-semantik invariant, funksional-stilistik invariant, matn tuzilishi invarianti, syujet invarianti, muallif invarianti* kabi asosiy turlari, shuningdek, *leksik birlik invarianti, so'z yasalishidagi invariant, so'z o'zgarishi (tuslanishi, turlanishi)dagi invariant, til tizimining funksional-stilistik invarianti, so'z yasalishining funksional-stilistik invarianti, kommunikativ sifatning funksional-stilistik invarianti, tarjima invarianti* kabi qo'shimcha turlari to'g'risida so'z yuritiladi. Biroq hozirga qadar ayrim o'rinlarda *leksik-semantik invariant* va *semantik invariant* tushunchalarining aralash holda qo'llanilayotgani, *leksik invariant* tushunchasi xususida esa haligacha yagona fikrga kelinmagani kuzatildi.

3. Invariant tushunchasi variant tushunchasi bilan bevosita bog'liq ekanligidan kelib chiqib, hamda E.V. Kuznetsova, Sh. Balli va L.V. Kropotova, A.A. Zaliznyak, L.V. Vasilyevalarning funksional ekvivalent va formal (funksional) invariant to'g'risidagi qarashlariga tayangan holda fe'llardagi funksional ekvivalentlik bilan bog'liq bo'lgan **formal yoki funksional**

invariantlik to'g'risida ham so'z yuritish mumkin deb bilamiz, hamda fe'llarning funksional ekvivalentlarini birlashtirib turgan yagona invariant ma'noning formal yoki funksional invariant vazifasidagi fe'lda yoki fe'llarda mujassam bo'lishini esa mumkin bo'lgan holat deb hisoblaymiz va fe'llarning funksional ekvivalentlari invariantiga nisbatan **fe'llarning formal (funksional) invarianti** degan tushunchani qo'llashni lozim deb bilamiz.

4. Tilshunoslikda invariantga nisbatan "abstrakt" va hatto "real mavjud bo'lmagan obyekt" sifatida qarash keng tarqalgan. Biroq oxirgi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar davomida **invariantning semantik, leksik-semantik hamda formal (funksional) invariant turlarida anchagina darajada abstraktlik saqlangan holda, real mavjudlik xususiyatlari ham namoyon bo'lishi kuzatilmoqda.**

II BOB. FORS TILIDA FE'LIY BIRLIKLARNING VARIANTLILIGI

2.1. Fors tilida fe'llar variantliligining asosiy omillari va turlari

2.1.1. Fors tilidagi fe'llarning til variantliligida tutgan o'rni

Barcha tillarda bo'lgani kabi fors tilida ham fe'l tilda gap yasashida faol ishtirok etadigan eng muhim leksik unsurlardan biri hisoblanadi. Eronlik tilshunos olim Parviz Notil Xonlariyning fikricha "fe'l kesimni ifodalaydigan eng muhim unsur hisoblanib agar gap faqatgina bir so'zdan tashkil topgan bo'lsa ushbu so'z, albatta, fe'l so'z turkumiga mansub bo'ladi. Gap tuzilishi fe'lsiz amalga oshmaydi"¹⁴⁷. Shuningdek, H. Anvari, H. Ahmadiy Givi¹⁴⁸, Sh. Mohutiyon¹⁴⁹, U. Tabibzada¹⁵⁰ kabi boshqa ko'pchilik eronlik tilshunoslar ham fe'lni gapning eng asosiy unsuri sifatida eslatib o'tishgan.

Rus eronshunoslaridan Y.A. Rubinchik esa fors tilida fe'lning boshqa gap bo'laklari orasida muhim o'rin tutishiga to'xtalib uning "nafaqat ma'nolar boyligi va xilma-xilligi, balki qo'llanilish shakllarining ham ko'pligi jihatidan ajralib turishi"ni eslatib o'tadi¹⁵¹.

Biroq fors tilida fe'llarning tuzilishiga ko'ra turlari to'g'risida turli qarashlar mavjud. Bizga ma'lumki, Y.A. Rubinchik fors tilidagi fe'llarni tuzilishiga ko'ra quyidagi uch turga bo'ladi: 1) sodda fe'llar; 2) prefiksli fe'llar; 3) qo'shma fe'llar¹⁵²; Ammo bundan ancha oldin Eron tilshunos olimi P. N. Xonlariy o'z tadqiqotlarida fors tilida fe'llarning tuzilishiga ko'ra besh turi mavjudligini aytib, fe'llarning yuqorida keltirib o'tilgan uch turdan tashqari yana ikki tur: fe'l

¹⁴⁷ نائل خانلری، پرویز، دستور زبان فارسی، تهران: انتشارات توس، تهران، 1359، ص. 13 - 14.

¹⁴⁸ Qarang: انوری، حسن؛ احمدی گیوی، حسن، دستور زبان فارسی 2، قم: انتشارات فاطمی، 1373.

¹⁴⁹ Qarang: 1387، ماهوتیان شهرزاد، دستور زبان فارسی، تهران: نشرمرکز،

¹⁵⁰ Qarang: طبیب زاده، امید. ستور زبان فارسی: براساس نظریه گروه های خودگردان در دستور وابستگی، تهران: نشر مرکز، 1391

¹⁵¹ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - Москва: Восточная литература РАН, 2001. - С.197.

¹⁵² Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - Москва: Восточная литература РАН, 2001. - С.204-229.

ishtirokida yasalgan iboralar (عبارت های فعلی) va o'timsiz fe'llarni (فعل های ناگذر) ham fe'l turlari sifatida eslatib o'tsa¹⁵³, boshqa eronlik tilshunoslar H. Anvariyy va H.A. Giviy fors tilidagi fe'llarni tuzilishiga ko'ra quyidagi olti turga bo'lib ko'rsatishadi: 1) sodda fe'llar (فعل های ساده); 2) prefiksli fe'llar (فعل های پیشوندی); 3) qo'shma fe'llar (فعل های مرکب); 4) prefiksli qo'shma fe'llar (فعل های پیشوندی مرکب); 5) fe'l ishtirokida yasalgan iboralar (عبارت های فعلی); 6) bir shaxsli o'timsiz fe'llar (فعل های لازم یک شخصه)¹⁵⁴.

Y.A. Rubinchikdan farqli ravishda eronlik tilshunoslar tomonidan eslatib o'tilgan fe'lning prefiksli qo'shma fe'llar, fe'l ishtirokida yasalgan iboralar va bir shaxsli o'timsiz fe'llar kabi turlari rus va o'zbek eronshunosligida qo'shma fe'llar jumlasidan hisoblanadi.

Fors tilidagi fe'llarning soni boshqa tillarda mavjud bo'lgan fe'llar soniga nisbatan kamroq bo'lib, "Farhang-e forsi-ye emruz" ("Hozirgi fors tili lug'ati")¹⁵⁵ muallifi G'ulomhusayn Sadriafshorning aytishicha: o'tmish davrlardan hozirgacha bo'lgan fors tilida 600-700 atrofida fe'l mavjud bo'lib ularning ham katta qismini qo'shma fe'llar tashkil etadi¹⁵⁶. Y.A. Rubinchikning aytishicha, fors tilining fe'l tizimida so'z yasash usullari anchagina cheklangan bo'lib, sodda va prefiksli fe'llarning ushbu tildagi boshqa so'z turkumlaridan farqli ravishda asosan fors tilida soni uncha ham ko'p bo'lmagan so'z yasovchi affiksalar yordamida, ya'ni affiksatsiya usuli bilan yasalganligini ko'rish mumkin. Biroq ushbu eronshunosning aytishicha, hatto ana shu affiksatsiya usuli bilan yangi fe'llarning yasalishi ham ilgari zamonlarda yuz bergan bo'lib, hozirgi fors tilida yangi sodda va prefiksli

¹⁵³ 43. نائل خانلری، پرویز، دستور تاریخی زبان فارسی، تهران: انتشارات توس، 1373، ص. 76 -.

¹⁵⁴ انوری، حسن؛ احمدی گیوی، حسن، دستور زبان فارسی 2، قم: انتشارات فاطمی، 1375، ص. 18 - 74.

¹⁵⁵ صدري افشار غلام حسين. فرهنگ فارسي امروز. تهران، مؤسسه نشر کلمه، 1369.

¹⁵⁶ گفت و گو با غلام حسين صدري افشار مولف فارسي امروز // 29 نوامبر www.ichodoc.ir //2011

fe'llarning yasalishi deyarli yuz bermayapti¹⁵⁷. Bularning barchasi hozirgi fors tilida sodda va prefiksli fe'llarning qo'shma fe'llarga nisbatan anchagina kam bo'lishiga sabab bo'lgan.

Jumladan, fors tilida sodda fe'llarning soni unchalik ko'p bo'lmay bir sodda fe'lning ma'lum leksik va grammatik o'zgarishlarga uchragan turlarini ham alohida fe'l sifatida ko'rsatish orqali ularning soni ikki mingtadan oshishi to'g'risida da'vo qilgan o'tmish tilshunoslari va leksikograflarini tanqid qilgan P. N. Xonlariy fors tilidagi sodda fe'llarning soni uch yuztaga ham yetmasligini eslatib o'tsa¹⁵⁸, boshqa bir tadqiqotchi S. Karimiy aynan hozirgi fors tilida real qo'llanuvda bo'lgan sodda fe'llarni nazarda tutgan holda ularning soni ko'pi bilan 130 taga yetishi mumkinligi to'g'risida gapiradi¹⁵⁹. Yana bir eronlik tilshunos A. Sodiqiyning fikricha esa hozirgi fors tilidagi yozma va og'zaki nutqda ko'pi bilan 115 ta sodda fe'l ishlatiladi¹⁶⁰.

Biroq bularning barchasiga qaramasdan sodda va prefiksli fe'llarning fors tilidagi ish-harakatni ifodalash hamda gap tuzilishida tutgan o'rnini e'tiborga olmaslik ham mumkin emas. Bundan tashqari, shuni ham unutmaslik lozimki, sodda fe'llar fors tilidagi prefiksli va qo'shma fe'llarning yasalishida katta rol o'ynaydi.

Fors tilida qo'shma fe'llarning qo'llanilish miqyosi esa juda keng bo'lib Y.A. Rubinchikning aytishicha, hozirgi fors tilida tuzilishiga ko'ra turlarga bo'linadigan fe'l turlari orasida eng ko'p tarqalgani ham qo'shma fe'llardir¹⁶¹. Fors tilida qo'shma fe'llar muhimroq va ahamiyatliroq harakatlar va jarayonlarni ifodalar ekan, boshqa tillarda odatda sodda fe'llar bajaradigan funksiyalarni ham,

¹⁵⁷ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - Москва: Восточная литература РАН, 2001. - С. 204.

¹⁵⁸ نائل خانلری، پرویز، دستور تاریخی زبان فارسی، تهران: انتشارات توس، 1373، ص. 44.

¹⁵⁹ Karimi S. Complex predicates in Iranian languages, opening remarks. – Paris, 2008.

¹⁶⁰ صادقی علی اشرف. در باره فعل های جعلی در زبان فارسی // مجموعه مقالات سمینار زبان فارسی و زبان علم. تهران، مرکز نشر دانشگاهی، 1372. ص 236 – 246.

¹⁶¹ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - Москва: Восточная литература РАН, 2001. - С.216.

bajaradilar¹⁶². P.N. Xonlariy ham fors tilida qo'shma fe'llarning soni sodda fe'llar sonidan ko'p ekanligini eslatib o'tar ekan hozirgi fors tilida qo'shma fe'llar tildan ko'pgina sodda va prefiksli fe'llarni siqib chiqarganligi to'g'risida gapiradi. Shu bilan birga, P. N. Xonlariyning aytishicha, hozirgi fors tilida sodda va prefiksli fe'llardan farqli o'laroq yangi qo'shma fe'llarning yasalishi va muomalaga kiritilishi davom etmoqda¹⁶³. Rus eronshunosi Y.A. Rubinchik ham hozirgi zamonda oldinlari fe'l bilan ifodalanmagan biror harakat, jarayon yoki holatni tilda ifodalash zarurati tug'ilganda sodda yoki prefiksli fe'llar emas, balki qo'shma fe'llar yasalayotganligini aytib o'tadi¹⁶⁴.

Fors tili fe'l tizimidagi ushbu holat, ya'ni bir tomondan umuman fe'llar sonining, xususan, sodda va prefiksli fe'llar sonining nisbatan kamligi, ikkinchi tomondan qo'shma fe'llar sonining sodda va prefiksli fe'llarga nisbatan ko'pligi ham fors tili fe'llarida turlicha variantlashuv holatlarining yuz berishini keltirib chiqadigan asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

2.1.2. Fors tilidagi fe'llar variantlarining turlari

Fors tilining butun leksikasida bo'lgani kabi, fe'l turkumiga oid so'zlarda ham variantlashuvning har xil turlarini kuzatish mumkin. Aytish mumkinki, fors tilidagi fe'llar tilning turli sathlarida eng ko'p variantlarga ega bo'lgan so'z turkumlaridan hisoblanadi. Fe'llar variantlashuvi fors tilining ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi hamda rang-barangligini ta'minlovchi omillardan biri hisoblanadi. Quyida fors tilidagi fe'llarning asosiy variantlashuv turlariga ayrim misollar keltiramiz:

¹⁶² Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - Москва: Восточная литература РАН, 2001. - С.217.

¹⁶³ نائل خانلری، پرویز، تاریخ زبان فارسی، جلد دوم، ساختمان فعل، تهران، 1349، صص. 96-95، 13

¹⁶⁴ Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. - Москва: Восточная литература РАН, 2001. - С.218.

Fonetik variantlar: کشیدن [kašidan] – [kešidan]; رسیدن [rasidan] – [residan]; اومدن [āmadan] – آمدن [āmadand]; زدودن [zedudan] – [zodudan]; میآم [miāyam] – میآم [miyām] va h.k.

Morfologik variantlar: رسانیدن [resāndan] – بخشیدن [baxšidan] – اومدش [umadeš]; رفتیم [raftim] – بخشودن [baxšudan]; آمد [āmad] – رفتیمون [raftimun] va h.k.

Leksik variantlar: خواب کردن [xāb kardan] – خوابیدن [xābidan] – خفتن [xoftan]; گردش کردن [gardeš kardan] – گردیدن [gardidan] – گشتن [gaštan]; کاشت [kāštan] – کشت [keštan], کشت کردن [kešt kardan] va h.k.

Leksik-semantic variantlar: دانستن [dānestan] 1) *bilmoq, xabari (ma'lumoti) bo'lmoq*; 2) *bilmoq, ajrata (farqlay) olmoq*; 3) *tanimoq, tanigan bo'lmoq, (unga) tanish bo'lmoq*; 4) *ma'lum bilim, malaka va tajribaga ega bo'lmoq*; 5) *oldindan bilmoq, bashorat qilmoq*; 6) *deb bilmoq, deb hisoblamoq, deb topmoq* va h.k.

Funksional ekvivalentlar: متوجه شدن [motavajjeh šodan] – دریافتن [dar-yāftan] – پی بردن [pey bordan] – درک کردن [dark kardan] – استنباط [buy bordan] – بوی بردن [gereftan] – گرفتن [hāli šodan] – کردن [estembāt kardan] va h.k.

Stilistik variantlar: عرض کردن [arz kardan] – فرمودن [farmudan] – گفتن [goftan] va h.k.

Orfografik variantlar: بیایید – بیائید [tapidan], تپیدن – تطیدن [biyāyid] va h.k.

Hozirga qadar fors tilida ko'pgina so'zlarning yozilishi va talaffuzi me'yorlarining aniq belgilab berilmaganligi, so'zlashuv uslubining adabiy tilda ham keng qo'llanishi hamda hozirgi fors adabiy tilida klassik fors tili morfologik (so'z yasash) unsurlari va grammatik forma yasash usullarining ham ma'lum darajada ishlatilishi kabi holatlar bilan birgalikda, tildagi ifoda imkoniyatlarini

kengaytirish, unga rang-baranglik bag'ishlash va turli stilistik bo'yoq berishga urinish ham fors tilidagi fe'llar variantlashuvining asosiy omillaridan hisoblanadi. Agar fors tilida ko'pgina so'zlarning talaffuzi me'yorlarining aniq belgilab berilmaganligi, so'zlashuv uslubining adabiy tilga bo'lgan katta ta'siri fe'llarning turli fonetik variantlarining hosil bo'lishiga sabab bo'lsa, klassik til va so'zlashuv tili unsurlari fe'llarning har xil morfologik variantlarining, fors tilidagi ko'pgina noto'g'ri fe'llarning hozirgi zamon negizlaridan ikkilamchi fe'l (вторичный глагол) hamda ko'pgina fe'llarning otlashgan shakllari ishtirokida qo'shma fe'llar yasash imkoniyatlari fe'llarning turli leksik variantlarining vujudga kelishi uchun zamin tayyorlaydi. Shuningdek, hozirga qadar fors tilidagi ko'pgina so'zlar yozilishining aniq me'yorlari mavjud emasligi fe'l turkumiga oid so'zlardan ayrimlarining turli imlo variantlariga ega bo'lishiga sabab bo'ladi. Nutq qo'llanishining turli sharoitlari, so'zlovchining muayyan ijtimoiy qatlam yoki jug'rofiy hududga mansubligi, qolaversa nutqqa rang-baranglik bag'ishlash va turli stilistik bo'yoq berishga urinish fors tili fe'llaridagi turli stilistik variantlarning hosil bo'lishining asosiy omili hisoblanadi.

Fors tilidagi fe'llarning turli til sathlaridagi variant turlari orasida **leksik-semantik variantlar** hamda **funksional ekvivalentlar** fe'l tizimidagi variantlashuvning ikki muhim tomoni: shakliy va ma'noviy variantlashuv jihatlarini aks ettiradigan vositalar sifatida muhim o'rin tutadi. Fe'llar variantlilikining ushbu ikki turi bir tomondan, so'z variantlashuvining ikki qarama-qarshi – formal va semantik tomonlariga tegishli bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zaro bog'liq hodisalar hisoblanadi. Rus tilshunosi L.V. Kropotovaning aytishicha, so'zlar variantlilikining ikki turi – ko'pma'nolilik va funksional ekvivalentlik o'zaro kesishuvchi hodisalar sifatida bir-biri bilan bog'langan bo'lib¹⁶⁵ so'z mazmunining kontekstga qarab kuchayishi, kuchsizlanishi, vujudga kelishi va

¹⁶⁵ Кротова Л.В. Проблема разграничения синонимии и вариативности // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2009. - №2 (4) - С.158.

yo‘qolishi (busiz ko‘pma’nolilik ham funksional ekvivalentlik ham mavjud bo‘lmaydi), so‘zning kontekstdagi sheriklari bilan munosabatga kirishishi natijasida yangi ma’noning hosil bo‘lishi (ushbu yangi ma’no mazkur so‘zni boshqa so‘zlarning funksional ekvivalentiga aylantiradi), so‘z ma’nosining xarakteri va qo‘llanish doirasining kengligi (kam qo‘llaniladigan yoki tor ma’noga ega bo‘lgan so‘zlar ikkinchi ma’noga ham funksional ekvivalentga ham ega bo‘lmaydi) kabi omillar ushbu ikki variant turi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi¹⁶⁶.

Quyida fors tilidagi fe’llarning leksik-semantik variantlar hamda funksional ekvivalentlar to‘g‘risida so‘z yuritamiz.

2.2. Fors tilida fe’llarning leksik-semantik variantlari

2.2.1. Fors tilida fe’llarning leksik-semantik variantlashuvi omillari

Ko‘pma’noli so‘zning turli o‘rinlarda ishlatilayotgan ma’nolari o‘sha so‘zning leksik-semantik variantlaridir. Aytish mumkinki, ko‘pma’nolilik (polisemiya) asosan keng qo‘llaniladigan so‘zlarga xos bo‘lib, leksik-semantik variantlar ko‘pchilik holatlarda so‘zning boshqa so‘zlar tizimidagi pozitsiyasi, ya’ni uning boshqa so‘zlar bilan qo‘shila olish xususiyati bilan bog‘liqdir.

Fors tilida fe’llarning leksik-semantik variantlari fe’l turkumiga tegishli bo‘lgan bir so‘z vositasida turli kontekstlarda turli ma’nolarni anglatishga xizmat qiladi. Zero leksik-semantik variantlar kamroq lug‘at tarkibi bilan ko‘proq ma’noni ifodalash vositasidir. Fors tili leksikasi, jumladan, ushbu tildagi fe’l turkumiga oid so‘zlarda ko‘pma’nolilik keng tarqalgan holat hisoblanadi. Biz fors tilida ko‘pma’noli fe’llarning ulushi kamma’noli fe’llar ulushidan ko‘proq ekanligini kuzatamiz. Buning asosiy omillari sifatida, birinchidan, yuqorida eslatib o‘tilganidek, fors tili fe’l leksikasi, xususan sodda fe’llar sonining cheklanganligini,

¹⁶⁶ Кузнецова Э.В. О соотношении многозначности и функциональной эквивалентности слов // Вопросы языкознания. - Москва: Наука, 1978. - № 2. - С.100.

ikkinchidan esa fors tilidagi ko'pchilik fe'llarning katta valentlik (boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatga kirishib, ular bilan birikish) qobiliyatiga ega ekanligini eslatib o'tish mumkin. Shu bilan birga fe'l ishtirok etayotgan gapdagi boshqa gap bo'laklari ham fe'l bilan sintaktik munosabatga kirishib, turli o'rinlarda uning ma'nosini o'zgartirishi, ya'ni fe'lning asosiy ma'nosidan tashqari yana bir necha ma'nolarini – leksik-semantik variantlarini vujudga keltirishi mumkin. Shunday qilib, fors tilidagi fe'llarning ko'pma'noliligini keltirib chiqaruvchi quyidagi uch asosiy omilni eslatib o'tish mumkin:

1) fe'llar, xususan, prefiksli va qo'shma fe'llarning yasashida katta rol o'ynovchi sodda fe'llar sonining kamligi;

2) ko'pchilik fe'llarning katta valentlik (boshqa so'zlar bilan sintaktik munosabatga kirishib ular bilan birikish) qobiliyatiga ega ekanligi;

3) boshqa gap bo'laklarining ta'siri ostida turli kontekstlarda fe'l ma'nosining o'zgarishi.

Yuqorida eslatib o'tganimizdek fors tilidagi fe'llarning, ayniqsa, sodda va prefiksli fe'llarning soni unchalik ko'p emas, buning ustiga hozirgi kunga kelib yangi sodda va prefiksli fe'llarning yasashi yuz bermayapti. Bu holat esa o'z navbatida ish-harakat bilan bog'liq bo'lgan bir necha ma'noning bir fe'l vositasida ifodalanishiga, bu esa o'z o'rnida fe'lning ko'pma'noli so'zga aylanishiga sabab bo'ladi.

Albatta, buning aksini ta'kidlaydigan tadqiqotchilar ham bor. Jumladan, eronlik tadqiqotchi L. Sharifiy fors tilidagi sodda fe'llarning soni kam ekanligining asosiy sabablaridan biri sifatida ularning ko'pma'noli ekanligini ko'rsatadi¹⁶⁷. Eronlik tadqiqotchining ko'pma'nolilik sodda fe'llar sonining kam bo'lishiga sabab bo'lganligi haqidagi xulosasiga qo'shilmagan holda uning افتادن [oftādan] fe'li misolida fors tilidagi ko'pgina sodda fe'llarga ko'pma'nolilik xos ekanligi

لیلا شریفی. رویکردی شناختی به یک فعل چندمعنای فارسی // تازه های علوم شناختی،¹⁶⁷ سال 11، شماره 4، 1388، ص 12.

tog'risidagi fikrini ma'qullash mumkin deb o'ylaymiz. Zero haqiqatdan ham fors tilidagi sodda fe'llarning ko'pchiligi ko'pma'noli bo'lib, ayni bir sodda fe'lning turli o'rinlarda har xil ma'nolarni ifodalashda ishtirok etishi keng tarqalgan holat hisoblanadi. Buni yuqorida keltirilgan دانستن [dānestan] sodda fe'lining leksik-semantik variantlari misolida ham ko'rish mumkin.

Fors tilidagi fe'llar ichida eng kam sonli bo'lgan prefiksli fe'llarda ham ko'pma'nolilik holatlarini kuzatish mumkin. Misol:

برداشتن [bar-dāštan] 1) (joyidan) olmoq, ko'tarmoq, ko'tarib olmoq; 2) olib olmoq, olvolmoq, o'ziga olmoq; 3) ko'chirib olmoq, yozib olmoq, olmoq, tushirmoq (nusxa, surat va sh.k.); 4) to'ldirmoq, bosib ketmoq, qoplab olmoq (suv, ovoz va sh.k.); 5) yig'ib-termoq, yig'ib-terib olmoq (hosilni); 6) olmoq, sotib olmoq; 7) birga olib olmoq, birga olib chiqmoq, birga olib yurmoq, birga olib ketmoq; 8) chidamoq, chidash bermoq, ko'tarmoq, ko'tara olmoq; 9) o'rtadan olib tashlamoq, yo'qotmoq, yo'q qilmoq; 10) o'g'irlamoq, urib ketmoq; 11) olib tashlamoq, uzib (kesib, ajratib) olmoq (tana a'zosi va sh.k.); 12) olib qo'ymoq, boshqa joyga qo'ymoq.

Bundan tashqari fors tilidagi sodda va prefiksli fe'llar qo'shma fe'llar tarkibida ko'makchi fe'l vazifasida kelib asosiy ma'nolaridan boshqa ma'nolar ham yaratishi mumkin. Misol:

یقین دانستن *afzal ko'rmoq*, مرجع دانستن *ishonchi komil bo'lmoq* va h.k.

درز qiyshayib qolmoq, تاب برداشتن *homilador bo'lmoq*, بار برداشتن *yoriq (darz) paydo bo'lmoq* va h.k.

Garchi fors tilidagi fe'llarning katta qismini tashkil etuvchi yoki sodda va prefiksli fe'llarga nisbatan ko'p bo'lgan qo'shma fe'llar orasida ham ko'pma'noliligi bilan ajralib turadigan fe'llar uchrasa-da, bu holatni ko'pchilik qo'shma fe'llarga xos deb bo'lmaydi. Bir tomondan, tilda oldindan mavjud bo'lgan sodda fe'llarning sinonimlari yoki funksional ekvivalentlari sifatida, ikkinchi

tomondan, fors tiliga chet tillardan, birinchi navbatda arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar ishtirokida fe’l yasash natijasida¹⁶⁸ hosil bo‘lgan fors tilidagi qo‘shma fe’llarning katta qismi asosiy ma’nodan tashqari yana bir-ikki ko‘chma ma’noga ega. Ammo ular orasida ko‘pma’noli fe’llar ham talaygina. Fors tilida eng ko‘p ma’noga ega bo‘lgan qo‘shma fe’llardan biri sifatida quyidagi fe’lni eslatish mumkin:

بررسی کردن [barresi kardan] 1) *tekshirmoq, tekshirib ko‘rmoq;*
 2) *o‘rganmoq, o‘rganib chiqmoq, ko‘rib chiqmoq;* 3) *o‘ylab ko‘rmoq;*
 4) *muhoqama qilmoq;* 5) *o‘rtaga tashlamoq, ko‘tarib chiqmoq;* 6) *tadqiq qilmoq* va h.k.

Yuqorida eslatib o‘tganimizdek, fors tilidagi ko‘pchilik fe’llarning katta valentlik (boshqa so‘zlar bilan sintaktik munosabatga kirishib, ular bilan birikish) qobiliyatiga ega ekanligi ham ular vositasida turli o‘rinlarda turli ma’nolarning ifodalanishi uchun imkoniyat yaratadi. Biz yuqorida eslatib o‘tgan eronlik tadqiqotchi L. Sharifiy o‘zining افتادن [oftādan] sodda fe’lining turli kontekstlarda qo‘llaniladigan ma’nolari – leksik-semantik variantlariga bag‘ishlangan maqolasida ushbu fe’lning qanchalik katta valentlik qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatib berar ekan, ushbu fe’lning gapdagi turli gap bo‘laklari va turli so‘z turkumlariga oid so‘zlar bilan sintaktik munosabatga kirishib saksontacha ma’noni ifodalashda ishtirok etishini aniqlaganini eslatadi¹⁶⁹. Ushbu tadqiqotchi tomonidan keltirilgan quyidagi gap va jumalalarda افتادن [oftādan] sodda fe’lining boshqa so‘zlar bilan sintaktik munosabatga kirishib turli ma’nolarni ifodalashda ishtirok etganini kuzatamiz:

سیب از درخت به زمین افتاد (به معنی «سقوط کردن»);
Olma daraxtdan yerga tushdi (“pastga tushib ketmoq” ma’nosida).

¹⁶⁸ صادقی علی اشرف. در باره فعل های جعلی در زبان فارسی // مجموعه مقالات سمینار زبان فارسی و زبان علم. تهران، مرکز نشر دانشگاهی، 1372. ص 236 – 246.
¹⁶⁹ لیلا شریفی. رویکردی شناختی به یک فعل چندمعنای فارسی // تازه های علوم شناختی، سال 11، شماره 4، 1388، ص 12.

در پی ما افتادند (به معنی «آمدن»):

Bizning izimizdan tushishdi ("kelmoq" ma'nosida).

نمی دانم در آن حال به چه خیال افتاده بودم (به معنی «داشتن»):

O'sha holda ne xayolga borganimni bilmayman ("ega bo'lmoq" ma'nosida).

فشار خونم افتاد پایین (به معنی «کم شدن»):

Qon bosimim tushdi ("kamaymoq", "pasaymoq" ma'nosida).

این جعبه خیلی سنگین است، دستم افتاد (به معنی «بی رمق شدن»):

Bu quti juda ham og'ir, qo'lim toliqib qoldi ("toliqmoq" ma'nosida).

Fors tilidagi fe'llarning turli leksik-semantik variantlarining vujudga kelishida gapdagi turli gap bo'laklari hamda leksik unsurlarning fe'lga ko'rsatgan ta'siri ham katta rol o'ynaydi. Eronlik tadqiqotchi Hamid Rabiyy o'z maqolasida ega va to'ldiruvchi kabi gap bo'laklari, predlog hamda ergash gapning sodda fe'llar ma'nosining o'zgarishidagi ta'sirini tadqiq qilgan¹⁷⁰. Ushbu tadqiqotchi keltirgan misollardan ayrimlarini e'tiboringizga havola qilamiz: Eganing ta'sirida fe'l ma'nosining o'zgarishi: علی رفت - *Ali ketdi*; عمر - *elektr uzildi*; برق رفت - *Ali keldi*; باران آمد - *Ali keldi*; علی آمد - *quyish botdi*; آفتاب رفت - *umr o'tdi*; یامغ'ir yog'di; بهار آمد - *bahor keldi (boshlandi)*.

میوه را کشید - *To'ldiruvchining ta'sirida fe'l ma'nosining o'zgarishi*: کشید - *mevani (tarozida) tortdi*; سیگار را کشید - *tasvir soldi*; تصویر را کشید - *sigaretani chekdi*; غذا را کشید - *tishni sug'urib oldi*; دندان را کشید - *ovqatni suzdi (dasturxonga qo'ydi)* va h.k.

Shu o'rinda eslatib o'tish lozimki, fors tilidagi fe'llarning tarjima va izohli lug'atlarda berilgan ma'nolari har doim ham ushbu fe'llar vositasida nutqning turli kontekstlarida ifodalanadigan ma'nolarning hammasini to'laligicha qamrab

حمید ربیعی. عناصر مؤثر در تغییر معنای فعل // رشد آموزش زبان و ادبیات فارسی. 170 دوره بیست و سوم، شماره 2، زمستان 1388، ص 48-50.

ololmaydi. Bundan tashqari ko'pchilik hollarda tarjima lug'atlarda ham izohli lug'atlarda ham so'zlarning, jumladan, fe'llarning ma'nolari tilda qo'llanilish darajasi ketma-ketligiga qarab berilishi sababli har bir ko'pma'noli so'z, xususan, fe'l anglatadigan ma'nolarni ma'no guruhlariga taqsimlab aks ettirishga unchalik e'tibor berilmaydi. Bizningcha, o'quv va tarjima maqsadlaridagi lug'atlar hamda umumiy izohli lug'atlardan tashqari tildagi har bir so'zning butun semantik maydonini qamrab oladigan, ya'ni so'zning turli kontekstlarda turli leksik va semantik unsurlar bilan munosabatga kirishish orqali anglatadigan turli ma'nolarini aks ettiradigan lug'atlarni tuzish so'zlarning leksik-semantik variantlari, shu bilan birga, ular bilan bog'liq bo'lgan funksional ekvivalentlarni o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

2.2.2. Fe'llarning leksik-semantik variantlashuvida ma'no guruhleri

Ushbu bayon etilgan fikr va xulosalarimizni خواستن [xāstan] sodda fe'li misolida isbotlab berishga harakat qilamiz.

Fors tilida خواستن [xāstan] fe'li ko'p ma'noli so'zlardan hisoblanadi. Jumladan, Ali Akbar Dehxudoning "Lo'g'atnome-ye Dehxodo" qomusiy lug'atida¹⁷¹ خواستن [xāstan] so'zining ikkita ma'nosi: 1) *so'ramoq, iltimos qilmoq*; 2) *talab qilmoq*; Muhammad Muinning "Farhang-e Mo'in" izohli lug'atida¹⁷² ushbu so'zning yettita ma'nosi: 1) *so'ramoq, iltimos qilmoq*; 2) *talab qilmoq*; 3) *istamoq, xohlamoq*; 4) *orzu qilmoq, tilamoq*; 5) *ehtiyoji bo'lmoq*; 6) *buyurmoq*; 7) *chaqirmoq, chorlamoq*; Hasan Amidning "Farhang-e Amid" izohli lug'atida¹⁷³ uning to'qqizta (jumladan, ikkita arxaik) ma'nosi: 1) *so'ramoq, talab qilmoq*; 2) *mayli bo'lmoq, moyil bo'lmoq*; 3) *niyatida bo'lmoq*; 4) *yaxshi ko'rmoq, sevmok*; 5) *chaqirmoq, chorlamoq*; 6) *ehtiyoji bo'lmoq, kerak bo'lmoq*; 7) *ko'z tutmoq, kutmoq, umid qilmoq*; 8) *orzu qilmoq*; 9) *istamoq, xohlamoq*;

¹⁷¹ دهخدا، علی اکبر. لغتنامه دهخدا. در 222 جزوه. تهران، 1324 - 1359.

¹⁷² معین، محمد. فرهنگ معین. در 6 جلد. جلد 1، تهران، 1342. ص 1449.

¹⁷³ عمید، حسن. فرهنگ عمید. در 3 جلد. تهران، 1389.

Hasan Anvariyning “Farhang-e bo‘zo‘rg-e So‘xan” izohli lug‘atida¹⁷⁴ خواستن [xāstan] ning o‘n sakkizta (jumladan, oltita arxaik va beshta so‘zlashuv nutqida uchraydigan) ma‘nosi: 1) *so‘ramoq, talab qilmoq*; 2) *chaqirmoq, chorlamoq*; 3) *qarzini so‘ramoq*; 4) *ehtiyoji bo‘lmoq, kerak bo‘lmoq*; 5) *niyatida bo‘lmoq*; 6) *mayli bo‘lmoq, moyil bo‘lmoq*; 7) *yaxshi ko‘rmoq, ko‘rgisi kelmoq*; 8) *ko‘z tutmoq, kutmoq, umid qilmoq* va h.k. keltirilgan. Y.A. Rubinchik tahriri ostidagi “Forscha-ruscha” ikki tillik lug‘atida¹⁷⁵ خواستن [xāstan] so‘zining oltita ma‘nosi to‘rt ma‘no qatorida keltirilgan: 1) *istamoq, xohlamoq; niyatida bo‘lmoq, ...moqchi bo‘lmoq*; 2) *so‘ramoq, iltimos qilmoq; chorlamoq, taklif qilmoq*; 3) *chaqirmoq, chaqirtirmoq*; 4) *ehtiyoji bo‘lmoq, unga kerak bo‘lmoq*.

Fors tilidagi خواستن [xāstan] fe‘li ma‘nolarining soni va ketma-ketligi to‘g‘risida berilgan ushbu turlicha izohlarni inkor etmagan holda ushbu fe‘lning hozirgi fors tilida eng ko‘p qo‘llaniladigan ma‘nolarini quyidagi ma‘no guruhlarida alohida ajratib ko‘rsatishni ma‘qul topdik:

1) xohish-niyat-istak-tilak guruhi: a) *istamoq, xohlamoq*; b) *niyatida bo‘lmoq, ...moqchi bo‘lmoq*; d) *mayl qilmoq, moyil bo‘lmoq, istagi bo‘lmoq*; e) *orzu qilmoq*; f) *tilamoq*.

2) iltimos-talab guruhi: a) *so‘ramoq, iltimos qilmoq*; b) *talab qilmoq*.

3) taqozo guruhi: *taqozo qilmoq, talab qilmoq*.

3) chorlov guruhi: a) *chaqirmoq, chorlamoq, da‘vat qilmoq*; b) *taklif qilmoq*; d) *chaqirib olmoq*.

4) ehtiyoj guruhi: a) *ehtiyoji bo‘lmoq, (unga) kerak (zarur) bo‘lmoq*; b) *kerak (lozim, shart) bo‘lmoq (asosan uchinchi shaxs birlikning hozirgi zamon bo‘lishsizlik shaklida keladi)*; d) *kerak (lozim, shart) bo‘lmoq (asosan o‘tgan zamon davom fe‘li shaklida keladi)*.

¹⁷⁴ انورى، حسن، فرهنگ بزرگ سخن/ به سرپرستی حسن انورى، تهران، سخن، 1381 - 8 ج. جلد 4. ص 2853-2854.

¹⁷⁵ Персидско-русский словарь: в 2-х томах, под редакцией Ю.А. Рубинчика, 3-издание. I-том. — Москва: Русский язык, 1985. - С.573-574.

5) ishtiyoq guruhi: ko‘ngli tusamoq, ko‘rgisi (birga bo‘lgisi) kelmoq.

6) shart-istak guruhi: xoh ..., ...-sa ham, ...-dan qat‘i nazar, menga desa ..., ... bo‘ladimi yoki ... (asosan uchinchi shaxs birlikning hozirgi zamon shaklida keladi).

Ko‘rib o‘tganimizdek, خواستن [xāstan] ko‘pma‘noli fe‘li turli kontekstlarda turli ma‘nolarni ifodalab kelish orqali ko‘pgina leksik-semantik variantlarni vujudga keltiradi. Fors tilidagi ko‘pma‘noli fe‘llar anglatadigan ma‘nolarning alohida ma‘no guruhlariga bo‘lib ko‘rsatish esa, birinchidan, ushbu fe‘llarning ma‘nolari to‘g‘risida to‘liq va aniq tasavvur hosil qilishga yordam bersa, ikkinchidan ushbu fe‘llarning o‘zlari anglatadigan ma‘nolarning – leksik-semantik variantlarning har birida boshqa fe‘llar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishish imkoniyatlarini o‘rganishni osonlashtiradi.

Fors tilida fe‘llarning leksik-semantik variantlari haqidagi so‘zimizning so‘ngida tilshunoslarning har bir fe‘lning leksik-semantik variantlari asosida asosiy va o‘zgarmas yagona ma‘no yotishi to‘g‘risidagi mulohazalarini ham eslatib o‘tishni joiz deb bilamiz. Rossiyalik tadqiqotchi A.P. Sultanovanning aytishicha, ko‘pma‘noli fe‘llarning leksik-semantik variantlari voqelikning turli ko‘rinishlarini ifodalash bilan bir vaqtda semantik umumiylikni ham saqlab qoladi. Chunki har bir leksik-semantik variantning sema strukturasida asosiy ma‘no bilan bog‘liq bo‘lgan sema mavjud bo‘ladi¹⁷⁶.

Biz yuqorida keltirgan sodda, prefiksli va qo‘shma fe‘llarning leksik-semantik variantlari misolida shu xulosaga kelish mumkinki, fe‘llarning leksik-semantik variantlari ayni fe‘l vositasida ifodalanadigan asosiy ma‘no asosida vujudga kelgan bir necha ma‘no guruhlariga ham bo‘linishi mumkin. Fe‘llarning leksik-semantik variantlashuvidagi invariant ma‘no yoki invariant ma‘nolarni aniqlashda esa ana shu ma‘no guruhlarining ahamiyati katta bo‘ladi. Ya‘ni ko‘pma‘noli so‘zlar,

¹⁷⁶ Султанова А.П. Системность лексики на примере лексико-семантической группы глаголов разрушения в русском языке // Вестник СамГУ. 2008. - №5/2(64). - С.132.

jumladan, fe'llarda ularning ma'no guruhlariga qarab bitta emas, balki bir necha leksik-semantik invariantni aniqlash imkoniyati mavjud bo'ladi.

2.3. Fors tilida fe'llarning funksional ekvivalentlari

2.3.1. Fors tilida fe'llarning funksional ekvivalentligi omillari

Tilshunoslar E.V. Kuznetsova¹⁷⁷, L.V. Kropotova¹⁷⁸ va boshqalar tomonidan shakliga ko'ra har xil bo'lgan, ammo tilda bir xil mazmuniy funktsiyani bajaradigan formal (shakliy) variantlik turi *funksional ekvivalent* deb atalganligi to'g'risida yuqorida eslatib o'tgandik. Garchi so'zlarning leksik-semantik variantlilikiga qarama-qarshi qo'yilayotgan funksional ekvivalentlik tushunchasi hali tilshunoslikda unchalik keng qo'llanilmayotgan, buning ustiga haligacha sinonimiya bilan funksional ekvivalentlik o'rtasidagi farq, chegara borasida ham turlicha qarashlar mavjud bo'lsa-da¹⁷⁹, so'zning sinonimlari bilan funksional ekvivalentlarini boshqa-boshqa tushunchalar deb hisoblaydigan L.V. Kropotova so'zning "erkin variantlashuv munosabatida bo'lgan variant formalari biri ikkinchisiga nisbatan qo'shimcha ma'lumotni o'zida aks ettirmaydi, sinonimlar esa variantlardan farqli ravishda shunday ma'lumotni o'zida aks ettiradi",- deydi¹⁸⁰. Shuningdek, ushbu tilshunosning fikricha, sinonimlarda variantlardan farqli ravishda semantik birlik mavjud bo'ladi¹⁸¹. Bundan tashqari, o'zbekistonlik tadqiqotchi Y.O. Zinin ham o'z tadqiqotida funksional ekvivalent tushunchasini xuddi ana shu ma'noda qo'llaydi¹⁸².

¹⁷⁷ Кузнецова Э.В. Лексикология русского языка. – Москва: Высшая школа, 1989. – С.123.

¹⁷⁸ Кротова Л.В. Проблема разграничения синонимии и вариативности // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2009. - №2 (4). - С.158.

¹⁷⁹ Хантакова В.М. Синонимия форм и синонимия смыслов: теоретическая модель анализа интегративного взаимодействия синонимических единиц одно и разноуровневой принадлежности: дисс. ...докт. филол. наук: 10.02.04. - Иркутск, 2006. - С.87-88.

¹⁸⁰ Кротова Л.В. Проблема разграничения синонимии и вариативности // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2009. - № 2 (4). - С.160.

¹⁸¹ O'sha joyda.

¹⁸² Зинин Е.О. Русские демиинутивы в общевариологическом аспекте: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 2008.

Biz esa ushbu tadqiqotimizda turli tilshunoslarning funksional ekvivalentlik borasidagi bahslariga aralashmagan holda sinonimiya bilan deyarli bir xil hodisa bo'lgan, biroq ayrim jihatlari bilan farqlanib turadigan funksional ekvivalentlik to'g'risida quyidagilarni aytish mumkin deb o'ylaymiz:

1. Sinonimiya so'zlarning asosiy ma'noda bir xilligi¹⁸³, ya'ni so'zlarning asosiy ma'noda o'zaro ma'nodoshligi bo'lib, bir necha so'z yoki so'z birikmasining bir xil ma'noda qo'llanilishini semantik nuqtayi nazardan o'rganadi. Funksional ekvivalentlik esa so'zlarning qo'llanish o'rinlaridagi variantlashuvi turlaridan biri bo'lib, bir ma'noning turli o'rinlarda bir necha so'z yoki so'z birikmasi vositasida anglatilishini funksional nuqtai nazardan o'rganadi. Funksional ekvivalentlikda so'zlarning asosiy ma'noda bir xilligi talab etilmaydi.

2. Funksional ekvivalentlik asosan o'zaro sinonim so'zlar, shuningdek, o'zaro sinonim bo'lmagan, ya'ni asosiy ma'noda bir xil bo'lishi qat'iy ravishda shart bo'lmagan, ammo kontekstda ma'noni anglatuvchi asosiy so'zning o'rnida ishlatilishi mumkin bo'lgan so'zlar vositasida amalga oshadi.

3. O'zaro sinonim so'zlarning o'zi ham funksional nuqtayi nazardan funksional ekvivalentlar bo'lib, turli o'rinlarda bir-birlarining variantlari sifatida ishlatiladi.

4. So'zlarning sinonimik qatorida asosiy ma'noni o'zida aks ettiruvchi hamda ma'noning ushbu qatorning boshqa a'zolari tomonidan ifodalanadigan barcha qo'shimcha mazmuniy va uslubiy ottenkalarini o'ziga bo'ysundiruvchi a'zo – *dominanta* mavjud bo'lsa¹⁸⁴, so'zlarning funksional ekvivalentlari umumiy funksiya kategoriyasi uning asosini tashkil etuvchi *formal invariant*ning variantlari hisoblanadilar¹⁸⁵.

¹⁸³ Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - Москва, 1969. -С.407; Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. - Москва, 1985. - С.249.

¹⁸⁴ Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. - Москва, 1985. - С.66.

¹⁸⁵ Зализняк А.А. Лингвистическая многозначность // Вопросы языкознания. – Москва: Наука, 2004. – №2. - С.35.

Buni biz yuqorida keltirgan فهمیدن [fahmidan] “tushunmoq” sodda fe’lining funksional ekvivalentlari misolida ham ko‘rish mumkin:

پی بردن – [dark kardan] درک کردن – [motavajjeh šodan] متوجه شدن
[dar-yāft kardan] دریافت کردن – [dar-yāftan] دریافتن – [pey bordan]
استنباط کردن – [hāli šodan] حالی شدن – [sar dar-āvardan] سردر آوردن
افتادن – [gereftan] گرفتن – [buy bordan] بوی بردن – [estembāt kardan]
[oftādan] va h.k.

پی , درک کردن , متوجه شدن [fahmidan] sodda fe’lining Agar
استنباط va حالی شدن , سردر آوردن , دریافت کردن , دریافتن , بردن
kabi funksional ekvivalentlari ushbu so‘zning bevosita sinonimlari
hisoblansalar, bu so‘zning بوی بردن , گرفتن , بوی بردن kabi funksional
ekvivalentlari muayyan o‘rinlardagina “tushunmoq” ma’nosining turli ottenkalarini
bildiradi. Misol:

جوهر فروشان شهر او را شناخته و بوی برده بودند که از
کیسه خلیفه می بخشد¹⁸⁶.

*Shaharning zargarlik buyumlarini sotish bilan shug‘ullanadigan savdogarlari
uni tanidilar va tushunib yetgandilarki, u xalifaning hisobidan hadya qilyapti.*

دیگر نمی خواهم در این مورد چیزی بشنوم ، افتاد¹⁸⁷؟

Bu to‘g‘rida boshqa hech narsa eshitishni istamayman, tushundingmi?

نیفتاد ، مطلب را دو باره توضیح بده¹⁸⁸.

Tushunmadim, masalani boshqatdan tushuntir.

مطلب را گرفتم ، دیگر لازم نیست توضیح بدهید¹⁸⁹.

Masalani tushundim, endi izoh berishingiz shart emas.

¹⁸⁶ قنبرعلی جوان مرد شیراز، کنت گوبینو - ترجمه و نگارش از محمدعلی جمال زاده . 1356. ص 54.
تهران، کانون معرفت بی تا.

¹⁸⁷ انوری، حسن، فرهنگ بزرگ سخن/ به سرپرستی حسن انوری، تهران، سخن، 1381 - 8 ج. جلد 1. ص 481.

¹⁸⁸ انوری، حسن، فرهنگ بزرگ سخن/ به سرپرستی حسن انوری، تهران، سخن، 1381 - 8 ج. جلد 1. ص 481.

¹⁸⁹ انوری، حسن، فرهنگ بزرگ سخن/ به سرپرستی حسن انوری، تهران، سخن، 1381 - 8 ج. جلد 6. ص 6137.

Albatta, tilshunoslikda shunga o'xshash holatlarga nisbatan *kontekstual sinonimiya* tushunchasi ham qo'llaniladi. Ammo biz ushbu tadqiqotimizda bir ma'noning turli o'rinlarda bir necha so'z yoki so'z birikmasi vositasida anglatilishini funksional nuqtayi nazardan o'rganib chiqayotganimiz sababli bu o'rinda funksional ekvivalentlik atamasini qo'llashni ma'qul deb bilamiz.

Ma'lumki tilda sinonim so'zlarni qo'llashdan ko'zda tutilgan asosiy maqsadlar nutqda takrordan qochish, nutqni chiroyli chiqishini ta'minlash, nutqqa aniqlik kiritish, ma'noni turli leksik va sintaktik unsurlar bilan munosabatda munosib so'zlar bilan berish kabilardan iborat. Bir so'zning turli funksional ekvivalentlarini qo'llashdan ham ayni shu maqsadlar ko'zda tutilsa-da, funksional ekvivalentlikda kontekst birinchi darajali rol o'ynaydi.

Fors tilida fe'llarning funksional ekvivalentlari tilning ifoda imkoniyatlarining kengayishiga, nutqning chiroyli, ravon va aniq chiqishiga, ifoda rang-barangligining ta'minlanishiga sabab bo'luvchi omillardan hisoblanadi. Leksik-semantik variantlilik kabi funksional ekvivalentlik ham fors tilidagi fe'llarda keng uchraydigan holat hisoblanadi. Hozirgi fors tilida adabiy til bilan birgalikda so'zlashuv tili hamda klassik fors tili unsurlarining keng ishlatilishi, nutqning turli uslublaridan keng foydalanish, qolaversa nutqning turli kontekstlari ushbu tildagi talaygina fe'llarning turli funksional ekvivalentlarga ega bo'lishiga sabab bo'ladi.

2.3.2. Fe'llardagi leksik-semantik variantlashuv va funksional ekvivalentlikning o'zaro bog'liqligi

Yuqorida eslatib o'tganimizdek fe'llardagi ko'pma'nolilik, ya'ni leksik-semantik variantlashuv va funksional ekvivalentlik o'zaro bog'liq hodisalar bo'lib, ko'pma'noli fe'llar o'zlari anglatadigan ma'nolarning – leksik-semantik variantlarning har birida boshqa fe'llar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishadi. Bunda biz ma'lum fe'lning faqatgina bir ma'no qatorida emas, balki bir necha ma'no qatoridagi funksional ekvivalentlarini kuzatish imkoniyatiga ega

bo‘lamiz. Shu nuqtayi nazardan leksik-semantik variantlar fe’llarning funksional ekvivalentlarini o‘rganishda muhim o‘rin tutadi. Buni ko‘pma’noli خواندن [xāndan] fe’lining turli leksik-semantik variantlaridagi funksional ekvivalentlik munosabatlari misolida ko‘rib o‘tamiz.

خواندن [xāndan] fe’li fors tilida keng ishlatilish o‘rniga ega bo‘lgan sodda fe’llardan bo‘lib turli o‘rinlarda asosan quyidagi ma’nolarni anglatib keladi:

1) o‘qimoq (*ko‘z yugurtirib yoki ovoz chiqarib*); 2) o‘qimoq, tahsil olmoq (*biror ta’lim maskanida*); 3) kuylamoq, qo‘shiq aytmoq; 4) atamoq, nomlamoq; 5) chaqirmoq (*otini aytib*); 6) huzuriga chaqirmoq (*chorlamoq*); 7) chaqirmoq, taklif qilmoq (*mehmonga*); 8) da’vat qilmoq, chorlamoq, chaqirmoq; 9) mos (*muvofig, mutanosib*) bo‘lmoq (*kelmoq*)¹⁹⁰.

خواندن [xāndan] fe’li o‘zi anglatadigan ushbu ma’nolarning har birida quyidagi so‘zlar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishadi:

1) o‘qimoq (*ko‘z yugurtirib yoki ovoz chiqarib*);

قرائت کردن، مطالعه کردن.

2) o‘qimoq, tahsil olmoq (*biror ta’lim maskanida*);

تحصيل کردن، درس خواندن، آموزش دیدن، دیدن (مدرسه، دوره و ... را)، گذراندن (دوره را)، شاگردی کردن.

3) kuylamoq, qo‘shiq aytmoq;

آواز خواندن، ترانه خواندن، ترنم کردن، دم کشیدن، سرودن.

4) atamoq, nomlamoq;

نامیدن، گفتن، موسوم کردن، نام نهادن، خطاب کردن.

5) chaqirmoq (*otini aytib*);

¹⁹⁰ Biz bu o‘rinda خواندن [xāndan] fe’lining H. Anvariyning “So‘xan” izohli lug‘ati hamda Y.A. Rubinchikning “Forscha-ruscha lug‘ati”da keltirilgan ma’nolaridan ko‘proq ishlatiladiganlarini tanlab oldik. Qarang:

انوری، حسن، فرهنگ بزرگ سخن/ به سرپرستی حسن انوری، تهران، سخن، 1381 - 8 ج. جلد 4. ص 2856 - 2857;

Персидско-русский словарь: в 2-х томах, под редакцией Ю.А. Рубинчика, 3-издание. I-том. - Москва: Русский язык, 1985. - С.574.

صدا کردن، خطاب کردن، ندا کردن، آواز کردن.

6) huzuriga chaqirmoq (chorlamoq);

احضار کردن، خواستن، طلبیدن، پیش خواندن، حاضر کردن، فراخواندن.

7) chaqirmoq, taklif qilmoq (*mehmonga*);

دعوت کردن، خواستن، فراخواندن، گفتن.

8) da'vat qilmoq, chorlamoq, chaqirmoq;

دعوت کردن، فراخواندن، خواستن، بانگ زدن.

9) mos (muvofig, mutanosib) bo'lmoq (kelmoq);

هم خوان بودن، هم خوانی داشتن، هماهنگ بودن، هماهنگی داشتن، مطابق بودن، مطابقت داشتن، تطابق داشتن، ساختن، سازش داشتن، سازگار آمدن، خوردن، درخور بودن، برابر بودن.

Ko'rib o'tganimizdek [xāndan] fe'li o'zi anglatadigan to'qqiz ma'no qatorida qirqdan ortiq so'z bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, biror bir fe'lning funksional ekvivalentlari deganda uning faqatgina bir ma'noda emas, balki u tomonidan anglashiladigan barcha ma'nolarda yoki barcha ma'no qatorlarida ushbu fe'l bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishadigan barcha so'zlar nazarda tutiladi. Muayyan fe'lning muayyan ma'no yoki ma'no qatoridagi funksional ekvivalentlari to'g'risida gapirganda esa o'sha fe'l va uning funksional ekvivalentlarini bir-biriga bog'lab turuvchi o'sha ma'no yoki ma'no qatori albatta tilga olinishi lozim. Masalan, kabi قرائت کردن، مطالعه کردن [xāndan] fe'lining funksional ekvivalentlari to'g'risida gapirganda ularning aynan o'qimoq ma'nosida yoki ushbu fe'lning آواز خواندن، ترانه خواندن، ترنم کردن، سرودن funksional ekvivalentlari to'g'risida gapirganda ularning aynan kuylamoq ma'nosida ushbu fe'lning funksional ekvivalentlari vazifasini bajarishi eslatilishi lozim. Yoki muayyan fe'lning muayyan ma'no yoki ma'no qatoridagi funksional ekvivalentlariga quyidagicha ishora qilsa bo'ladi:

خواندن [xāndan] fe'lining *chaqirmoq (otini aytib)* ma'nosini ifodalashdagi funksional ekvivalentlari:

صدا کردن، خطاب کردن، ندا کردن، آواز کردن.

خواندن [xāndan] fe'lining *atamoq, nomlamoq* ma'no qatorini ifodalashdagi funksional ekvivalentlari:

نامیدن، گفتن، موسوم کردن، نام نهادن، خطاب کردن.

خواندن [xāndan] fe'lining leksik-semantik variantlari asosida ushbu fe'lining funksional ekvivalentlarini ko'rib chiqish natijasida shunga amin bo'ldikki, so'zning barcha o'rinlardagi funksional ekvivalentlarini aniqlashda uning barcha leksik-semantik variantlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish muhim rol o'ynaydi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar

Dissertatsiyamizning ikkinchi bobida fors tilida fe'llar variantlilikining asosiy omillari va turlari, fe'llarning leksik-semantik variantlari va funksional ekvivalentlarini ko'rib chiqish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Fors tilidagi fe'llar tilning turli sathlarida eng ko'p variantlarga ega bo'lgan so'z turkumlaridan bo'lib, ushbu til tizimida fe'llarning fonetik, morfologik, leksik, leksik-semantik, formal, stilistik va orfografik variantlari mavjud.

2. Fors tilidagi fe'llarning turli til sathlaridagi variant turlari orasida leksik-semantik variantlar hamda funksional ekvivalentlar fe'l tizimidagi variantlashuvning ikki muhim tomoni – ma'noviy va shakliy variantlashuv jihatlarini aks ettiradigan vositalar sifatida muhim o'rin tutadi.

3. Fe'llar, xususan, prefiksli va qo'shma fe'llarning yasashida katta rol o'ynovchi sodda fe'llar sonining kamligi, ko'pchilik fe'llarning katta valentlik qobiliyatiga ega ekanligi, boshqa gap bo'laklari ta'siri ostida turli kontekstlarda fe'l ma'nosining o'zgarishi fors tilidagi fe'l turkumiga oid so'zlarning ko'pma'noli bo'lishining asosiy omillaridan hisoblanadi. Buni biz رفتن [oftādan], افتادن

[raftan], آمدن [āmadan], كشیدن [kešidan] kabi fe'llarning turli leksik-semantik variantlari misolida ko'rsatib berishga harakat qildik.

4. Nutqda takrordan qochish, nutqni chiroyli va rang-barang chiqishini ta'minlash, nutqda bir so'z vositasida ifodalangan ma'noga uning funksional ekvivalenti yordamida aniqlik kiritish, ma'noni turli leksik va sintaktik unsurlar bilan munosabatda munosib so'zlar bilan berishga bo'lgan urinish bilan birgalikda ko'zda tutilgan ma'noni ayni kontekstga xos so'z varianti bilan berishga harakat qilish funksional ekvivalentlikni keltirib chiqaruvchi asosiy omillardan hisoblanadi.

5. Fors tilidagi ko'pma'noli fe'llar anglatadigan ma'nolarning alohida ma'no guruhlariga bo'lib ko'rsatish birinchidan ushbu fe'llarning ma'nolari to'g'risida to'liq va aniq tasavvur hosil qilishga yordam bersa, ikkinchidan, ushbu fe'llarning o'zlari anglatadigan ma'nolarning – leksik-semantik variantlarning har birida boshqa fe'llar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishish imkoniyatlarini o'rganishni osonlashtiradi. Buni biz خواستن [xāstan] sodda fe'li ma'nolarining alohida ma'no guruhlariga bo'lib ko'rsatilishi misolida ko'rsatib berishga harakat qildik.

6. Fe'llardagi ko'pma'nolilik (leksik-semantik variantlashuv) va funksional ekvivalentlik o'zaro bog'liq hodisalar bo'lib, ko'pma'noli fe'llar o'zlari anglatadigan ma'nolarning – leksik-semantik variantlarning har birida boshqa fe'llar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishadi. Bunda biz ma'lum fe'lining faqatgina bir ma'no qatorida emas, balki bir necha ma'no qatoridagi funksional ekvivalentlarini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shu nuqtayi nazardan leksik-semantik variantlar fe'llarning funksional ekvivalentlarini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Buni biz خواندن [xāndan] fe'lining turli leksik-semantik variantlaridagi funksional ekvivalentlik munosabatlari misolida ko'rsatib berishga harakat qildik.

III BOB. FORS TILI FE'L TIZIMIDA INVARIANT-VARIANT MUNOSABATI

Yuqorida aytib o'tilganidek invariant tushunchasi variant tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, muayyan til birligining muayyan til sathidagi invarianti o'sha til birligining o'sha til sathidagi variantlarining umumiy ko'rinishi, turli variantlarda namoyon bo'ladigan til birligining birlamchi shakli, uning turli variantlarining umumlashmasidir. Invariant faqatgina variantlar mavjud bo'lgan o'rinda izlanadi, zero variantlar bo'lmagan joyda invariant ham mavjud bo'lmaydi. Shu sababli ham muayyan til birligining muayyan til sathidagi invariantini aniqlash uchun oldin o'sha til birligining o'sha til sathidagi variantlarini aniqlash lozim bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, invariant variantlarni aniqlash asosida aniqlanadi.

Fors tilidagi sodda, prefiksli va qo'shma fe'llarning formal invariantlarini aniqlash va o'rganish uchun ham ularning funksional ekvivalentlarini aniqlash, ko'rib chiqish va tadqiq qilish lozim. Shundan kelib chiqib ushbu bobda oldin namuna sifatida olingan sodda, prefiksli va qo'shma fe'llarning funksional ekvivalentlarini ko'rib chiqishga, buning asosida esa ularning formal invariantlarini aniqlashga qaror qildik.

3.1. Fors tilida sodda fe'llarning formal invariantlari (خو استن [xāstan] fe'li misolida)

3.1.1. خو استن [xāstan] sodda fe'lining funksional ekvivalentlari

3.1.1.1. خو استن [xāstan] sodda fe'lining turli ma'nolari va ma'no guruhlarida funksional ekvivalentlik munosabati

Yuqorida aytib o'tganimizdek leksik-semantik variantlilik bilan funksional ekvivalentlik bir-biriga bog'liq tushunchalar bo'lib, ko'pma'noli so'z o'zining leksik-semantik variantlarining har birida boshqa so'zlar bilan funksional

ekvivalentlik munosabatiga kirishadi. Fe'llarning funksional ekvivalentlarini o'rganishda muhim rol o'ynaydigan leksik-semantik variantlarning soni va tarkibi to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish uchun esa biz tomonimizdan fe'llar anglatadigan ma'nolarni alohida ma'no guruhlariga bo'lib ko'rsatish taklif etilgandi. Chunki bu narsa fe'llarning o'zlari anglatadigan ma'nolarning – leksik-semantik variantlarning har birida boshqa fe'llar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishishi imkoniyatlarini o'rganishni osonlashtiradi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, so'zlar nafaqat o'zlari anglatadigan ayni bir ma'noda, balki o'zlari anglatadigan butun boshli bir ma'no guruhida ham boshqa so'zlar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishadilar.

Fe'llarning funksional ekvivalentlarini ular anglatadigan barcha ma'nolar va ma'no guruhlari asosida o'rganishdan iborat bo'lgan ushbu usulini ikki bosqichdan iborat qilish mumkin bo'lib, birinchi bosqichda muayyan fe'lning barcha ma'nolari va ma'no guruhlaridagi funksional ekvivalentlari to'g'risida umumiy tasavvur hosil qilinsa, ikkinchi bosqichda o'sha fe'lning ana shu ma'nolaridan yoki ma'no guruhlaridan biridagi funksional ekvivalentlari batafsil o'rganiladi.

Quyida funksional ekvivalentlarni ular anglatadigan barcha ma'nolar va ma'no guruhlari asosida o'rganishning birinchi bosqichida خواستن [xāstan] sodda fe'lining o'zi anglatadigan barcha ma'nolar va ma'no guruhlaridagi funksional ekvivalentlarini umumiy tarzda ko'rib chiqamiz.

Fors tilidagi ko'pma'noli so'zlardan bo'lgan خواستن [xāstan] sodda fe'li o'zi anglanadigan ma'nolar va ma'no guruhlarida quyidagi fe'llar bilan funksional ekvivalentlik munosabatida bo'ladi:

1. Xohish-istak-niyat ma'no guruhi:

1) istamoq, xohlamoq; misol:

من می خواهم که شما به خانه ما بیایید.

Men sizni mening uyimga kelishingizni istayman.

Funksional ekvivalentlari:

اراده کردن، خواهان شدن، خواستار شدن.

2) niyatida bo'lmoq, ...moqchi bo'lmoq; misol:

من می خواهم به ایران بروم.

Men Eronga bormoqchiman.

Funksional ekvivalentlari:

قصد داشتن، در نظر داشتن، در صدد بودن، آهنگ چیزی داشتن.

3) mayl qilmoq, moyil bo'lmoq, istagi bo'lmoq; misol:

این شرکت می خواهد در نمایندگاه شرکت کند.

Ushbu kompaniya ko'rgazmada qatnashishni istaydi.

Funksional ekvivalentlari:

میل داشتن، مایل بودن، تمایل داشتن، رغبت داشتن، راغب بودن.

2. Orzu-tilak ma'no guruhi:

1) orzu qilmoq; misol:

او خیلی وقت می خواهد که وارد دانشگاه شود.

U anchadan beri o'qishga kirishni orzu qiladi.

Funksional ekvivalentlari:

آرزو کردن (داشتن)، آرزومند شدن.

2) tilamoq; misol:

من برای شما سلامتی می خواهم.

Men sizga sog'lik tilayman.

Funksional ekvivalentlari:

آرزو کردن (داشتن)، آرزومند شدن.

3. Iltimos-talab ma'no guruhi:

1) so'ramoq, iltimos qilmoq; misol:

دوستم از من کمک خواست.

Do'stim mendan yordam so'radi.

دوستم از من خواست که به وی کمک کنم.

Do 'stim mendan unga yordam berishimni iltimos qildi.

Funksional ekvivalentlari:

درخواست کردن، خواستار شدن، خواهان شدن، خواهش کردن، خواهشمند بودن، تعارف کردن، دعا کردن، مسئلت کردن، التماس کردن، تمنا کردن.

2) talab qilmoq; misol:

کارگران خواستند تا حقوقشان اضافه شود.

Ishchilar ish haqlarining oshirilishini talab qildilar.

Funksional ekvivalentlari:

درخواست کردن، تقاضا کردن، خواستار شدن، خواهان شدن، طلبیدن، استدعا کردن، مستدعی شدن، استعلام کردن، طلب کردن، مطالبه کردن، خواهنده شدن، طالب شدن.

4. Taqozo ma'no guruhi:

Taqozo qilmoq, talab qilmoq; misol:

این کار هزینه زیادی می خواهد.

Bu ish katta xarajat talab qiladi.

Funksional ekvivalentlari:

ایجاب کردن، اقتضا کردن، الزام کردن، طلب کردن، طلبیدن، نیاز داشتن، نیازمند بودن، محتاج بودن.

5. Chorlov ma'no guruhi:

1) chaqirmoq, chorlamoq, da'vat qilmoq; misol:

رئیس جمهور از شرکت های خارجی خواست تا در کشورش سرمایه گذاری کنند.

Prezident chet el kompaniyalarini uning mamlakatiga sarmoya kiritishga chaqirdi.

Funksional ekvivalentlari:

دعوت کردن، فراخواندن، بانگ زدن.

2) taklif qilmoq; misol:

دوستم مرا به مهمانی خواست.

Do 'stim meni mehmonga chaqirdi (taklif qildi).

Funksional ekvivalentlari:

دعوت کردن، فراخواندن، گفتن.

3) chaqirib olmoq; misol:

وزارت او را از محل مأموریت به تهران خواست.

Vazirlik uni komandirovka joyidan Tehronga chaqirib oldi.

Funksional ekvivalentlari:

احضار کردن، طلبیدن، پیش خواندن، حاضر کردن،
فراخواندن.

6. Ehtiyoj ma'no guruhi:

1) ehtiyoji bo'lmoq, (unga) kerak (zarur) bo'lmoq; misol:

من برای خرید کتاب چند تومان می خواهم.

Kitob sotib olishim uchun menga bir necha tuman kerak.

Funksional ekvivalentlari:

نیاز داشتن، نیازمند بودن، محتاج بودن.

2) kerak (lozim, shart) bo'lmoq (*asosan uchinchi shaxs birlikning hozirgi zamon bo'lishsizlik shaklida keladi*); misol:

نمی خواهد این کار را بکنید.

Bu ishni qilishingiz kerak (shart) emas.

Funksional ekvivalentlari:

لازم بودن، بایستن.

3) kerak (lozim, shart) bo'lmoq (*asosan o'tgan zamon davom fe'li shaklida keladi*). misol:

Ko'proq ishlashing kerak edi. - می خواستی بیشتر کار کنی.

Funksional ekvivalentlari:

لازم بودن، بایستن.

7. Ishtiyoq ma'no guruhi:

Ko'ngli tusamoq, ko'rgisi (birga bo'lgisi) kelmoq.

Misol: من او را می خواهم

Funksional ekvivalentlari: دوست داشتن

8. Shart-istak ma'no guruhi: xoh ..., ...-sa ham, ...-dan qat'iy nazar, menga desa ..., ... bo'ladimi yoki ... (*asosan uchinchi shaxs birlikning hozirgi zamon shaklida keladi*). Misol:

قیمت ماشین هرچه قدر می خواهد باشد، پدرم حاضر است آن را بخرد.

Mashinaning narxi qancha bo'lsa ham (qancha bo'lishidan qat'i nazar), otam uni sotib olishga tayyor.

می خواهد معاون باشد، می خواهد رئیس باشد، خودم جوابش را می دهم.

O'rinbosar bo'ladimi yoki boshliq, o'zim javobini beraman.

Funksional ekvivalentlari: هم، حتی اگر ... هم

Ko'rib chiqqanimizdek, [xāstan] sodda fe'li o'zining sakkiz ma'no guruhidagi o'n oltita ma'no qatoridan o'n to'rttasida qirqdan ortiq so'z bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishadi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, funksional ekvivalentlardan har biri o'ziga xos bo'lgan ma'no ottenkalariga ega bo'lib barcha o'rinlarda ham bir-biri bilan o'zaro o'rin almasha olmaydi.

Shu o'rinda fors tilida qo'shma fe'llarning turli sodda, prefiksli va qo'shma fe'llar funksional ekvivalentlarini vujudga keltirishdagi katta rolini alohida ta'kidlab o'tish joiz. Fors tili fe'l tizimida muhim o'rin tutadigan qo'shma fe'llar sodda fe'llarning sinonimlari sifatida keng qo'llanib, ularning turli holatlarda qo'llaniladigan turli funksional ekvivalentlarining vujudga kelishida katta rol o'ynaydi. O'zbek eronshunosi D.A. Azimdjanovalning ta'kidlashicha, fors tilidagi qo'shma fe'llarning son jihatdan anchagina ustunlikka ega ekanligi ham, o'zaro

(qo'shma fe'llar o'rtasidagi) ham prefiksli va otdan yasalgan fe'llar bilan bo'lgan sinonimik munosabatlarni rivojlantirishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi¹⁹¹.

3.1.1.2. خواستن [xāstan] sodda fe'lining ma'nolar yoki ma'no guruhlaridan birida funksional ekvivalentlik munosabati

Dissertatsiyamizning ushbu qismida fe'llarning funksional ekvivalentlarini ular anglatadigan barcha ma'nolar va ma'no guruhlari asosida o'rganishning ikkinchi bosqichida خواستن [xāstan] sodda fe'lining o'zi anglatadigan ma'nolaridan yoki ma'no guruhlaridan biridagi funksional ekvivalentlarini ko'rib chiqamiz. Ya'ni biz خواستن [xāstan] sodda fe'lining uchinchi – **“iltimos-talab” ma'no guruhiga** tegishli bo'lgan 1) *so'ramoq, iltimos qilmoq*; 2) *so'ramoq, talab qilmoq* ma'nolaridagi funksional ekvivalentlari to'g'risida batafsilroq so'z yuritamiz.

Shu o'rinda eslatib o'tish lozimki, fors tilida *so'ramoq, iltimos qilmoq* va *talab qilmoq* ma'nolari o'rtasidagi farq ushbu ma'nolar o'rtasida o'zbek tilida mavjud bo'lgan farq darajasida bo'lmasdan, bir-biriga anchagina yaqin ma'nolar hisoblanadi va muayyan situativ holatlardagina *so'ramoq, iltimos qilmoq* va *talab qilmoq* ma'nolari o'rtasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu masalaga chuqurroq qaraydigan bo'lsak, o'zbek tilida bir-biridan alohida bo'lgan ikki ma'no hisoblanadigan *so'ramoq, iltimos qilmoq* va *talab qilmoq* ma'nolarining fors tilidagi خواستن [xāstan] sodda fe'li va uning funksional ekvivalentlari vositasida berilishi holatini quyidagi ikki ma'no guruhchasiga bo'lib ko'rsatishimiz ham mumkin:

- 1) *so'ramoq, iltimos qilmoq*;
- 2) *so'ramoq, talab qilmoq*.

¹⁹¹ Азимджанова Д.А. Синонимия глагольной лексики персидского языка: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1997. - С.47.

Ya'ni, خواستن [xāstan] so'zi *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarida qo'llanilgan umumiy holatlarda *iltimos qilmoq, talab qilmoq* kabi ikki ma'no ottenkasiga ega bo'lgan umumiy *so'ramoq* ma'nosini anglatrsa, alohida holatlarning birida aynan *iltimos qilmoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq*, ikkinchisida esa aynan *talab qilmoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini beradi.

3.1.1.2.1. خواستن [xāstan] fe'lining funksional ekvivalentlari va ularning yasalishi

Hozirgi fors tilida turli o'rinlarda خواستن [xāstan] sodda fe'li anglatadigan *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda ushbu fe'lga funksional ekvivalent sifatida eng ko'p qo'llaniladigan quyidagi fe'llarni aniqladik:

خواستار [tayāzā kardan], تقاضا کردن [darxāst kardan], درخواست کردن [xāstār šodan], خواهان شدن [xāhān šodan], طلب کردن [talab kardan], خواهنده شدن [talabidan], مطالبه کردن [motālebe kardan], طالب شدن [xāhande šodan], استعلام کردن [tāleb šodan], [este'lām kardan], تعارف کردن [ta'ārof kardan], خواهش کردن [ta'ārof kardan], [xāheš kardan], خواهشمند بودن [xāhešmand budan], [mas'alat kardan], مسئلت کردن [doā kardan], دعا کردن [eltemās kardan], تمنا [tamannā dāštan]. داشتن

Shuningdek, o'tmishda خواستن [xāstan] sodda fe'lining funksional ekvivalentlari sifatida qo'llanilgan, bugungi kunga kelib esa arxaizmlarga aylangan quyidagi fe'llar ham aniqlandi:

خواستاری [xāstār kardan], خواستار کردن [xāst kardan], خواستداری کردن [xāstdār šodan], خواستدار شدن [xāstdārī kardan], خواهش کردن [xāhešak kardan], خواهشک شدن [xāhā šodan], خواهها شدن [darxāh kardan]. درخواست کردن

Keltirilgan ushbu fe'llardan har birining fe'l qismini tashkil etuvchi ko'makchi fe'llarning o'zi ham bittadan tortib bir nechagacha funksional ekvivalentlarga ega bo'lib, bunda کردن [kardan] ko'makchi fe'li o'zining نمودن [nemudan], داشتن [dāštan] kabi, شدن [šodan] ko'makchi fe'li esa o'zining گشتن [gaštan], گردیدن [gardidan] kabi funksional ekvivalentlari bilan o'rin almashib keladi. Masalan, تقاضا shaklida, درخواست نمودن fe'lining درخواست کردن va تقاضا نمودن fe'lining تقاضا shakllarida, داشتن va تقاضا نمودن fe'lining تقاضا shakllarida yoki خواستار شدن fe'lining خواستار گشتن va خواستار گردیدن fe'lining خواستن [xāstan] sodda fe'lining funksional ekvivalentlari bo'lgan fe'llardagi ko'makchi fe'llarning funksional ekvivalentlari to'g'risida emas, balki faqatgina ushbu sodda fe'lining funksional ekvivalentlari bo'lgan fe'llarning o'zi to'g'risida so'z yuritishni maqsad qilib qo'yganligimiz sababli خواستن [xāstan] sodda fe'lining funksional ekvivalentlari sifatida ushbu fe'llarning faqatgina کردن [kardan] va شدن [šodan] ko'makchi fe'llari ishtirokida yasalgan shakllarini asos qilib oldik.

Ko'rib o'tganimizdek, hozirgi fors tilida *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda خواستن [xāstan] sodda fe'li funksional ekvivalentlari vazifasini bajaruvchi fe'llarning yasallishida fe'lining ot qismi sifatida خواستن [xāstan] fe'lining o'tgan zamon va hozirgi-kelasi zamon negizlaridan yasalgan ot (fe'ldan yasalgan ot, harakat nomi) va sifatdash turkumlariga oid so'zlar (خواهنده, خواهشمند, خواهش, خواهان, خواستار, درخواست), shuningdek, arab tilidan o'zlashgan ot (fe'ldan yasalgan ot, harakat nomi) va sifatdash turkumlariga oid so'zlar (استعلام, تقاضا, مطالبه, طالب, طلب), اشتراك (استدعا, التماس, مسئلت, دعا, تعارف, استدعا) ishtirok etadi.

3.1.1.2.2. خواستن [xāstan] fe'lining funksional ekvivalentlarining qo'llanilish o'rinlari

Hozirgi fors tilida mavjud bo'lgan fe'llar orasida o'zining muhim ish-harakat va jarayonlarni ifodalashdagi faol ishtiroki bilan alohida o'rin tutadigan خواستن [xāstan] sodda fe'li anglatadigan *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda ushbu fe'lga funksional ekvivalent sifatida qo'llaniladigan fe'llarning quyidagi ishlatilish o'rinlarini aniqladik (ishlatilish darajalari asosidagi ketma-ketlik tartibida):

darxāst kardan [darxāst kardan] fe'li *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llar orasida eng faoli bo'lib, ushbu ma'nolarni ifodalash lozim bo'lgan barcha o'rinlarda ishlatiladi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur fe'l *iltimos qilmoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini ham *talab qilmoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini ham ifodalashda ishtirok etadi. Misollar:

از او درخواست کردم ... از خانه ما خارج شود¹⁹².

Undan uyimizdan chiqib ketishini so'radim (talab qildim).

از نمایندگان مجلس که در حال بررسی بودجه سال 93 هستند درخواست می‌کنیم ردیفی نیز برای جمع‌آوری معتادان از خیابان‌ها در نظر بگیرند¹⁹³.

Hijriy-shamsiy 1393-yil (milodiy 2014) byudjetini muhokama qilayotgan parlament deputatlaridan ko'chalarni giyohvandlardan tozalash uchun ham bir modda ko'zda tutishlarini so'raymiz.

واعظی در این دیدار از وزیر اقتصاد ترکیه درخواست کرد نسبت به ایجاد تسهیلات لازم برای برقراری ارتباط میان دو کشور و ... اقدام کند («نمایندگان ایران و ترکیه در

¹⁹² بزرگ علوی، چمدان، تهران، امیر کبیر، 1357، ص 167.

¹⁹³ روزنامه کیهان، مورخ 1392/11/8

کمیسیون مشترک اقتصادی راه های گسترش همکاری ها را بررسی کردند»¹⁹⁴.

Voiziy ushbu uchrashuvda Turkiya Iqtisodiyot vaziridan ikki mamlakat o'rtasida aloqalar o'rnatilishi, uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish borasida chora-tadbirlar ko'rishini so'radi ("Eron va Turkiya vakillari Iqtisodiy hamkorliklar bo'yicha qo'shma komissiya yig'ilishida hamkorlikni kengaytirish yo'llarini muhokama qildilar")¹⁹⁵.

تقاضا کردن [*ta'yāzā kardan*] fe'li *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda nisbatan faol ishlatiladi. Biroq mazkur fe'lining ko'pchilik holatlarda *iltimos qilmoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini kamroq holatlarda esa *talab qilmoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini anglatishi kuzatiladi. Misollar:

تقاضا کرد که کمی پیانو بزند¹⁹⁶.

Bir oz pianino chalay deb so'radi (iltimos qildi).

موعد مرخصی اداری ام سر آمده بود... یک هفته تمدید مرخصی تقاضا کردم¹⁹⁷.

Xizmat ta'tilimning muddati tugagan edi... Ta'tilni yana bir haftaga cho'zishlarini so'radim.

چرا شورای نگهبان از روحانی تقاضا کرد به منزل هاشمی برود¹⁹⁸؟

Nega Nazorat kengashi Ruhoniydan Hoshimiyning uyiga borishini so'radi (talab qildi)?

خواستار شدن [*xāstār šodan*] fe'li *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda nisbatan faol ishlatiladi. Biroq mazkur fe'lining ko'pchilik

¹⁹⁴ www.irna.ir //1392/11/10 خبرگزاری جمهوری اسلامی، تاریخ خبر:

¹⁹⁵ Qavs ichida misol tariqasida keltirilayotgan gaplar ulardan iqtibos qilib olingan xabarlarining sarlavhalari keltirildi.

¹⁹⁶ بزرگ علوی، چمدان، تهران، امیر کبیر، 1357، ص 147.

¹⁹⁷ محمد علی جمال زاده، قصه ما به سر رسید، تهران، شرکت مؤلفان و مترجمان ایران، 1357، ص 44.

¹⁹⁸ سایت تحلیلی عصر ایران، تاریخ انتشار: 25 تیر 1392 www.asriran.com

holatlarda *talab qilmoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini, kamroq holatlarda esa *iltimos qilmoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini anglatishi kuzatiladi. Misollar:

تظاهر کنندگان در تایلند خواستار استعفای نخست وزیر شدند¹⁹⁹.

Tailanddagi namoyishchilar Bosh vazirning iste'fosini talab qildilar.

تونى بلر مداخله غرب در سوريه را خواستار شد²⁰⁰.

Toni Bleyer G'arbning Suriya masalasiga aralashishini so'radi (talab qildi).

[xāhān šodan] fe'li *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda nisbatan faol, ammo **خواستار شدن** fe'lga nisbatan kamroq ishlatilib, bevosita ushbu fe'lning funksional ekvivalenti vazifasini bajaradi. Misol:

با توجه به اقتصاد پویا و فرصت های بسیار خوب در ترکیه، خواهان افزایش سرمایه گذاری ایتالیا در کشورمان هستیم («عبد الله گل خواستار افزایش سرمایه گذاری ایتالیا در ترکیه شد»)²⁰¹.

Turkiyadagi dinamik iqtisodiyot va o'ta qulay shart-sharoitlarni e'tiborga olgan holda, Italiyaning mamlakatimizdagi investitsiyalarini oshirilishini so'raymiz ("Abdullo Gul Italiyaning Turkiyadagi investitsiyalarini oshirilishini so'radi").

[talab kardan] fe'li *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda nisbatan kamroq ishlatilib, ko'pchilik hollarda shu ma'nolarda qo'llanuvchi asosiy sodda yoki qo'shma fe'llar (masalan, خواستن, درخواست کردن va shu kabilar)ning ikkilamchi funksional ekvivalenti vazifasida keladi. Misol:

¹⁹⁹ روزنامه همشهری، مورخ 1392/9/12

²⁰⁰ خبرگزاری دانشجویان ایران (ایسنا)، تاریخ انتشار خبر: 8 بهمن 1392 // <http://isna.ir>

²⁰¹ خبرگزاری جمهوری اسلامی، تاریخ خبر: 1392/11/10 // www.irna.ir

بقایای برای بار دوم از روحانی طلب یاری کرد²⁰².

Baqoiy ikkinchi marta Ruhoniydan yordam (berishini) so'radi.

استعلام کردن [este'lām kardan] fe'li so'ramoq, yozma ma'lumot berishni so'ramoq ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'ramoq, talab qilmoq ma'nolarini anglatib keladi. Misol:

شورای رقابت تناژ محصولات خودروسازان را استعلام کرد²⁰³.

Raqobat kengashi avtomobilsozlardan ularning mahsulotlari tonnaji to'g'risida ma'lumot berishini so'radi.

خواهش کردن [xāheš kardan] fe'li asosan iltimos qilmoq ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'ramoq ma'nosini anglatib keladi. Misol:

برای این آمده ام که از شما خواهش کنم آن را قبول کنید²⁰⁴.

Sizdan shuni qabul qilishingizni so'rash (iltimos qilish) uchun kelganman.

خواهشمند بودن [xāhešmand budan] fe'li asosan uchinchi shaxs birlikda, ayrim hollarda esa birinchi shaxs birlik va ko'plikda kelib, xushmuomalalik formasidagi yoki rasmiy yozishmalar (xatlar, notalar) va murojaatlarda so'ramoq, iltimos qilmoq ma'nosini bildirishga xizmat qiladi. Misollar:

خواهشمند است رسماً اعلام بفرمائید علت لغو مجمع بدون تعیین تاریخ جدید چیست؟ («اعضای مجمع فدراسیون تکواندو خواستار برگزاری سریعتر انتخابات شدند»)²⁰⁵.

Bosh assambleya yig'ilishining yangi sanasini ma'lum qilmasdan turib, uning o'tkazilishining qoldirilganligi sababi nimada ekanligini rasman ma'lum qilishingizni so'raymiz ("Taekvando federatsiyasi bosh assambleyasi a'zolari saylovlarning tezroq o'tkazilishini talab qildilar").

²⁰² <http://solhnews.org//1392> 19 آبان تاریخ انتشار:

²⁰³ پایگاه اطلاع رسانی عصر خودرو. تاریخ انتشار خبر: 31 فروردین // www.asrekhodro.com 1992

²⁰⁴ محمد مصدق، خاطرات و تألمات دکتر مصدق، تهران، علمی، 1360، ص 195.

²⁰⁵ خبرگزاری جمهوری اسلامی، تاریخ خبر: www.irna.ir//1392/10/4

من از خوانندگان دانشمند «سخن» خواهشمندم که در این کار دشوار چاره گری کنند.²⁰⁶

Men “So‘xan” (jurnali)ning bilimdon o‘quvchilaridan ushbu qiyin ishda vaziyatdan chiqish yo‘lini topishlarini so‘rayman.

[ested‘ā kardan] fe‘li *talab qilmoq* ma‘no ottenkasiga ega bo‘lgan *so‘ramoq* ma‘nosini ham, *talab qilmoq* ma‘no ottenkasiga ega bo‘lgan *so‘ramoq* ma‘nosini ham ifodalashda ishlatilar ekan, unda ushbu ikkala ma‘no ottenkasi bilan bir paytda chorlamoq ma‘no ottenkasining ham bilinar-bilinmas ishtiroki ko‘zga tashlanadi. Misollar:

از ایشان استدعا کردم که با من شطرنج بازی فرمایند.²⁰⁷

Ulardan men bilan shohmot o‘ynashlarini so‘radim.

از مردم استدعا دارد که آرامش خود را مثل همیشه حفظ نمایند.²⁰⁸

Xalqdan o‘z osoyishtaligini har doimgidek avaylab-asrashini so‘radi.

[motālebe kardan] fe‘li *talab qilmoq*, *o‘z haqqini talab qilmoq*, *berishini talab qilmoq* ma‘nolarini bildirib, ana shu o‘rinlardagina خواستن [xāstan] sodda fe‘li bilan funksional ekvivalentlilikni tashkil etadi. Misol:

بانک ملت خسارت 820 میلیون دلاری از انگلیس مطالبه کرد.²⁰⁹

“Millat” banki Buyuk Britaniyadan unga yetkazilgan 820 million AQSh dollari miqdoridagi zararni to‘lashini talab qildi.

[doā kardan] fe‘li *xudodan biror narsa so‘ramoq* ma‘nosidagi *so‘ramoq* ma‘nosini anglatib, ana shu o‘rinda خواستن [xāstan] sodda fe‘li bilan funksional ekvivalentlilikni tashkil etadi. Misollar:

²⁰⁶ خانلری، نمونه هایی از نثر فصیح فارسی معاصر، تهران، بی نا، 1338، ص 299.

²⁰⁷ بزرگ علوی، چمدان، تهران، امیر کبیر، 1357، ص 95.

²⁰⁸ محمد محمود. زمین سوخته. تهران. نشر نو. 1361. ص 94.

²⁰⁹ خبرگزاری تسنیم، تاریخ انتشار خبر: 27 دی 1392 // www.tasnimnews.com

هر يك از افراد ما در هر نمازی خدا را شكر می گویند و برای دوام این نعمت و موهبت دعا می کنند²¹⁰.

Odamlarimizdan har biri har namozda xudoga shukrona qilib, ushbu ne'mat va marhamatning davomli bo'lishini so'raydilar.

باید رفت، دعا کرد که بهشان خوش بگذرد²¹¹.

Borish kerak va (xudodan) ularning vaqtlari yaxshi o'tishini sorash lozim.

مسئلت کردن [mas'alat kardan] fe'li odatda xudodan biror narsa so'rashni ifodalash o'rnidagina so'ramoq ma'nosini anglatadi yoki ana shu o'rindagina sodda fe'li bilan funksional ekvivalentlikni tashkil etadi. Ushbu fe'l asosan tabrik maktublarining oxirgi qismida yaxshi tilaklar bildirish (masalan tabriklanuvchiga xudodan sog'lik, muvaffaqiyat va h.k. so'rash yoki tilash) yoxud hamdardlik bildirib yozilgan maktublarning oxirgi qismida hamdardlik bildiriluvchiga xudodan sabr va h.k. tilash o'rinlarida ishlatiladi. Misollar:

توفیق شما را از خداوند متعال مسألت می نمایم²¹².

Qodir Egamdan Sizga muvaffaqiyat so'rayman (Tabrik maktubida).

درگذشت پدر گرامیتان را تسلیت عرض نموده، برای آن مرحوم رحمت و مغفرت و برای جناب عالی و خانواده محترمتان اجر و صبر از خداوند متعال مسألت می نمایم²¹³.

Padari buzrukvoringizning vafot etganlari munosabati bilan sizga hamdardlik bildirib, qodir egamdan ul marhumga rahmat va mag'firat, siz janobi oliylari va oilangiz a'zolariga ajr va sabr so'rayman (Hamdardlik maktubida).

التماس کردن [eltemās kardan] fe'li aslida o'tinib so'ramoq, qattiq turib so'ramoq, yalinib so'ramoq ma'nolarini bildirib asosan iltimos qilmoq ma'no ottenkasiga ega bo'lgan so'ramoq ma'nosini anglatib keladi va ana shu

²¹⁰ محمدعلی جمال زاده. قصه ما به سر رسید. تهران، شرکت مؤلفان و مترجمان ایران. 1357. ص 36.

²¹¹ جلال آل احمد. سه تار. تهران. انتشارات فردوس. چاپ دوم. 1349. ص 101.

²¹² سایت پایگاه اطلاع رسانی دفتر مقام معظم رهبری جمهوری اسلامی ایران. // <http://www.leader.ir> بخش مصوبات و پیام ها

²¹³ سایت دانشگاه امام صادق ایران. بخش پیام های تسلیت // <http://pru.isu.ac.ir>

o‘rinlardagina خواستن [xāstan] sodda fe’li bilan funksional ekvivalentlilikni tashkil etadi. Misollar:

هرچه التماس می کردم، کاغذ و قلم می خواستم، به من نمی دادند²¹⁴.

Qanchalik iltimos qilmay, qog‘oz va qalam so‘ramay, menga berishmasdi.

برگزارکنندگان اجلاس ژنو 2 نیازمند حضور ایران در این اجلاس هستند و باید برای حضور ایران در این اجلاس التماس کنند («نقدی: اجلاس ژنو 2 بدون حضور ایران نتیجه ای برای مردم سوریه نخواهد داشت»)²¹⁵.

Jeneva-2 uchrashuvi tashkilotchilari uchun Eronning ushbu uchrashuvda ishtirok etishi zarur bo‘lib, ular Eronning ushbu uchrashuvda ishtirok etishini so‘rashlari lozim (“Naqdiy: Jeneva-2 uchrashuvi Eronning ishtirokisiz Suriya xalqi uchun hech qanday natija keltirmaydi”).

تمنا داشتن [tamannā dāštan] fe’li aslida o‘tinib so‘ramoq, yalinib so‘ramoq ma’nolarini bildirib, asosan iltimos qilmoq ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan so‘ramoq ma’nosini anglatib keladi va ana shu o‘rinlardagina خواستن [xāstan] sodda fe’li bilan funksional ekvivalentlilikni tashkil etadi. Misol:

از شما تمنا دارم وضع ما را دقیقاً در نظر بیاورید²¹⁶.

Sizdan bizning ahvolimizni aniq nazarda tutishingizni o‘tinib so‘rayman.

طلبیدن [talabidan] fe’li so‘ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq ma’nolarini ifodalashda nisbatan kamroq ishlatilib, ko‘pchilik hollarda shu ma’nolarda qo‘llanuvchi asosiy sodda yoki qo‘shma fe’llar (masalan, درخواست، خواستن) ning ikkilamchi funksional ekvivalenti vazifasida keladi. Misol:

²¹⁴ صادق هدایت، سه قطره خون، تهران، امیر کبیر، 1341، ص 10.

²¹⁵ خبرگزاری جمهوری اسلامی، تاریخ خبر: www.irna.ir//1392/10/28

²¹⁶ مرتضی مشفق کاظمی. تهران مخوف. تهران، ابن سینا، 1340. ص 181.

دبیرکل شورای جهانی کلیساها از جامعه جهانی کمک طلبید²¹⁷.

Jahon cherkovlar kengashi bosh kotibi jahon hamjamiyatidan yordam so'radi.

[ta'ārof kardan] fe'li bir necha ma'noga ega bo'lib *takalluf bilan so'ramoq* ma'nosini anglatishdagina خواستن sodda fe'li bilan funksional ekvivalentlikni tashkil etadi. Misol:

ایرانی‌ها به مهمان نوازی مشهور هستند و برای همین احساس می‌کنند برای پذیرایی بهتر از مهمان، باید مدام به آنها تعارف کنند تا میوه، شیرینی یا غذای بیشتری میل کند²¹⁸.

Eronliklar mehmondo'stliklari bilan tanilgandirlar. Shu sababli ham mehmonni yaxshiroq mehmon qilish uchun unga tinimsiz ravishda meva, shirinlik yoki ko'proq ovqatdan olib o'tirishini so'rab turish kerak deb bilishadi.

[xāhande šodan] fe'li juda ham kam qo'llanilib *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalovchi asosiy sodda yoki qo'shma fe'llarning ikkilamchi funksional ekvivalenti vazifasida keladi. Misol:

اگر اول شما و آخر شما ... گرد آیند و همه خواهند گردند ... نقصان نیاید در مُلک من²¹⁹.

Sizning oldingiz va orqa tomoningizni ... o'rab olib, barchalari (nimadir berishni) so'rasalar ham ... mening mulkim kamayib qolmaydi.

[tāleb šodan] fe'li juda ham kam qo'llanilib *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalovchi asosiy fe'llarning ikkilamchi funksional ekvivalenti vazifasida keladi. Misol:

یوسف رضا گیلانی از انگلیس طالب کمک شد²²⁰.

Yusuf Rizo Giloniy Angliyadan yordam so'radi.

²¹⁷ www.mohabatnews.com // تاریخ انتشار خبر: 5 مهر 1391

²¹⁸ www.ebtekarnews.com // 27 اسفند 1392

²¹⁹ ابو نصر احمدی جام، روضه المذنبین و جنه المشتاقین، تهران، 1372، ص 168-169.

²²⁰ <http://razaqmamoon.blogspot.com> // 23 دی 1390

Ko‘rib o‘tganimizdek, fors tilidagi خواستن [xāstan] sodda fe’li *so‘ramoq*, *iltimos qilmoq*, *talab qilmoq* ma’nolarini ifodalashda yigirmaga yaqin fe’l bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishadi. Ya’ni ushbu fe’llarning barchasi umumiy *so‘ramoq*, *iltimos qilmoq*, *talab qilmoq* ma’nolarini ifodalashda خواستن [xāstan] sodda fe’li bilan o‘rin almashib kela oladi. Ushbu funksional ekvivalentlardan har biri esa, o‘z navbatida, o‘ziga xos bo‘lgan ma’no ottenkalariga ega bo‘lib, bir necha ma’no guruhchasini tashkil etadi. Quyida خواستن [xāstan] sodda fe’lining *so‘ramoq*, *iltimos qilmoq*, *talab qilmoq* ma’nolarini ifodalashdagi funksional ekvivalentlarining ma’no guruhchalari to‘g‘risida so‘z yuritamiz.

3.1.1.2.3. خواستن [xāstan] fe’lining funksional ekvivalentlarining ma’no guruhchalari

Ko‘rib o‘tganimizdek, خواستن [xāstan] sodda fe’li anglatadigan ma’nolardan *so‘ramoq*, *iltimos qilmoq*, *talab qilmoq* ma’nolarini ifodalashda ushbu fe’lga funksional ekvivalent sifatida qo‘llaniladigan fe’llarni o‘z navbatida ular vositasida ifodalanayotgan ma’no ottenkalariga ko‘ra quyidagi olti ma’no guruhchasiga bo‘lish mumkin. Aytib o‘tish lozimki, ma’lum fe’llar bir necha ma’no ottenkalarini ifodalashlariga ko‘ra bir vaqtda bir necha ma’no guruhchalariga kirishi ham mumkin:

1. *Iltimos qilmoq* ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan *so‘ramoq* ma’nosini ham, *talab qilmoq* ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan *so‘ramoq* ma’nosini ham ifodalashda ishtirok etadigan fe’llar:

خواستن [xāstan], درخواست کردن [darxāst kardan], تقاضا کردن [taṣāzā kardan], طلب [xāhān šodan], خواهان شدن [xāstār šodan], خواستار شدن [talab kardan], طلبیدن [talabidan], استعلام کردن [este’lām kardan], دعا کردن [ta’ārof kardan], تعارف کردن [ested’ā kardan], استدعا کردن [doā kardan], تمنا داشتن [tamannā dāštan].

2. *Talab qilmoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llar:

[xāstan] خواستن, [darxāst kardan] درخواست کردن, [tayāzā kardan] تقاضا کردن, [xāhān šodan] خواهان شدن, [xāstār šodan] خواستار شدن, [talab kardan] طلب کردن, [talabidan] طلبیدن, [este'lām kardan] استعلام کردن, [motālebe kardan] مطالبه کردن, [ested'ā kardan] استدعا کردن, [xāhande šodan] خواهنده شدن, [tāleb šodan] طالب شدن.

3. *Berishini talab qilmoq* ma'no ottenkasini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llar:

[talab kardan] طلب کردن, [motālebe kardan] مطالبه کردن, [darxāst kardan] درخواست کردن, [xāstan] خواستن.

4. *Iltimos qilmoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llar:

[xāheš kardan] خواهش کردن, [xāhešmand budan] خواهشمند بودن, [tamannā dāštan] تمنا داشتن, [eltemās kardan] التماس کردن, [tayāzā kardan] تقاضا کردن, [darxāst kardan] درخواست کردن, [xāstan] خواستن, [xāhān šodan] خواهان شدن, [xāstār šodan] خواستار شدن, [talab kardan] طلب کردن.

5. *Yalinib so'ramoq* ma'no ottenkalariga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llar:

[xāheš kardan] خواهش کردن, [eltemās kardan] التماس کردن, [tamannā dāštan] تمنا داشتن, [xāstan] خواستن.

6. *Xudodan so'ramoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llar:

[doā kardan] دعا کردن, [mas'alat kardan] مسألت کردن, [xāstan] خواستن.

Aytish mumkinki, biz tomonimizdan aniqlangan خواستن [xāstan] sodda fe'lining *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashdagi funksional ekvivalentlari fors tilida *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalaydigan fe'llarning umumiy o'rinlardagi formal invariantini, biz ushbu fe'l funksional ekvivalentlarining ma'no ottenkalariga ko'ra bo'lib ko'rsatgan ma'no guruhchalari esa fors tilida *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalaydigan fe'llarning muayyan ma'no guruhchalaridagi formal invariantlarini aniqlashga yordam beradi.

3.1.2. خواستن [xāstan] sodda fe'lining formal invariantlari

Yuqorida aytib o'tganimizdek, fe'llarning funksional ekvivalentlarini yagona invariant ma'no birlashtirib turadi va ana shu yagona invariant ma'no o'zaro variantlik munosabatida bo'lgan fe'llarning birida, ayrim holatlarda esa bir nechtasida, ya'ni formal yoki funksional invariant vazifasidagi fe'lda yoki fe'llarda mujassam bo'ladi. Biz misol tariqasida ko'rib o'tayotgan خواستن [xāstan] sodda fe'lining funksional ekvivalentlarining umumiy invarianti hamda ma'no guruhchalaridagi invariantlarini aniqlashimiz uchun ham ushbu funksional ekvivalentlarni birlashtirib turadigan yagona invariant ma'noni aniqlashimiz kerak bo'ladi.

Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, yuqorida leksik-semantik variantlar to'g'risida gap borganida har bir so'zning leksik-semantik variantlari asosida asosiy va o'zgarmas yagona ma'no yotishi, soddaroq qilib aytganda, ko'pma'noli bir so'zning barcha ma'nolari uning asosiy va o'zgarmas yagona ma'nosi, ya'ni invariant ma'nosining variantlari sifatida u bilan semantik bog'liqlikka ega ekanligi to'g'risida gapirib o'tgandik. Hozir esa biz ayni bir so'z emas, balki o'zaro funksional ekvivalentlik munosabatiga ega bo'lgan bir necha so'z vositasida ifodalanadigan bir ma'noning turli ottenkalari asosida yotadigan asosiy va o'zgarmas yagona ma'no to'g'risida gapiramiz. خواستن [xāstan] sodda fe'li

funksional ekvivalentlarining invariant ma'nosi esa umumiy o'rinlarda boshqacha va ma'no guruhchalarida boshqacha bo'ladi.

So'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq ma'nolarini ifodalashda خواستن [xāstan] sodda fe'lining barcha ma'no guruhlaridagi funksional ekvivalentlari hamda ma'no guruhlaridan biridagi funksional ekvivalentlari to'g'risidagi mulohazalarimizdan kelib chiqqan holda, ushbu fe'l funksional ekvivalentlarining umumiy o'rinlardagi hamda alohida ma'no guruhchalaridagi invariantlarini quyidagicha aniqladik.

3.1.2.1. خواستن [xāstan] sodda fe'li funksional ekvivalentlarining umumiy o'rinlardagi invarianti

Ushbu bobning birinchi bo'limida fors tilida *so'ramoq, iltimos qilmoq* va *talab qilmoq* ma'nolari o'rtasidagi farq ushbu ma'nolar o'rtasida o'zbek tilida mavjud bo'lgan farq darajasida bo'lmasdan, bir-biriga anchagina yaqin ma'nolar hisoblanishi va muayyan situativ holatlardagina *so'ramoq, iltimos qilmoq* va *talab qilmoq* ma'nolari o'rtasidagi farq yaqqol ko'zga tashlanishini eslatib o'tgandik. Ushbu bo'lim davomida esa خواستن [xāstan] sodda fe'li va uning funksional ekvivalentlari tomonidan *so'ramoq, iltimos qilmoq* va *talab qilmoq* ma'nolarining turli ottenkalari ham ifodalanishini ko'rib o'tdik. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, ushbu ma'no ottenkalari quyidagilardan iborat: 1) *so'ramoq (talab qilmoq, iltimos qilmoq)*; 2) *talab qilmoq*; 3) *berishini talab qilmoq*; 4) *iltimos qilmoq*; 5) *yalinib so'ramoq*; 6) *xudodan so'ramoq*.

Umumiy *so'ramoq* ma'nosi orqali bir-biriga bog'lanib turadigan *talab qilmoq* ma'nosining turli darajalaridan tortib *iltimos qilmoq* ma'nosining turli darajalarigacha bo'lgan ma'no ottenkalarini o'z ichiga olgan umumiy ma'noni quyidagicha ta'riflash mumkin bo'ladi: *biror ish-harakatning amalga oshirilishini so'rab murojaat qilmoq*.

Ushbu xulosamizni quyidagi jadval ko'rinishida ifodalash mumkin:

№	<i>ma'no variantlari</i>	<i>invariant ma'no</i>
1	so'ramoq (talab qilmoq, iltimos qilmoq)	biror ish-harakatning amalga oshirilishini so'rab murojaat qilmoq
2	talab qilmoq	
3	berishini talab qilmoq	
4	iltimos qilmoq	
5	yalinib so'ramoq	
6	xudodan so'ramoq	

[xāstan] sodda fe'lining funksional ekvivalentlarining qo'llanilish o'rinlari xususidagi yuqorida keltirgan misollarimiz [xāstan] sodda fe'lining *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashdagi funksional ekvivalentlari tomonidan ifodalanadigan barcha ma'no ottenkalarini o'z ichiga olgan umumiy, ya'ni invariant ma'no bo'lmish *biror ish-harakatning amalga oshirilishini so'rab murojaat qilmoq* ma'nosining mazkur funksional ekvivalentlar orasida ko'proq [xāstan] sodda fe'lining o'zida mujassam bo'lishini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida [xāstan] sodda fe'lining *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashdagi umumiy o'rinlarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'n sakkizta fe'l uchun yagona formal invariant vazifasini o'tay olishi to'g'risida xulosa chiqarishimizga sabab bo'ladi.

[xāstan] sodda fe'lining umumiy o'rinlarda ushbu fe'llarning formal invarianti bo'la olishi to'g'risidagi xulosamizni quyidagi tartibda asoslash mumkin:

Birinchidan, [xāstan] sodda fe'li *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda درخواست کردن, تقاضا کردن, خواستار شدن, استدعا کردن, استعلام کردن, طلبیدن, طلب کردن, خواهان شدن, شدن خواهنده, مطالبه کردن, تعارف کردن, خواهشمند بودن, خواهش کردن, طالب شدن, تمنا داشتن, التماس کردن, مسئلت کردن, دعا کردن, شدن

fe'llari bilan funksional ekvivalentlik munosabatida bo'ladi. Bunda nafaqat mazkur fe'llar خواستن [xāstan] sodda fe'lining funksional ekvivalentlari hisoblanadilar, balki خواستن [xāstan] sodda fe'lining o'zi ham ushbu fe'llardan har birining funksional ekvivalenti bo'la oladi. Ya'ni bu yerda bir tomonlama emas, balki o'zaro funksional ekvivalentlik mavjud bo'lib, خواستن [xāstan] sodda fe'li ham ushbu funksional ekvivalentlardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalab kelayotgan خواستن کردن, درخواست کردن, تقاضا کردن, خواستار شدن, خواهش کردن, استدعا کردن, استعلام کردن, طلبیدن, طلب کردن, خواهان شدن, خواهنده شدن, مطالبه کردن, تعارف کردن, خواهشمند بودن, کردن طالب شدن, تمنا داشتن, التماس کردن, مسئلت کردن, دعا کردن fe'llarining barchasini umumiy qilib faqatgina خواستن [xāstan] fe'li vositasida ta'riflash mumkin. Holbuki ushbu fe'llarning barchasini umumiy qilib ular orasidagi boshqa fe'l vositasida ta'riflashning iloji yo'q.

Uchinchidan, خواستن [xāstan] sodda fe'lini umumiy *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda, ya'ni ma'no guruhchalariga bo'linmagan umumiy holatda gap ma'nosini o'zgartirmagan holda uning funksional ekvivalentlari vazifasini bajarib keladigan تقاضا درخواست کردن, استعلام کردن, طلبیدن, طلب کردن, خواهان شدن, خواستار شدن, کردن مطالبه, تعارف کردن, خواهشمند بودن, خواهش کردن, استدعا کردن, تمنا, التماس کردن, مسئلت کردن, دعا کردن, خواهنده شدن, کردن fe'llaridan har birining o'rnida ishlatish mumkin. Holbuki ushbu fe'llardan boshqa birortasi bunday umumiy vazifani bajara olmaydi, ya'ni ushbu fe'llardan boshqa birortasini mazkur fe'llardan har birining o'rnida ishlatib bo'lmaydi.

Invariant variantlarning barchasiga xos xususiyatlarni o'zida mujassam qilishi, biroq variantlar invariantning barcha xususiyatlarini aks ettira olmasliklari

to'g'risidagi qarashlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, formal invariant funksional ekvivalentlarning barchasiga xos xususiyatlarni o'zida mujassam etadi, biroq funksional ekvivalentlar formal invariantning barcha xususiyatlarni aks ettira olmaydilar. Xuddi shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalab keladigan barcha fe'llarni umumiy qilib faqatgina خواستن [xāstan] fe'li vositasida ta'riflash mumkinligi hamda خواستن [xāstan] sodda fe'lining *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda shu ma'nolarni ifodalab keladigan boshqa barcha funksional ekvivalentlardan har birining o'rnida ishlatish mumkinligi barobarida ushbu ma'nolarni ifodalashda o'zaro funksional ekvivalent bo'lgan fe'llardan boshqa birortasining bunday vazifalarni bajara olmasligi خواستن [xāstan] sodda fe'lining *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashdagi umumiy o'rinlarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'n sakkizta fe'l uchun yagona formal invariant vazifasini o'tay olishi to'g'risida xulosamizni tasdiqlaydi.

Quyida خواستن [xāstan] sodda fe'lining formal invariant sifatida *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda ishlatiladigan barcha fe'llar – funksional ekvivalentlardan har birining o'rnida ishlatish mumkinligiga ayrim misollar keltiramiz:

№	<i>funksional ekvivalent ishtirokida</i>	<i>formal invariant ishtirokida</i>	<i>o'zbekcha tarjimasi</i>
1	درخواست کمک کرد	کمک خواست	yordam so'radi
2	خواستار برکناری او شدند	خواستند تا بر کنار شود	uning ishdan chetlatilishini talab qilishdi
3	التماس کرد تا به او آب بدهم	خواست تا به او آب بدهم	unga suv berishimni iltimos qildi
4	از خدا مسئلت	از خدا خواست	xudodan so'radi

	کرد		
--	-----	--	--

3.1.2.2. **خو استن [xāstan] sodda fe'li funksional ekvivalentlarining ma'no guruhchalaridagi invariantlari**

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, *so'ramoq, iltimos qilmoq, talab qilmoq* ma'nolarini ifodalashda **خو استن [xāstan]** sodda fe'liga funksional ekvivalent sifatida qo'llaniladigan fe'llar ular vositasida ifodalanayotgan ma'no ottenkalariga ko'ra olti ma'no guruhchasiga bo'linadi. Agar ushbu ma'no ottenkalarini o'z ichiga olgan umumiy, ya'ni invariant ma'no bo'lmish *biror ish-harakatning amalga oshirilishini so'rab murojaat qilmoq* ma'nosining mazkur funksional ekvivalentlar orasida ko'proq **خو استن [xāstan]** sodda fe'lining o'zida mujassam bo'lishi kuzatilsa, ushbu ma'no ottenkalari asosida shakllangan ma'no guruhlarining har biri o'zining alohida umumiy, ya'ni invariant ma'nosiga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

№	<i>ma'no variantlari</i>	<i>invariant ma'no</i>
1	so'ramoq (talab qilmoq, iltimos qilmoq)	biror ish-harakatning amalga oshirilishini so'rab murojaat qilmoq
2	talab qilmoq	biror ish-harakatning amalga oshirilishini qat'iyat bilan so'rab murojaat qilmoq
3	berishini talab qilmoq	biror ish-harakatning amalga oshirilishini bunga o'zining haqqi borligini ta'kidlagan holda qat'iyat bilan so'rab murojaat qilmoq
4	iltimos qilmoq	biror ish-harakatning amalga oshirilishini muloyimlik bilan so'ramoq

5	yalinib so‘ramoq	biror ish-harakatning amalga oshirilishini o‘zining chorasizligi nuqtai nazaridan astoydil so‘rab murojaat qilmoq
6	xudodan so‘ramoq	ojiz banda sifatida qodir xudodan o‘ziga yoki boshqa kishiga lutf, karam, yordam sifatida biror ish-harakatning amalga oshirilishini so‘rab murojaat qilmoq

Ushbu olti ma’no guruhidagi olti invariant ma’no esa ana shu guruhlardan har birida unga kiruvchi fe’llardan – funksional ekvivalentlardan birida mujassam bo‘ladi. Ya’ni mazkur fe’llar ushbu ma’no guruhlaridan har birida o‘z invariantiga ega bo‘ladi. Chunki, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, خواستن [xāstan] sodda fe’li hozirgi fors tilida umumiy *so‘ramoq*, *iltimos qilmoq*, *talab qilmoq* ma’nolarini ifodalashda ishlatiladigan fe’llarning barchasi uchun invariant vazifasini bajara olsa-da, ushbu fe’llar vositasida ifodalanayotgan ma’no ottenkalariga ko‘ra bo‘lingan ma’no guruhchalarining barchasida ham ma’noni ifodalovchi asosiy so‘z vazifasida kelmaydi.

So‘ramoq (*iltimos qilmoq*, *talab qilmoq*) ma’nolarini ifodalashda خواستن [xāstan] sodda fe’li funksional ekvivalentlarining ma’no guruhchalaridagi invariantlari quyidagilardan iborat:

1. *Iltimos qilmoq* ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan *so‘ramoq* ma’nosini ham, *talab qilmoq* ma’no ottenkasiga ega bo‘lgan *so‘ramoq* ma’nosini ham ifodalashda ishtirok etadigan fe’llarning barchasini umumiy qilib خواستن [xāstan] fe’li vositasida ta’riflash mumkin bo‘lib خواستن [xāstan] fe’li mazkur ma’no ottenkasini ifodalashda ushbu fe’llarning har birining o‘rnida kela oladi. Misollar:

yordam so‘radi. – درخواست کمک کرد / کمک خواست.

otpusk so‘radi. – تقاضای مرخصی نمود / مرخصی خواست.

yordam so'radi - طلب یاری کرد / یاری خواست.

2. *Talab qilmoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llarning barchasini umumiy qilib درخواست درخواست کردن [darxāst kardan] fe'li vositasida ta'riflash mumkin bo'lib, درخواست کردن [darxāst kardan] fe'li mazkur ma'no ottenkasini ifodalashda ushbu fe'llarning har birining o'rnida kela oladi. Misollar:

خواستند که حقوقشان اضافه شود / درخواست کردند که *ish haqlarining oshirilishini talab qildilar* - حقوقشان اضافه شود.

خواستار برگزاری انتخابات شدند / درخواست کردند تا *saylovlar o'tkazilishini talab qildilar* - انتخابات برگزار شود.

حضور او در اجلاس را طلب کردند / حضور او در اجلاس را *uning majlisda qatnashishini talab qildilar* - درخواست کردند.

3. *Berishini talab qilmoq* ma'no ottenkasini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llarning barchasini umumiy qilib [talab kardan] fe'li vositasida ta'riflash mumkin bo'lib, [talab kardan] fe'li mazkur ma'no ottenkasini ifodalashda ushbu fe'llarning har birining o'rnida kela oladi. Misol:

او خسارت وارده را از من مطالبه کرد / او خسارت وارده *U mendan yetkazilgan zararini qoplashni (to'lashni) talab qildi* - را از من طلب کرد.

4. *Iltilmos qilmoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llarning barchasini umumiy qilib خواهش کردن [xāheš kardan] fe'li vositasida ta'riflash mumkin bo'lib, خواهش کردن [xāheš kardan] fe'li mazkur ma'no ottenkasini ifodalashda ushbu fe'llarning har birining o'rnida kela oladi. Misol:

تمنا دارم که به مشکل ما نیز توجه کنید / خواهش می کنم *Bizning muammomizga ham e'tibor berishingizni iltimos qilaman* - که به مشکل ما نیز توجه کنید.

5. *Yalinib so'ramoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llarning barchasini umumiy qilib التماس کردن [eltemās kardan] fe'li vositasida ta'riflash mumkin bo'lib, التماس کردن [eltemās kardan] fe'li mazkur ma'no ottenkasini ifodalashda ushbu fe'llarning har birining o'rnida kela oladi. Misol:

او گریه کنان می خواست (خواهش می کرد) که آزادش کنند /
U yig'laganicha uni qo'yib yuborishlarini yalinib so'rardi.

6. *Xudodan so'ramoq* ma'no ottenkasiga ega bo'lgan *so'ramoq* ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llarning barchasini umumiy qilib خواستن [xāstan] fe'li vositasida ta'riflash mumkin bo'lib خواستن [xāstan] fe'li mazkur ma'no ottenkasini ifodalashda ushbu fe'llarning har birining o'rnida kela oladi. Misol:

از خدای مهربان مسئلت می کنم که ... / از خدای مهربان
mehribon xudodan so'raymanki ...

Eslatib o'tilgan ma'no guruhchalaridagi invariantlarni quyidagi jadval shaklida ko'rsatish ham mumkin:

	<i>ma'no guruhchalari</i>	<i>funksional ekvivalentlar</i>	<i>formal invariantlar</i>
1	<i>so'ramoq (iltimos qilmoq, talab qilmoq)</i>	خواستن درخواست کردن تقاضا کردن خواستار شدن خواهان شدن طلب کردن طلبیدن استعلام کردن استدعا کردن	خواستن

		تعارف کردن دعا کردن تمنا کردن	
2	<i>talab qilmoq</i>	درخواست کردن تقاضا کردن خواستار شدن خواهان شدن طلب کردن طلبیدن استعلام کردن استدعا کردن مطالبه کردن خواستن خواهنده شدن طالب شدن	درخواست کردن
3	<i>berishini talab qilmoq</i>	مطالبه کردن طلب کردن درخواست کردن خواستن	طلب کردن
4	<i>iltimos qilmoq</i>	خواهش کردن خواهشمند بودن التماس کردن تمنا داشتن درخواست کردن تقاضا کردن خواستار شدن خواستن خواهان شدن	خواهش کردن

		طلب کردن	
5	<i>yalinib so'ramoq</i>	التماس کردن خواهش کردن تمنا داشتن خواستن	التماس کردن
6	<i>xudodan so'ramoq</i>	دعا کردن مسئلت کردن خواستن	خواستن

3.2. Fors tilida prefiksli fe'llarning formal invariantlari (برد داشتن [bar-dāštan] fe'li misolida)

3.2.1. برد داشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining funksional ekvivalentlari

3.2.1.1. برد داشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining turli ma'nolari va ma'no guruhlarida funksional ekvivalentlik munosabati

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, prefiksli fe'llar fors tilidagi fe'llar orasida eng kam sonlisi bo'lib ularning fors tili fe'l tizimidagi variantlashuv, jumladan, leksik-semantik variantlashuv va funksional ekvivalentlik hodisasidagi o'rni ham sodda va qo'shma fe'llar darajasida emas. Biroq fors tilidagi prefiksli fe'llar fe'llar orasida o'zining ko'pma'noliligi, ya'ni ko'plab leksik-semantik variantlarga ega ekanligi bilan ajralib turadigan fe'llar ham yo'q emas. Leksik-semantik variantlilik esa, yuqorida aytilganidek, funksional ekvivalentlik bilan bo'g'liq tushuncha bo'lib ko'pma'noli so'z o'zining leksik-semantik variantlarining har birida boshqa so'zlar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishadi. Ya'ni so'zda qanchalik ko'p leksik-semantik variant bo'lsa, unda boshqa so'zlar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishish imkoniyatlari shunchalik katta bo'ladi.

Fors tilidagi shunday xususiyatlarga ega bo'lgan prefiksli fe'llardan biri sifatida برد داشتن [bar-dāštan] fe'lini eslatish mumkin.

برد داشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'li ko'pma'noli fe'llardan hisoblanib Y.A. Rubinchik tahriri ostidagi "Forscha-ruscha" ikki tillik lug'atida²²¹ ushbu so'zning quyidagi besh ma'nosi keltirilgan: 1) ko'tarmoq; 2) yechmoq (*bosh kiyimni*); 3) birga olib kelmoq; 4) yig'ib-terib olmoq (*hosilni*); 5) *qo'shma fe'llar komponenti*: برد داشتن qo'l tortmoq, qilishdan to'xtamoq; برد داشتن chora ko'rmoq.

Hasan Anvariyning "Farhang-e bo'zo'rg-e So'xan" izohli lug'atida²²² esa برد داشتن [bar-dāštan] ning yigirma ikkita (jumladan, sakkizta arxaik) ma'nosi keltirilgan bo'lib, ulardan hozirgi fors tilida ishlatilayotganlari quyidagilardan iborat:

1) olmoq (*joyidan*), ko'tarib olmoq; 2) ko'tarmoq (*yuqoriga*), olmoq (*biror narsaning ustidan*); 3) o'ziga olmoq, o'ziniki qilib olmoq; 4) vujudga keltirmoq, hosil qilmoq, paydo qilmoq (*yoriq va sh.k.*); 5) ko'chirib olmoq, yozib olmoq, olmoq, tushirmoq (*nusxa, surat va sh.k.*); 6) qoplab olmoq, bosib ketmoq (*suv, ovoz va sh.k.*); 7) yig'ib-termoq, yig'ib-terib olmoq (*hosilni*); 8) olmoq, sotib olmoq; 9) birga olib olmoq, birga olib chiqmoq, birga olib yurmoq, birga olib ketmoq; 10) chidamoq, chidash bermoq; 11) o'rtadan olib tashlamoq, yo'qotmoq, yo'q qilmoq; 12) o'g'irlamoq, urib ketmoq; 13) olib tashlamoq, uzib (*kesib, ajratib*) olmoq (*tana a'zosi va sh.k.*); 14) chetga surmoq, chetga surib qo'ymoq, ochmoq (*parda va sh.k.ni*).

Y.A. Rubinchik tahriri ostidagi "Forscha-ruscha" ikki tillik lug'atida برد داشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining eng asosiy ma'nolarigina berilib, uning boshqa o'rinlarda ishlatiladigan ma'nolari aks ettirilmaganligi Hasan Anvariyning "Farhang-e bo'zo'rg-e So'xan"i ham ushbu so'zning barcha ma'nolarini qamrab ololmaganligidan kelib chiqib برد داشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining hozirgi

²²¹ Персидско-русский словарь: в 2-х томах, под редакцией Ю.А. Рубинчика, 3-издание, I-том. – Москва: Русский язык, 1985. – С.198.

²²² انوری، حسن، فرهنگ بزرگ سخن / به سرپرستی حسن انوری، تهران، سخن، 1381 – ج. 8. ص. 904-905.

fors tilida turli o‘rinlarda qo‘llaniladigan ma’nolarini quyidagi tarkibda aks ettirishga qaror qildik:

1) (joyidan) olmoq, (joyidan ko‘tarib) olmoq, (qo‘liga) olmoq; 2) ko‘tarmoq, ko‘tarib turmoq, ko‘tarib yurmoq; 3) (yuqoriga) ko‘tarmoq (*bosh, qo‘l va sh.k.ni*); 4) (ustidan) olmoq, olib (boshqa joyga) qo‘ymoq; 5) o‘ziga olmoq, o‘ziniki qilib olmoq, egallab olmoq; 6) vujudga keltirmoq, hosil qilmoq, paydo qilmoq (*yoriq va sh.k.*); 7) ko‘chirib olmoq, yozib olmoq, olmoq, tushirmoq (*nusxa, surat va sh.k.*); 8) qoplab olmoq, bosib ketmoq, bosmoq, tutmoq (*suv, ovoz va sh.k.*); 9) o‘rmoq, termok, uzmoq, yig‘ib-termok, yig‘ib-terib olmoq (*hosilni*); 10) olmoq, sotib olmoq; 11) birga olib olmoq, birga olib kelmoq (ketmoq, bormoq); 12) chidamoq, chidash bermoq, ko‘tarmoq (*qiyinchilik, g‘am va sh.k.ni*); 13) o‘rtadan olib tashlamoq, yo‘qotmoq, yo‘q qilmoq; 14) o‘g‘irlamoq, o‘g‘irlab olmoq, o‘g‘irlab ketmoq, urib ketmoq; 15) olib tashlamoq, uzib (kesib, ajratib) olmoq (*tana a‘zosi va sh.k.*); 16) chetga surmoq, chetga surib qo‘ymoq, ochmoq (*parda va sh.k.ni*); 17) olib qo‘ymoq, boshqa joyga qo‘ymoq (*biror joydan biror narsani*); 18) (boshidan) olmoq, yechmoq (*bosh kiyim, hijob va sh.k.ni*).

Ko‘rib chiqqanimizdek, برد داشتن [bar-dāštan] prefiksli fe’li turli o‘rinlarda qo‘llaniladigan o‘n sakkiz ma’noga, ya’ni o‘n sakkiz leksik-semantik variantga ega bo‘lib, ushbu fe’lning har bir leksik-semantik variantidagi funksional ekvivalentlik munosabatlari bilan yaxshiroq tanishish uchun ushbu ma’nolar – leksik-semantik variantlarni quyidagi ma’no guruhlariga bo‘lamiz:

1. Olish ma’no guruhi:

- 1) (joyidan) olmoq, (joyidan ko‘tarib) olmoq, (qo‘liga) olmoq;
- 2) o‘ziga olmoq, o‘ziniki qilib olmoq, egallab olmoq;
- 3) olmoq, sotib olmoq;
- 4) o‘rmoq, termok, uzmoq, yig‘ib-termok, yig‘ib-terib olmoq (*hosilni*);
- 5) birga olib olmoq, birga olib kelmoq (ketmoq, bormoq);
- 6) ko‘chirib olmoq, yozib olmoq, olmoq, tushirmoq (*nusxa, surat va sh.k.*);

7) o'g'irlamoq, o'g'irlab olmoq, o'g'irlab ketmoq, urib ketmoq.

2. Ko'tarish ma'no guruhi:

1) ko'tarmoq, ko'tarib turmoq, ko'tarib yurmoq;

2) (yuqoriga) ko'tarmoq (*bosh, qo'l va sh.k.ni*).

3. Olib tashlash ma'no guruhi:

1) (ustidan) olmoq, olib (boshqa joyga) qo'ymoq;

2) olib qo'ymoq, boshqa joyga qo'ymoq (*biror joydan biror narsani*);

3) chetga surmoq, chetga surib qo'ymoq, ochmoq (*parda va sh.k.ni*);

4) (boshidan) olmoq, yechmoq (*bosh kiyim, hijob va sh.k.ni*).

5) olib tashlamoq, uzib (kesib, ajratib) olmoq (*tana a'zosi va sh.k.*);

6) o'rtadan olib tashlamoq, yo'qotmoq, yo'q qilmoq.

4. Biror holatga solish ma'no guruhi:

1) vujudga keltirmoq, hosil qilmoq, paydo qilmoq (*yoriq va sh.k.*);

2) qoplab olmoq, bosib ketmoq, bosmoq, tutmoq (*suv, ovoz va sh.k.*).

Quyida funksional ekvivalentlarini ular anglatadigan barcha ma'nolar va ma'no guruhlari asosida o'rganishning birinchi bosqichida برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining o'zi anglatadigan barcha ma'nolar va ma'no guruhlariidagi funksional ekvivalentlarini umumiy tarzda ko'rib chiqamiz.

Fors tilidagi ko'pma'noli so'zlardan bo'lgan برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'li o'zi anglanadigan ma'nolar va ma'no guruhlariida quyidagi fe'llar bilan funksional ekvivalentlik munosabatida bo'ladi:

1. Olish ma'no guruhi:

1) (joyidan) olmoq, (joyidan ko'tarib) olmoq, (qo'liga) olmoq; misol:

کیف را برداشتم و به سمت کلیسا راه افتادم.²²³

Sumkani oldim-u cherkov tomon yo'lga tushdim.

Funksional ekvivalentlari:

²²³ حبیب احمدزاده. شطرنج با ماشین قیامت. رمان. تهران. شرکت انتشارات سوره مهر. 1387. ص 29.

گرفتن، به (در) دست گرفتن، برگرفتن، بلند کردن.

2) o'ziga olmoq, o'ziniki qilib olmoq, egallab olmoq; misol:

جنس های خوب را خودش برداشت و بقیه را تقسیم کرد.

Yaxshi mollarni o'ziga oldi va qolganlarini bo'lib berdi.

Funksional ekvivalentlari:

تصاحب کردن، صاحب شدن، مال خود کردن، از آن خود کردن.

3) olmoq, sotib olmoq; misol:

دکاندار آن را کمتر از نرخ روز بر می داشت²²⁴.

Do 'kondor uni shu kunning narxidan kamroq bahoga sotib olardi.

Funksional ekvivalentlari:

خریدن، خریداری کردن، گرفتن.

4) o'rmoq, termiq, uzmoq, yig'ib-termiq, yig'ib-terib olmoq (*hosilni*); misol:

کشاورزان محصول را برداشتند.

Dehqonlar hosilni yig'ib-terib oldilar.

Funksional ekvivalentlari:

جمع کردن، جمع آوری کردن، چیدن.

5) birga olib olmoq, birga olib kelmoq (*ketmoq, bormoq*); misol:

مادرت را بردار و بیا.

Onangni olgin-da kel / Onangni birga olib kel.

Funksional ekvivalentlari:

با خود همراه کردن، همراه آوردن، همراه بردن.

6) ko'chirib olmoq, yozib olmoq, olmoq, tushirmoq (*nusxa, surat va sh.k.*);

misol:

U meni suratga oldi (tushirdi);

Kitobdan nusxa ko'chirdi;

Darsdan konspekt ko'chirdim.

محمدعلی اسلامی ندوشن. روزها (سرگذشت). تهران. یزدان. 1363. ج. 1. ص 25. ²²⁴

Funksional ekvivalentlari: انداختن, گرفتن.

7) o'g'irlamoq, o'g'irlab olmoq, o'g'irlab ketmoq, urib ketmoq; misol:

کیفم را در اتوبوس برداشتند.

Sumkamni avtobusda o'g'irlab ketishdi.

Funksional ekvivalentlari:

دزدیدن, به سرقت بردن, ربودن, بردن, برگرفتن, گرفتن,

قاچیدن.

2. Ko'tarish ma'no guruhi:

1) ko'tarmoq, ko'tarib turmoq, ko'tarib yurmoq; misol:

کیسه پر از سیب را برداشته به بازار رفت.

Olma to'la qopni ko'tarib, bozorga bordi.

Funksional ekvivalentlari:

گرفتن, برگرفتن, حمل کردن.

2) (yuqoriga) ko'tarmoq (*bosh, qo'l va sh.k.ni*); misol:

Boshini ko'tardi. - سرش را برداشت.

Funksional ekvivalentlari: بلند کردن, بالا کردن

3. Olib tashlash ma'no guruhi:

1) (ustidan) olmoq, olib (boshqa joyga) qo'ymoq; misol:

پایت را از روی دستم بردار.

Oyog'ingni qo'limning ustidan ol.

Funksional ekvivalentlari: بردن, گرفتن.

2) olib qo'ymoq, boshqa joyga qo'ymoq (*biror joydan biror narsani*); misol:

کتاب را از روی میز برداشت.

Kitobni stol ustidan olib qo'ydi.

Funksional ekvivalentlari:

جابجا کردن, نقل مکان کردن, گرفتن.

3) chetga surmoq, chetga surib qo'ymoq, ochmoq (*parda va sh.k.ni*); misol:

پرده پنجره را برداشت.

Deraza pardasini chetga surib qo'ydi.

Funksional ekvivalentlari:

کنار زدن، کنار کشیدن، باز کردن.

4) (boshidan) olmoq, yechmoq (*bosh kiyim, hijob va sh.k.ni*); misol:

Yuzidan hijobni oldi (ko'tardi). - حجاب را از رویش برداشت

Funksional ekvivalentlari:

کنار زدن، کنار کشیدن، باز کردن، گرفتن، کندن.

5) olib tashlamoq, uzib (kesib, ajratib) olmoq (*tana a'zosi va sh.k.*); misol:

Uning oshqozonini olib tashlashdi. - معده او را برداشتند

Funksional ekvivalentlari:

بریدن، قطع کردن، جدا کردن، گرفتن.

6) o'rtadan olib tashlamoq, yo'qotmoq, yo'q qilmoq; misol:

عرق، قفل تیق را هم از کلامش برداشت²²⁵.

Ter uning tilidagi duduqlikni ham yo'qotdi;

همه رقبای خود را که در راهش داشت برداشت.

Yo'lidagi raqiblarining hammasini yo'q qildi.

Funksional ekvivalentlari:

از بین بردن، زایل کردن، نابود کردن، حذف کردن، برگرفتن.

4. Biror holatga solish ma'no guruhi:

1) vujudga keltirmoq, hosil qilmoq, paydo qilmoq (*yoriq va sh.k.*); misol:

شیشه پنجره ترک برداشت.

Derazaning oynasida darz paydo bo'ldi;

بر اثر زلزله زمین شکاف برداشت.

Zilzila natijasida yerda yoriq paydo bo'ldi.

Funksional ekvivalentlari:

ایجاد کردن، به وجود آوردن، حاصل کردن.

2) qoplab olmoq, bosib ketmoq, bosmoq, tutmoq (*suv, ovoz va sh.k.*); misol:

محمدعلی جمال زاده. هفت قصه. تهران. پروین. 1321. ص 198.²²⁵

شیر را باز گذاشتند، آب همه جا را برداشت.

Kranni ochiq qo'yishibdi, hamma joyni suv bosdi;

صدای داد و فریاد ... دواخانه را برداشته بود²²⁶.

Dod-faryod ovozi dorixonani tutgandi.

فunktional ekvivalentlari: گرفتن, فرارگرفتن.

Ko'rib chiqqanimizdek, برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'li o'zining to'rt ma'no guruhidagi o'n sakkizta ma'no qatorida qirq beshdan ortiq so'z bilan funktsional ekvivalentlik munosabatiga kirishadi.

3.2.1.2. برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining ma'nolaridan birida funktsional ekvivalentlik munosabati

Dissertatsiyamizning ushbu qismida برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining o'zi anglatadigan ma'nolaridan biridagi funktsional ekvivalentlarini ko'rib chiqamiz. Ya'ni biz برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining u anglatadigan ma'nolarning birinchi – **“olish” ma'no guruhiga** tegishli bo'lgan (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nosidagi funktsional ekvivalentlari to'g'risida batafsilroq so'z yuritamiz.

3.2.1.2.1. برداشتن [bar-dāštan] fe'lining funktsional ekvivalentlari va ularning yasalishi

Hozirgi fors tilida turli o'rinlarda برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'li anglatadigan (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nolarini ifodalashda ushbu fe'lga funktsional ekvivalent sifatida eng ko'p qo'llaniladigan quyidagi fe'llarni aniqladik:

[gereftan] گرفتن, [be (dar) dast gereftan] به (در) دست گرفتن, [boland kardan] بلند کردن, [bar-gereftan] برگرفتن.

جمال میرصادقی. منتخب داستان ها. تهران. توس. 1351. ص 42.²²⁶

Ko‘rib o‘tganimizdek, hozirgi fors tilida (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko‘tarib*) *olmoq*, (*qo‘liga*) *olmoq* ma‘nolarini ifodalashda [bar-dāštan] fe‘lining funksional ekvivalentlari vazifasini bajarib keluvchi fe‘llar asosan گرفتن fe‘li hamda ushbu fe‘l ishtirokida yasalgan prefiksli va qo‘shma fe‘llar, shuningdek, کردن qo‘shma fe‘lidan iborat.

3.2.1.2.2. برد داشتن [bar-dāštan] fe‘lining funksional ekvivalentlarining qo‘llanilish o‘rinlari

Hozirgi fors tilida mavjud bo‘lgan fe‘llar orasida o‘zining muhim ish-harakat va jarayonlarni ifodalashdagi faol ishtiroki bilan alohida o‘rin tutadigan برد داشتن [bar-dāštan] prefiksli fe‘li anglatadigan (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko‘tarib*) *olmoq*, (*qo‘liga*) *olmoq* ma‘nolarini ifodalashda ushbu fe‘lga funksional ekvivalent sifatida qo‘llaniladigan fe‘llarning quyidagi ishlatilish o‘rinlarini aniqladik (ishlatilish darajalari asosidagi ketma-ketlik tartibida):

گرفتَن [gereftan] fe‘li (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko‘tarib*) *olmoq*, (*qo‘liga*) *olmoq* ma‘nolarini ifodalashda برد داشتن [bar-dāštan] prefiksli fe‘lining eng faol funksional ekvivalenti bo‘lib, ushbu ma‘noni ifodalash lozim bo‘lgan barcha o‘rinlarda ishlatiladi. Misollar:

معصومه... دلش می خواست بقچه مادر را باز کند، چادر را از سرش بگیرد و به او بگوید که می تواند همیشه در این خانه بماند.²²⁷

Ma’suma ... onasining tugunini ochgisi, boshidan chodirni olgisi va unga bir umrga mana shu uyda qolishi mumkinligini aytgisi kelardi.

حتی برای گرفتن اسکناس هم تکانی به خود نداد.²²⁸

Hatto pulni (yerdan) olish uchun ham qimirlab qo‘ymadi.

حاتمی. شکوفایی داستان کوتاه در دهه نخستین انقلاب (مجموعه داستان ها). تهران. 227
علمی و فرهنگی. 1372. ص 187.
جلال آل احمد. سه تار. تهران. انتشارات فردوس. چاپ دوم. 1374. ص 50.²²⁸

[be (dar) dast gereftan] fe'li (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nosini ifodalashda [bar-dāštan] prefiksli fe'lining funksional ekvivalenti sifatida qo'llaniladigan fe'llardan biri bo'lib, *biror narsani biror joydan aynan qo'l bilan olmoq* ma'no ottenkasini ifodalashda qo'llaniladi. Misol:

ولی مگر تفنگ را حتماً برای آدم کشی به دست باید گرفت²²⁹؟

Nahotki *multiqni albatta odam o'ldirish uchun (qo'liga) olish kerak bo'lsa?*

[bar-gereftan] fe'li (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nosini ifodalashda [bar-dāštan] prefiksli fe'lining funksional ekvivalenti sifatida qo'llaniladigan fe'llardan biri bo'lib, asosan *biror og'irroq yoki yirikroq narsani yerdan yoki quyidan yuqoriga olmoq* ma'no ottenkasini ifodalashda ishlatiladi. Misollar:

ظرفی نداریم که با آن آب برگیرم²³⁰.

Biror bir idishim yo'qki u bilan suv olsam.

سنگ بزرگی که بر سر چاه بود که زور چهل مرد می خواست تا آن را برگیرد²³¹.

Chohning og'zida turgan ulkan toshni ko'tarib olish uchun qirq erkakning kuchi kerak edi.

[boland kardan] fe'li ham (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nosini ifodalashda [bar-dāštan] prefiksli fe'lining funksional ekvivalenti sifatida qo'llaniladigan fe'llardan biri bo'lib, asosan *biror narsani joyidan ko'tarib olmoq* ma'no ottenkasini ifodalashda ishlatiladi. Misollar:

²²⁹ جلال آل احمد. سه تار. تهران. انتشارات فردوس. چاپ دوم. 1374. ص 122.

²³⁰ صادق هدایت. مازیار. تهران، امیر کبیر، 1333. ص 56.

²³¹ محمدعلی اسلامی ندوشن. روزها (سرگذشت). تهران. یزدان. 1363. ج. 1. ص 315.

قهرمان وزنه برداری وزنه را بلند کرد و به پیروزی رسید²³².

Og'ir atletika bo'yicha chempion shtangani ko'tardi va g'alabaga erishdi.

Ko'rib o'tganimizdek, fors tilidagi برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'li (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nolarini ifodalashda to'rt fe'l bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishadi. Ya'ni ushbu fe'llarning barchasi umumiy (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nolarini ifodalashda برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'li bilan o'rin almashib kela oladi.

3.2.2. برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining formal invariantlari

برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining funksional ekvivalentlarining umumiy invariantini aniqlashimiz uchun avval ushbu funksional ekvivalentlarni birlashtirib turadigan yagona invariant ma'noni aniqlaymiz.

(*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nolarini ifodalashda برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining barcha ma'no guruhlaridagi funksional ekvivalentlari hamda ma'no guruhlaridan biridagi funksional ekvivalentlari to'g'risidagi mulohazalarimizdan kelib chiqqan holda ushbu fe'l funksional ekvivalentlarining invariantini quyidagicha aniqladik.

Yuqorida ko'rib o'tdikki, (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nolarini ifodalashda برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lga funksional ekvivalent bo'lib kelayotgan fe'llar quyidagi ma'no ottenkalarini ifodalaydi:

1) *joyidan olmoq*; 2) *qo'l bilan olmoq*; 3) *ko'tarib olmoq*; 4) *yerdan (quyidan) yuqoriga olmoq*.

Umumiy *olmoq* ma'nosi orqali bir-biriga bog'lanib turadigan *ko'tarib olmoq* ma'nosining turli darajalaridagi ma'no ottenkalarini o'z ichiga olgan umumiy

انوری، حسن، فرهنگ بزرگ سخن/ به سرپرستی حسن انوری، تهران، سخن، 1381 - 8 ج. جلد 232.
2. ص 1016.

ma'noni quyidagicha ta'riflash mumkin bo'ladi: *biror narsani qo'l bilan quyidan yuqoriga ko'tarib olmoq*.

Ushbu xulosamizni quyidagi jadval ko'rinishida ifodalash mumkin:

№	<i>ma'no variantlari</i>	<i>invariant ma'no</i>
1	joyidan olmoq	biror narsani qo'l bilan quyidan yuqoriga ko'tarib olmoq
2	qo'l bilan olmoq	
3	ko'tarib olmoq	
4	yerdan (quyidan) yuqoriga olmoq	

برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining funksional ekvivalentlarining qo'llanilish o'rinlari xususida yuqorida keltirgan misollar shuni ko'rsatadiki, برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nolarini ifodalashdagi funksional ekvivalentlari tomonidan ifodalanadigan barcha ma'no ottenkalarini o'z ichiga olgan umumiy, ya'ni invariant ma'no bo'lmish *biror narsani qo'l bilan quyidan yuqoriga ko'tarib olmoq* ma'nosi mazkur funksional ekvivalentlar orasida ko'proq برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining o'zida mujassam bo'ladi.

Biz quyidagilarga asoslangan holda برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'li (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nolarini ifodalaydigan fe'llarning formal invarianti bo'la oladi deymiz:

Birinchidan, برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'li (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nolarini ifodalashda به (در) دست ,گرفتن ,گرفتن ,برگرفتن ,بلند کردن fe'llari bilan o'zaro funksional ekvivalentlik munosabatida bo'ladi. Ya'ni bu o'rinda برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'li ham ushbu funksional ekvivalentlardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nolarini ifodalab kelayotgan گرفتن, دست گرفتن, به (در) برگرفتن, برداشتن [bar-dāštan] fe'li vositasida ta'riflash mumkin.

Uchinchidan, برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lini umumiy (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nolarini ifodalashda gap ma'nosini o'zgartirmagan holda uning funksional ekvivalentlari vazifasini bajarib keladigan گرفتن, دست گرفتن, به (در) برگرفتن, برداشتن fe'llaridan har birining o'rnida ishlatish mumkin. Holbuki ushbu fe'llardan boshqa birortasini mazkur fe'llardan har birining o'rnida ishlatib bo'lmaydi.

Quyida برداشتن [bar-dāštan] prefiksli fe'lining formal invarianti sifatida (*joyidan*) *olmoq*, (*joyidan ko'tarib*) *olmoq*, (*qo'liga*) *olmoq* ma'nolarini ifodalashda ishlatiladigan barcha fe'llar – funksional ekvivalentlardan har birining o'rnida ishlatish mumkinligiga ayrim misollar keltiramiz:

№	<i>funksional ekvivalent ishtirokida</i>	<i>formal invariant ishtrokida</i>	<i>o'zbekcha tarjimasi</i>
1	کیفم را گرفتم و رفتم	کیفم را برداشتم و رفتم	Sumkamni oldim-u ketdim
2	وزنه را بلند کرد	وزنه را برداشت	shtanga ko'tardi
3	از چاه آب برگرفت	از چاه آب برداشت	quduqdan suv oldi
4	اسلحه به دست گرفت	اسلحه برداشت	(qo'liga) qurol oldi

3.3. Fors tilida qo'shma fe'llarning formal invariantlari (بررسی کردن [barresi kardan] fe'li misolida)

3.3.1. بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining funksional ekvivalentlari

3.3.1.1. بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining turli ma'nolari va ma'no guruhlarida funksional ekvivalentlik munosabati

Yuqorida eslatib o'tganimizdek, fors tilida qo'shma fe'llarning qo'llanilish miqyosi juda keng bo'lib hozirgi fors tilida tuzilishiga ko'ra turlarga bo'linadigan fe'l turlari orasida eng ko'p sonlisi ham qo'shma fe'llardir. Fors tilida qo'shma fe'llarning son jihatdan sodda va prefiksli fe'llardan anchagina ustunligini ta'minlaydigan omillardan biri sifatida esa ushbu tilda sodda va prefiksli fe'llardan farqli o'laroq yangidan yangi qo'shma fe'llarning yasalishi davom etayotganligini ko'rsatish mumkin. Bizning nazarimizda bu holat qo'shma fe'llarning tilning turli sathlaridagi variantlashuv hodisasida, jumladan, ko'pma'nolik bilan bog'liq bo'lgan leksik-semantik variantlashuv hamda bir ma'noning turli o'rinlarda turli so'zlar va so'z birikmalari vositasida ifodalanishi bilan bog'liq bo'lgan funksional ekvivalentlik hodisalaridagi ishtirokini ta'minlovchi omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Biroq fors tilidagi qo'shma fe'llarning sodda fe'llarga qaraganda leksik-semantik variantlashuvda nisbatan kamroq, funksional ekvivalentlikda esa nisbatan ko'proq ishtirokini kuzatish mumkin. Zero yuqorida aytib o'tganimizdek, birinchi tomondan tilda oldindan mavjud bo'lgan sodda fe'llarning sinonimlari yoki funksional ekvivalentlari sifatida, shuningdek, fors tiliga chet tillardan, birinchi navbatda arab tilidan o'zlashgan so'zlar ishtirokida fe'l yasash natijasida hosil bo'lgan qo'shma fe'llarning katta qismini asosiy ma'nodan tashqari yana bir-ikki ko'chma ma'noga ega bo'lishi ularning leksik-semantik variantlashuvdagi ishtirokini ma'lum darajada cheklasa, ikkinchi tomondan, qo'shma fe'llar sonining

ko'pligi ularning ko'pgina fe'llar bilan funksional ekvivalentlik munosabatga kirishishiga sabab bo'ladi.

Biroq fors tilidagi qo'shma fe'llarning barchasini ham ko'pma'nolilikdan mahrum deb bo'lmaydi. Ular orasida ko'pma'noli fe'llar ham uchraydi. Shulardan biri بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'li bo'lib, fors tilida qo'shma fe'llarning formal invariantlarini ana shu fe'l misolida ko'rib chiqamiz.

بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'li hozirgi fors tilidagi ko'pma'noli qo'shma fe'llardan biri bo'lib, uning turli o'rinlarda o'ndan ortiq ma'noni ifodalab kelishi kuzatiladi. Biroq fors tilining tarjima va izohli lug'atlarida ushbu fe'l ifodalaydigan barcha ma'nolar aks ettirilmaganligini ko'ramiz. Jumladan, H. Anvariyning "Farhang-e bo'zo'rg-e So'xan" izohli lug'atida²³³ بررسی کردن [barresi kardan] fe'li bor-yo'g'i bir ma'noga ega bo'lgan fe'l sifatida ta'riflanib, uning faqatgina *tekshirmoq*, *tekshirib ko'rmoq* ma'nosini bildirishi ko'rsatib o'tilgan. Y.A. Rubinchik tahriri ostidagi "Forscha-ruscha lug'at"ida²³⁴ esa ushbu fe'lni faqatgina bir ma'noga ega bo'lgan so'z sifatida ta'riflanishi bilan birgalikda uning bir ma'no doirasidagi besh ma'no ottenkasi keltirilgan: 1) o'rganmoq, tadqiq qilmoq; 2) tekshirmoq; 3) ... deb qaramoq, ... sifatida qabul qilmoq (baholamoq); 4) sharhlamoq.

Shunga qaramasdan hozirgi fors adabiy va so'zlashuv tilida anchagina faol ishlatiladigan بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining ko'pma'noli so'zlardan biri sifatida bir qancha ma'noni ifodalashda qo'llanilishini kuzatish mumkin. Biz o'z kuzatishlarimiz davomida بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining quyidagi ma'nolarini aniqladik:

1) tekshirmoq, tekshirib chiqmoq; 2) tekshirib ko'rmoq, sinab ko'rmoq, aniqlamoq, bilmoq; 3) qarab (ko'rib) chiqmoq, nazardan o'tkazmoq; 4) ko'rib

²³³ انوری، حسن، فرهنگ بزرگ سخن/ به سرپرستی حسن انوری، تهران، سخن، 1381 - ج. 8، ص. 908.

²³⁴ Персидско-русский словарь: в 2-х томах, под редакцией Ю.А. Рубинчика, 3-издание, I-том. - Москва: Русский язык, 1985. - С.199.

chiqmoq, o'rganib chiqmoq (*ariza, shikoyat, taklif, loyiha va sh.k.ni*); 5) o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; 6) maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq; 7) muhokama qilmoq; 8) o'rganmoq, tadqiq qilmoq; 9) tahlil qilmoq; 10) sharhlamoq, izohlamok; 11) ... deb qaramoq, ... deb hisoblamoq, ... deb bilmoq, ... sifatida qabul qilmoq, ... sifatida baholamoq; 12) qat'iy fikr bildirmoq, hukm qilmoq, hukm chiqarmoq; 13) solishtirmoq, taqqoslamok; 14) har tomonlama tekshirib ko'rmoq, (kimligini, nimaligini) aniqlamoq; 15) so'rab-surishtirmoq, surishtirmoq; 16) shug'ullanmoq (*biror masala bilan*).

Biz bu yerda بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining turli o'rinlarda qo'llaniladigan o'n olti ma'noga, ya'ni o'n olti leksik-semantik variantga ega ekanligini ko'rdik. Endi ushbu fe'l o'zining har bir ma'nosi – leksik-semantik variantida qaysi fe'llar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishishini bilish uchun ushbu ma'nolarni shartli ravishda quyidagi ma'no guruhlariga bo'lamiz:

1. Ko'rib chiqish ma'no guruhi: 1) ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; 2) muhokama qilmoq; 3) o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; 4) maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq.

2. Tekshirish ma'no guruhi: 1) tekshirmoq, tekshirib chiqmoq; 2) tekshirib ko'rmoq, aniqlamoq, bilmoq (*qandayligini*); 3) qarab (ko'rib) chiqmoq, nazardan o'tkazmoq; 3) har tomonlama tekshirib ko'rmoq, aniqlamoq (*kimligini, nimaligini*).

3. Tadqiq qilish ma'no guruhi: 1) o'rganmoq, tadqiq qilmoq; 2) tahlil qilmoq; 3) solishtirmoq, taqqoslamok.

4. Fikr bildirish ma'no guruhi: 1) sharhlamoq, izohlamok; 2) ... deb qaramoq, ... deb hisoblamoq, ... deb bilmoq, ... sifatida qabul qilmoq, ... sifatida baholamoq; 3) qat'iy fikr bildirmoq, hukm qilmoq, hukm chiqarmoq.

5. Shug'ullanish ma'no guruhi: 1) so'rab-surishtirmoq, surishtirmoq; 2) shug'ullanmoq (*biror masala bilan*).

barresi kardan] qo'shma fe'li o'zi anglanadigan ushbu ma'nolar va ma'no guruhlarida quyidagi fe'llar bilan funksional ekvivalentlik munosabatida bo'ladi:

1. Ko'rib chiqish ma'no guruhi:

1) ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq (*ariza, shikoyat, taklif, loyiha va sh.k.ni*); misol:

هیات نظارت بر مطبوعات پرونده روزنامه آسمان را بررسی کرد²³⁵.

Matbuot ustidan nazorat qilish komissiyasi "Osmon" gazetasi ishini ko'rib chiqdi.

وزیر کشور که به شهرستان شیروان سفر کرده است با حضور در فرمانداری مشکلات مردم و همچنین این شهرستان را بررسی کرد²³⁶.

Shirvon tumaniga tashrif buyurgan ichki ishlar vaziri tuman hokimiyatida bo'lib, aholi hamda ushbu tumanning muammolarini o'rganib chiqdi.

کمیسیون مجلس شورای اسلامی پرونده فساد مدارس را بررسی می کند²³⁷.

Islom Kengashi Majlisi komissiyasi maktablardagi korrupsiya ishini ko'rib chiqadi.

Funksional ekvivalentlari:

مورد بررسی قرار دادن، رسیدگی کردن، ملاحظه کردن، نگاه کردن، دیدن.

2) muhokama qilmoq; misol:

مرکز پژوهش‌های مجلس حاکمیت قانون و محیط کسب و کار را بررسی کرد²³⁸.

²³⁵ www.magiran.com//5588 تاریخ خبر: 1392/12/5، شماره خبر: 5588

²³⁶ www.farsnews.com//000315 تاریخ خبر: 1393/1/3، شماره خبر: 000315

²³⁷ www.entekhab.ir تاریخ انتشار: ۱۵۲۹۸۳، تاریخ انتشار: ۲۹ اسفند ۱۳۹۲ - ۱۴:۰۲//

Parlament qoshidagi Tadqiqotlar markazi (o‘zining yig‘ilishida) qonun ustunligi va tadbirkorlik muhiti masalasini muhokama qildi.

شورای امنیت رفراندوم در کریمه را بررسی می کند²³⁹.

(BMT) Xavfsizlik kengashi Qrimda o‘tkazilgan referendumni muhokama qiladi.

Funksional ekvivalentlari:

مورد بررسی قرار دادن، بحث کردن، مورد بحث قرار دادن،
مورد بحث و بررسی قرار دادن.

3) o‘ylab ko‘rmoq, o‘rganib ko‘rmoq; Misol:

واشنگتن درخواست اوکراین درمورد کمک نظامی به این کشور
را بررسی خواهد کرد²⁴⁰.

Vashington Ukrainaning ushbu mamlakatga harbiy yordam so‘rab qilgan murojaatini o‘rganib ko‘radi.

طالبان پاکستانی پیشنهاد صلح نوازشریف را بررسی
می کنند²⁴¹.

“Tolibon” Navoz Sharifning sulh tuzish to‘g‘risidagi taklifini o‘rganib
ko‘radi.

معاون وزیر امور خارجه گفت: ایران پیوستن به پروتکل
الحاقی آژانس بین المللی انرژی اتمی را بررسی خواهد کرد²⁴².

Tashqi ishlar vaziri o‘rinbosari dedi: Eron Xalqaro atom energiyasi agentligi (MAGATE) qo‘shimcha protokoliga qo‘shilish masalasini o‘rganib ko‘radi.

نوری کاپیتان تیم فوتبال پرسپولیس گفت: پیشنهاد
شرقی ها را بررسی می کنم²⁴³.

²³⁸ باشگاه خبرنگاران، تاریخ خبر: 1392/12/25، شماره خبر: www.yjc.ir//4779545

²³⁹ جامعه خبری تحلیلی الف. کد مطلب: 219768، تاریخ انتشار: شنبه ۲۴ اسفند ۱۳۹۲ ساعت ۱۹:۲۳
www.alef.ir

²⁴⁰ باشگاه خبرنگاران//کد خبر: ۴۷۸۵۲۲۳، تاریخ انتشار: ۰۱ فروردین ۱۳۹۳ - www.yjc.ir - ۲۳:۰۳

²⁴¹ سایت خبری طلوع نیوز، پنجشنبه ۱۰ دلو ۱۳۹۲ ساعت ۰۷:۵۶ www.tolonews.com

²⁴² پایگاه اطلاع رسانی شبکه خبر. زمان انتشار خبر: سه شنبه ۲۰ اسفند www.irinn.ir
//۱۶:۵۷ - ۱۳۹۲

“Perspolis” futbol jamoasining sardori Nuriy dedi: sharqliklarning (ya’ni bir necha Sharq mamlakati futbol jamoalarining men bilan hamkorlik to’g’risidagi) takliflari borasida o’ylab ko’raman.

اردوغان: نامزدی در انتخابات ریاست جمهوری را بررسی می‌کنم²⁴⁴.

(Turkiya Bosh vaziri) Erdo’g’on: prezidentlik saylovlariga o’z nomzodimni qo’yishim to’g’risida o’ylab ko’raman.

Funksional ekvivalentlari:

فکر کردن، اندیشیدن، محاسبه کردن، تأمل کردن.

4) maslahatlashib ko’rmoq, o’ylashib ko’rmoq, maslahatlashib olmoq; misol:

این پیشنهاد را باهم بررسی کنیم²⁴⁵.

Bu taklif borasida maslahatlashib (o’ylashib) ko’raylik.

Funksional ekvivalentlari:

مشورت کردن، مشاوره کردن، رایزنی کردن.

2. Tekshirib chiqish ma’no guruhi:

1) tekshirmoq, tekshirib chiqmoq; misol:

تعداد و نوع اشتباهات خود را بررسی کنید²⁴⁶.

O’z xatolaringizning soni va xarakterini tekshirib chiqing.

Funksional ekvivalentlari:

مورد بررسی قرار دادن، بازرسی کردن، مورد بازرسی قرار دادن، واری کردن، تحقیق کردن، مورد تحقیق قرار دادن، پژوهش کردن، نگاه کردن، بازنگری کردن، کارشناسی کردن.

2) tekshirib ko’rmoq, aniqlamoq, bilmoq (qandayligini); misol:

²⁴³ پایگاه اطلاع رسانی ورزش سه. کد خبر: 1055899، زمان ارسال: شنبه 17/12/1392 // www.varzesh3.com

²⁴⁴ خبرگزاری دانشجویان ایران. کد خبر: 92121610570، جمعه ۱۶ اسفند ۱۳۹۲ - ۱۵:۴۷ // www.isna.ir

²⁴⁵ افق روشن (مدیریت و سرمایه گذاری)، تاریخ انتشار: // <http://ofoghehroshan.persianblog.ir> 1992/12/1

²⁴⁶ سایت کانون فرهنگی آموزش قلمچی. روشی برای کاهش تعداد اشتباهات. سه شنبه 21 خرداد 1392 // <http://www.kanoon.ir>

چگونه می‌توان از طریق ترمینال سرعت اینترنت را بررسی کرد²⁴⁷؟

Qanday qilib terminal orqali internetning tezligini tekshirib ko'rish mumkin?

Funksional ekvivalentlari:

چک کردن، امتحان کردن، کنترل کردن، تحقیق کردن، مورد تحقیق قرار دادن، مشخص کردن.

3) har tomonlama tekshirib ko'rmoq, aniqlamoq (*kimligini, nimaligini*); misol:

بررسی کنید، مطمئن شوید. او از آن جاسوسان و آدم کشانی که می‌گویند نباشد²⁴⁸.

Tekshirib ko'ring, ishonch hosil qiling. U tag'in haligi (ular to'grisida gapirishayotgan) josuslar va qotillardan bo'lmasin.

Funksional ekvivalentlari:

تحقیق کردن، مورد تحقیق قرار دادن، دیدن، مشخص کردن.

4) qarab (ko'rib) chiqmoq, ko'zdan kechirmoq, nazardan o'tkazmoq; misol:

داشتم زمین را بررسی می‌کردم²⁴⁹.

Yerni ko'zdan kechirayotgandim.

Funksional ekvivalentlari:

از نظر گذراندن، دیدن، نگاه کردن، سیر کردن.

3. Tadqiq qilish ma'no guruhi:

1) o'rganmoq, tadqiq qilmoq; misol:

فتاحی در کتاب خود تاریخچه رشته کتابداری را بررسی کرده است²⁵⁰.

Fattohiy o'z kitobida kitobdorlik tarixini tadqiq qilgan.

تاریخ ایران باستان را باید به دور از تمایلات سیاسی بررسی کرد²⁵¹.

²⁴⁷ سایت www.linuxreview، تاریخ خبر: 22 ژانویه 2014، شماره خبر: //139211

²⁴⁸ میگل دو سروانتس ساودرا. دن کیشوت. ترجمه محمد قاضی. تهران، نیل - هدایت. 1369. ج. 2. ص 1033.

²⁴⁹ احمد محمود. زمین سوخته. تهران. نشر نو. 1361. ص 194.

²⁵⁰ خبرگزاری کتاب ایران، تاریخ خبر: 1391/1/26، شماره خبر: //1126 www.ibna.ir

Qadimgi Eron tarixini siyosiy qarashlardan xoli holda o'rganish (tadqiq qilish) kerak.

سروش نقش زبان فارسی در رسانه را بررسی کرد²⁵².

“Surush” (jurnali) fors tilining ommaviy axborot vositalaridagi rolini tadqiq qildi.

Funksional ekvivalentlari:

مورد بررسی قرار دادن، تحقیق کردن، پژوهش کردن، کاوش کردن، مورد تحقیق قرار دادن.

2) tahlil qilmoq; misol:

دکتر موسویان مشکلات کنونی بانکداری اسلامی در ایران را بررسی کرد²⁵³.

Doktor Musaviyon islom bankchiligi muammolarini tahlil qildi.

Funksional ekvivalentlari:

مورد بررسی قرار دادن، تحلیل کردن، مورد تحلیل قرار دادن، مورد تجزیه و تحلیل قرار دادن.

3) solishtirmoq, taqqoslamog; misol:

Ikki narsani o'zaro taqqosladim. دو چیز را با هم بررسی کردم.

Funksional ekvivalentlari:

تطبیق کردن، مطابقت کردن، مقابله کردن، مقایسه کردن.

4. Fikr bildirish ma'no guruhi:

1) sharhlamoq, izohlamog; misol:

حداد عادل دلایل انتخاب نام سال توسط مقام معظم رهبری را بررسی کرد²⁵⁴.

Haddod Odil buyuk rahbar tomonidan (yangi) yilning nega bunday nomlanganligi sabablarini sharhladi.

²⁵¹ <http://danakhabar.com/> - ۱۳۹۲ آذر ۱۲ تاریخ انتشار: ۱۱۶۳۲۵۵، کد خبر: ۱۸:۳۸

²⁵² www.soroushpress.ir/ // ۱۱:۱۴ ساعت ۹۲ آذر ۱۶ شنبه ۳۶۸۴، کد خبر: ۱۱:۱۴

²⁵³ <http://zanjan.irib.ir/> // 1391 شهریور 20 دوشنبه، 1392/12/29، شماره خبر: 001298

²⁵⁴ www.farsnews.com/ // 001298، شماره خبر: 1392/12/29، تاریخ خبر: 1392/12/29

Funksional ekvivalentlari:

تشریح کردن، تفسیر کردن، شرح کردن، توضیح دادن.

2) ... deb qaramoq, ... deb hisoblamoq, ... deb bilmoq, ... sifatida qabul qilmoq, ... sifatida baholamoq; Misol:

هیچ حرکتی در خاورمیانه را نمیتوان جدا از تحولات ایران بررسی کرد²⁵⁵.

Yaqin Sharqdagi biror-bir harakatni Erondagi o'zgarishlardan ayro holda baholab bo'lmaydi.

کشور ما تروریسم را به عنوان تهدید اصلی امنیت بررسی می کند.

Mamlakatimiz terrorizmga xavfsizlikka bo'lgan asosiy tahdid sifatida qaraydi; Mamlakatimiz terrorizmni xavfsizlikka bo'lgan asosiy tahdid sifatida baholaydi.

Funksional ekvivalentlari:

دانستن، شمردن، شناختن، محسوب کردن، به حساب آوردن، به شمار آوردن، معتقد بودن.

3) qat'iy fikr bildirmoq, hukm qilmoq, hukm chiqarmoq; misol:

رویترز بررسی کرد که کارشکنی فرانسه در مذاکرات ربطی به مسائل هسته ای نداشت²⁵⁶.

"Reyter" (axborot agentligi)ning hukm qilishicha, Fransiyaning muzokaralarni to'xtatishga bo'lgan urinishining yadro masalalariga hech qanday aloqasi yo'q edi.

Funksional ekvivalentlari: نظر داشتن، داوری کردن، قضاوت کردن

5. Shug'ullanish ma'no guruhi:

1) so'rab-surishtirmoq, surishtirmoq; misol:

رئیس به من دستور داد تا این موضوع را بررسی کنم.

Boshliq menga ushbu masalani so'rab-surishtirishimni buyurdi.

²⁵⁵ خبرگزاری ایلنا، تاریخ خبر: 1392/12/13، شماره خبر: www.ilna.ir//150928

²⁵⁶ خبر مورخ 25 آبان 1392 ساعت 08:23، کد خبر: <http://krccima.ir//2922>

Funksional ekvivalentlari:

پیگیری کردن، جست و جو کردن، تحقیق کردن، پژوهش کردن.

2) shug‘ullanmoq (*biror masala bilan*); misol:

شما باید در این مورد به معاون رئیس مراجعه کنید، زیرا چنین مسایل را ایشان بررسی می کنند.

Siz bu borada boshliq o‘rinbosariga murojaat qilishingiz kerak, chunki bunday masalalar bilan o‘sha kishi shug‘ullanadi.

Funksional ekvivalentlari: پیگیری کردن.

Biz bu yerda [barresi kardan] qo‘shma fe’li o‘zining besh ma’no guruhidagi o‘n oltita ma’no qatorida oltmishdan ortiq so‘z bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishishini ko‘rdik. Shu o‘rinda yana bir bor eslatib o‘tishni lozim deb bilamizki, funksional ekvivalentlardan har biri o‘z ishlatilish o‘rni yoki o‘rinlariga ega bo‘lib barcha o‘rinlarda ham bir-biri bilan o‘rin almasha olmasligi mumkin. Zero barcha yoki ko‘pchilik o‘rinlarda o‘z funksional ekvivalentlarining o‘rnida ishlatila olishlik qobiliyati faqatgina ularning invarianti yoki invariantlariga xos bo‘ladi.

3.3.1.2. [barresi kardan] qo‘shma fe’lining ma’no guruhlaridan birida funksional ekvivalentlik munosabati

Endi [barresi kardan] qo‘shma fe’lining ma’no guruhlaridan yoki ma’nolaridan birida funksional ekvivalentlik munosabatini ko‘rib chiqish uchun ushbu fe’l anglatadigan ;ma’nolarning birinchi guruhi – **“ko‘rib chiqish” ma’no guruhidagi** 1) *ko‘rib chiqmoq, o‘rganib chiqmoq*; 2) *muhokama qilmoq*; 3) *o‘ylab ko‘rmoq, o‘rganib ko‘rmoq*; 3) *maslahatlashib ko‘rmoq, o‘ylashib ko‘rmoq, maslahatlashib olmoq* ma’nolarini tanlab oldik.

Shu o‘rinda aytib o‘tishni lozim deb bilamizki, [barresi kardan] qo‘shma fe’li va uning funksional ekvivalentlari tomonidan ifodalanadigan “ko‘rib chiqish” ma’no guruhidagi biz aniqlagan ushbu to‘rt ma’no o‘zbek tiliga

tarjima qilishda yuqorida keltirilgan soʻzlar va soʻz birikmalaridan boshqa soʻzlar va soʻz birikmalari bilan ham berilishi mumkin. Jumladan, ushbu maʼno guruhidagi birinchi maʼno – *koʻrib chiqmoq, oʻrganib chiqmoq* maʼnosi oʻzbek tiliga tarjimada ushbu maʼno qoʻllanilgan matn konteksti yoki uslubiga qarab *koʻrmoq, qaramoq, qarab chiqmoq* kabi soʻzlar vositasida, ushbu guruhdagi uchinchi maʼno – *oʻylab koʻrmoq, oʻrganib koʻrmoq* maʼnosi ayrim oʻrinlarda *oʻylamoq* soʻzi bilan yoki “koʻrib chiqish” maʼno guruhidagi toʻrtinchi – *maslahatlashib koʻrmoq, oʻylashib koʻrmoq, maslahatlashib olmoq* maʼnosi oddiy qilib *maslahatlashmoq* soʻzi vositasida ham berilishi mumkin. Biroq koʻzda tutilayotgan maʼnolarning bunday tarzda berilishi tipik holat boʻlmaganligi sababli, shuningdek *oʻylab koʻrmoq, oʻrganib koʻrmoq* maʼnosini *oʻylamoq* yoki *maslahatlashib koʻrmoq, oʻylashib koʻrmoq, maslahatlashib olmoq* maʼnosini *maslahatlashmoq* soʻzi bilan ham taʼriflash **بررسی کردن** [barresi kardan] qoʻshma feʼli va uning funksional ekvivalentlari tomonidan ifodalanadigan boshqa maʼnolarni taʼriflashda chalkashlikni yuzaga keltirishi mumkinligidan kelib chiqib, ushbu soʻzlarni mazkur maʼnolarning oʻzbek tilidagi tarjimalarini aks ettiruvchi asosiy soʻzlar qatorida keltirmadik. Biroq mazkur maʼnolarni ifodalovchi feʼllar ishtirok etgan ayrim gaplar, jumlar yoki iboralar tarjimasida ushbu soʻzlar ham qoʻllanishi mumkin.

3.3.1.2.1. بررسی کردن [barresi kardan] feʼlining funksional ekvivalentlari va ularning yasalishi

Aytib oʻtish lozimki, garchi **بررسی کردن** [barresi kardan] qoʻshma feʼli tomonidan ifodalanadigan maʼnolardan birinchi guruhi oʻzbek tiliga tarjima qilinganda bir-biridan alohida va mustaqil boʻlgan toʻrt maʼnodan iborat boʻlsa-da, fors tili nuqtai nazaridan bularning barchasi bir maʼno hisoblanadi. Yaʼni fors tilida aynan **بررسی کردن** [barresi kardan] qoʻshma feʼli vositasida ifodalanadigan *koʻrib chiqmoq, oʻrganib chiqmoq; muhokama qilmoq; oʻylab koʻrmoq, oʻrganib koʻrmoq; maslahatlashib koʻrmoq, oʻylashib koʻrmoq, maslahatlashib olmoq*

ma'nolari o'rtasidagi farq ushbu ma'nolar o'rtasida o'zbek tilida mavjud bo'lgan farq darajasida bo'lmasdan, bir ma'noning turli ottenkalari hisoblanadi va muayyan situativ holatlardagina ushbu ma'nolar o'rtasidagi farq aniqroq ko'zga tashlanadi.

Hozirgi fors tilida turli o'rinlarda [barresi kardan] qo'shma fe'li anglatadigan *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq* ma'nolarini ifodalashda ushbu fe'lga funksional ekvivalent sifatida eng ko'p qo'llaniladigan quyidagi fe'llarni aniqladik:

رسیدگی [mowred-e barresi γarār dādan], مورد بررسی قرار دادن [residegi kardan], نگاه کردن [molāheze kardan], مورد بحث قرار دادن [bahs kardan], دیدن [didan], مورد بحث و بررسی قرار دادن [mowred-e bahs γarār dādan], اندیشیدن [andišidan], bahs-o barresi γarār dādan], فکر کردن [fekr kardan], مشورت [ta'ammol kardan], محاسبه کردن [mohāsebe kardan], رایزنی کردن [mošāvere kardan], مشاوره کردن [mašvarat kardan], [rāyzani kardan].

Ko'rib o'tdikki, *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq* ma'nolarini ifodalashda [barresi kardan] qo'shma fe'lining funksional ekvivalentlari orasida مورد بررسی قرار دادن va fe'llaridan tashqari bir negizdan yasalgan leksik variantlar mavjud bo'lmasdan, ularning aksariyati butunlay boshqa negizli sodda va qo'shma fe'llardan tashkil topgan. [barresi kardan] qo'shma fe'lining ushbu ma'nolarini ifodalashdagi funksional ekvivalentlaridan faqatgina ikkitasi: دیدن va اندیشیدن sodda fe'llar bo'lib, qolganlari qo'shma fe'llardan iborat. Ushbu qo'shma fe'llar orasida esa uchtasining ot qismini forsha

soʻz tashkil etib, qolganlarining ot qismi arab tilidan oʻzlashgan quyidagi soʻzlardan iborat: مشاوره, مشورت, تأمل, محاسبه, فکر, بحث, ملاحظه.

3.3.1.2.2. بررسی کردن [barresi kardan] fe'li funksional ekvivalentlarining qo'llanilish o'rinlari

Fors tilidagi ko'pma'noli qo'shma fe'llardan bo'lgan [barresi kardan] qo'shma fe'li anglatadigan *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq* ma'nolarini ifodalashda ushbu fe'lga funksional ekvivalent sifatida qo'llaniladigan fe'llarning quyidagi ishlatilish o'rinlarini aniqladik:

[mowred-e barresi yarār dādan] fe'li birinchi navbatda [barresi kardan] qo'shma fe'lining leksik varianti sifatida ushbu fe'l tomonidan ifodalanadigan ko'pchilik ma'nolarda unga funksional ekvivalent bo'lib, ushbu fe'l anglatadigan *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq* ma'nolaridan ikkitasi, ya'ni *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq* ma'nolarini ifodalashda ushbu fe'lga eng faol funksional ekvivalent hisoblanadi. Misollar:

فکر می کنم این برنامه بدون بازی های آسیایی در نظر گرفته شده و باید آن را مورد بررسی دوباره قرار بدهند.²⁵⁷

Mening fikrimcha bu dastur Osiyo o'yinlarini hisobga olmagan holda ko'zda tutilgan va uni boshqatdan ko'rib chiqishlari lozim.

ایران پیوستن به پروتکل الحاقی آژانس بین‌المللی انرژی اتمی را مورد بررسی قرار خواهد داد.²⁵⁸

²⁵⁷ ایلنا - خبرگزاری کار ایران. تاریخ انتشار: 1392/11/17، کد خبر: www.ghatreh.com // 146140

²⁵⁸ پایگاه اطلاع رسانی شبکه خبر. زمان انتشار خبر: سه شنبه ۲۰ اسفند www.irinn.ir // ۱۳۹۲ - ۵۷:۱۶

Eron Xalqaro atom energiyasi agentligi (MAGATE) qo'shimcha protokoliga qo'shilish masalasini o'rganib ko'radi.

سازمان همکاری های اسلامی وضع مسلمانان برمه را مورد بررسی قرارداد²⁵⁹.

Islom hamkorliklari tashkiloti (IHT) Birmadagi musulmonlar ahvoli bilan bog'liq vaziyatni muhokama qildi.

[residegi kardan] fe'li *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq* ma'nosini ifodalash o'rnida **[barresi kardan]** qo'shma fe'lining funksional ekvivalenti bo'lib keladi. Misol:

شکایت اگر از خود شاه باشد، باید به آن رسیدگی کرد²⁶⁰.

Agar shikoyat shohning o'zidan bo'lsa, uni ko'rib chiqish kerak.

[molāheze kardan] fe'li kam hollarda, asosan kitobiy uslub yaratish maqsadida *ko'rib chiqmoq* ma'nosini ifodalash o'rnida **[barresi kardan]** qo'shma fe'lining funksional ekvivalenti bo'lib keladi. Misol:

دکتر ضربات قلب و حرکات نبض را دقیقاً ملاحظه کرد²⁶¹.

Doktor yurakning va tomirning urishini diqqat bilan ko'rib chiqdi.

[negāh kardan] fe'li *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq* ma'nosini ifodalash o'rnida **[barresi kardan]** qo'shma fe'lining funksional ekvivalenti bo'lib keladi. Misol:

مطلب را از این نظر نگاه کنیم²⁶².

Masalani shu nuqtai nazardan ko'rib (o'rganib) chiqaylik.

[didan] fe'li juda ham kam hollarda, faqatgina so'zlashuv nutqida *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq* ma'nosini ifodalash o'rnida **[barresi kardan]** qo'shma fe'lining funksional ekvivalenti bo'lib keladi. Misol:

²⁵⁹ شفقنا (پایگاه بین المللی همکاری های خبری شیعه)، تاریخ www.shafaqna.com/persian/ انتشار: 1992/8/25، کد خبر: 57604

²⁶⁰ نمونه هایی از نثر فصیح فارسی معاصر. مینوی // گردآوری از جلال متینی. تهران، بی نا، 1338. ص 220.

²⁶¹ محمد مسعود. تفریحات شب. تهران، بی نا، 1335. ص 81.

²⁶² مرتضی مطهری. عدل الاهی. قم، صدرا. 1379. ص 135.

[barresi kardan] qo'shma fe'lining funksional ekvivalenti vazifasini bajarishi mumkin. Misol:

این را ببین و نتیجه را به من خبر بده.

Buni ko 'rib chiq-da, natijasini menga ayt (So 'zlashuv nutqida).

بحث کردن [bahs kardan] fe'li nisbatan kamroq hollarda *muhoqama qilmoq* ma'nosini ifodalash o'rnida [barresi kardan] qo'shma fe'lining funksional ekvivalenti bo'lib keladi. Misollar:

اعضای دایم شورای امنیت در مورد قطعنامه بریتانیا درباره سوریه بحث کردند²⁶³.

Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolari Britaniya tomonidan taklif qilingan Suriya to'g'risidagi rezolyutsiyani muhoqama qildilar.

وزرای دفاع روسیه و سویدن درمورد وضعیت افغانستان بحث کردند²⁶⁴.

Rossiya va Shvetsiya mudofaa vazirlari Afg'onistondagi vaziyatni muhoqama qildilar.

مورد بحث قرار دادن [mowred-e bahs yarār dādan] fe'li nisbatan kamroq hollarda *muhoqama qilmoq* ma'nosini ifodalash o'rnida [barresi kardan] qo'shma fe'lining funksional ekvivalenti bo'lib keladi. Misol:

پارلمان جمهوری آذربایجان روز دوشنبه در جلسه علنی خود موضوع پیوستن برخی اتباع این کشور به گروههای تروریستی در سوریه را مورد بحث قرار داد²⁶⁵.

Ozərbaycan Respublikası parlamenti dushanba kuni o'zining ochiq majlisida ushbu mamlakatning ayrim fuqarolarining Suriyadagi terroristik guruhlariga qo'shilganligi bilan bog'liq masalani muhoqama qildi.

مورد بحث و بررسی قرار دادن [mowred-e bahs-o barresi yarār dādan] fe'li *muhoqama qilmoq* va *ko'rib chiqmoq* ma'nolarini ifodalashda faol

²⁶³ www.radiofarda.com // 25089018 کد خبر: 1992/6/6. تاریخ انتشار:

²⁶⁴ <http://farsi.alarabiya.net/fa> // 2013/7/6. تاریخ انشاء:

²⁶⁵ www.irna.ir // 81025377 کد خبر: 1392 11/14. تاریخ انتشار:

ishlatiladi va ana shu o'rinda [barresi kardan] qo'shma fe'lining eng faol funksional ekvivalentlaridan biriga aylanadi. Misollar:

مشاوران امنیت ملی باراک اوباما رئیس جمهوری امریکا بحران اوکراین را در یک نشست کاخ سفید مورد بحث و بررسی قرار دادند.²⁶⁶

Amerika prezidenti Barak Obamaning xavfsizlik masalalari bo'yicha maslahatchilari Oq uyda o'tkazilgan yig'ilishda Ukraina krizisini muhokama qildilar (ko'rib chiqdilar).

هئیت وزیران در این جلسه چگونگی تحقق سیاستهای اقتصادی را مورد بحث و بررسی قرار داد.²⁶⁷

Vazirlar Mahkamasi ushbu yig'ilishda iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yo'llarini muhokama qildi (ko'rib chiqdi).

در [dar bāre-ye], در باره [ru-ye], روی [ru-ye] **[fekr kardan]** فکر کردن [dar mowred-e] kabi sodda va murakkab predloglar bilan qo'shib kelib, o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq ma'nosini ifodalaydi va ana shu o'rinda بررسی [barresi kardan] qo'shma fe'lining eng faol funksional ekvivalentiga aylanadi. Misol:

پورحیدری: کیروش باید روی دعوت رحمتی فکر کند.²⁶⁸

Purhaydariy: Keyrush Rahmatiyning taklifi haqida o'ylab ko'rishi kerak.

[dar bāre-ye], در باره [ru-ye], روی [ru-ye] **[andišidan]** اندیشیدن [dar mowred-e] kabi sodda va murakkab predloglar bilan qo'shib kelib, o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq va ko'rib chiqmoq ma'nolarini ifodalaydi va ana shu o'rinda بررسی [barresi kardan] qo'shma fe'lining anchagina passiv funksional ekvivalenti vazifasini bajaradi. Misol:

²⁶⁶ www.irna.ir // 81089217 کد خبر: 1392/12/25. تاریخ انشار: 1392/12/25.

²⁶⁷ www.iribnews.ir // تاریخ انتشار: 1392/12/5 کد خبر: 45427

²⁶⁸ www.ghatreh.com // تاریخ انتشار: 1392/11/17، کد خبر: 146140

وزیر فرهنگ و ارشاد اسلامی گفت: مسئله طرح پیشنهاداتی در خصوص نحوه بهره‌گیری از یارانه‌های حمایتی از مطبوعات و رسانه‌ها به صورت طرح یک موضوع بوده که می‌توان در این باره هم اندیشید²⁶⁹.

Madaniyat va islomiy hidoyat vaziri dedi: Matbuot va ommaviy axborot vositalarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan subsidiyalardan foydalanish tartibi to'g'risida o'rta tashlangan takliflar masalasi muhokama uchun ko'tarib chiqilgan bir mavzu bo'lib, bu to'g'rida ham o'ylab ko'rsa bo'ladi (bu masalani ham ko'rib chiqsa bo'ladi).

تأمل کردن [ta'ammol kardan] fe'li o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq ma'nosini kuchaytirilganroq ottenkada ifodalashda بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining funksional ekvivalenti bo'lib keladi. Misol:

کمی تأمل کنیم و انصاف به خرج بدهیم²⁷⁰.

Bir oz o'ylab ko'raylik va adolat bilan ish tutaylik.

محاسبه کردن [mohāsebe kardan] fe'li juda ham kam o'rinlarda, ya'ni biror ma'lumotni qo'lga kiritish maqsadidagi o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq va ko'rib chiqmoq ma'nolarini ifodalash o'rnida بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining funksional ekvivalenti bo'lib keladi. Misol:

جوانب امر را باید دقیق محاسبه کرد²⁷¹.

Masalaning barcha tomonlarini diqqat bilan o'rganib ko'rish (ko'rib chiqish) lozim.

مشورت کردن [mašvarat kardan] fe'li maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq ma'nosini ifodalaydi va ana shu o'rinda بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining eng faol funksional ekvivalenti bo'lib keladi. Misol:

²⁶⁹ پایگاه اطلاع رسانی ممتاز. تاریخ انتشار: 1391/10/14. کد خبر: www.momtaznews.com // 356289

²⁷⁰ نمونه‌هایی از نثر فصیح فارسی معاصر. اقبال // گردآوری از جلال متینی. تهران، بی‌نا، 1338. ص 50.

²⁷¹ انوری، حسن، فرهنگ بزرگ سخن/ به سرپرستی حسن انوری، تهران، سخن، 1381 - 8 ج. جلد 7. ص 908.

با یکی از دوستانم مشورت کردم²⁷².

Do 'stlarimdan biri bilan maslahatlashib oldim.

بررسی کردن [mošāvere kardan] مشاوره کردن
ko'rmoq, maslahatlashib olmoq ma'nosini ifodalash o'rnida
[barresi kardan] qo'shma fe'lining funksional ekvivalenti bo'lib keladi. Misol:

اسرار شخصی و دولتی را با آنها مشاوره می کنند²⁷³.

*Shaxsiy sirlar hamda davlat sirlari to'g'risida ular bilan maslahatlashib
oladilar.*

بررسی کردن [rāyzani kardan] رایزنی کردن
maslahatlashib olmoq ma'nosini ifodalash o'rnida
[barresi kardan] qo'shma fe'lining funksional ekvivalenti bo'lib keladi. Misol:

ایران در مورد مذاکرات اتمی با روسیه و چین مشورت و
رایزنی کرد²⁷⁴.

*Eron Rossiya va Xitoy bilan atom muzokaralari (ya'ni Eronning yadro dasturi
borasidagi muzokaralar) borasida maslahatlashib oldi.*

Ko'rib o'tganimizdek, fors tilidagi [barresi kardan] qo'shma
fe'li ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq,
o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib
olmoq ma'nolarini ifodalashda o'n beshta fe'l bilan funksional ekvivalentlik
munosabatiga kirishadi. Ya'ni yuqorida misol keltirilgan gaplarda mazkur
ma'nolarni ifodalashda qo'llanilgan fe'llarning barchasini [barresi
kardan] qo'shma fe'li bilan almashtirsak gap ma'nosida o'zgarish sodir bo'lmaydi.

²⁷² محمد مصدق، خاطرات و تألمات دکتر مصدق، تهران، علمی، 1360، ص 183.

²⁷³ عبدالرحیم بن شیخ ابو طالب نجار تبریزی (طالبوف). مسالک المحسنین. تهران، شب
گیر، 1356. ص 270.

²⁷⁴ رادیو فردا. تاریخ انتشار: 14 مارس 2014. کد خبر: www.radiofarda.com // 143

3.3.2. بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining formal invariantlari

Biz بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining bir ma'no guruhidagi funksional ekvivalentlarini ko'rib chiqishimizda خواستن [xāstan] sodda fe'liga bag'ishlangan bo'limda bo'lgani kabi o'rganilish obyekti bo'lgan fe'l tomonidan ifodalanadigan bir ma'noning turli ottenkalarini aniqlashimizga hojat qolmadi. Zero yuqorida aytib o'tganimizdek, بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'li tomonidan ifodalanadigan va biz tomonimizdan shartli ravishda beshga bo'lingan ma'no guruhlaridan birinchisi – “ko'rib chiqish” ma'no guruhi o'zbek tiliga tarjima qilinganda bir-biridan alohida va mustaqil bo'lgan to'rt ma'nodan iborat bo'lsa-da, fors tili nuqtai nazaridan bularning barchasi bir ma'no hisoblanadi. Ya'ni fors tilida aynan بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'li vositasida ifodalanadigan *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq* ma'nolari o'rtasidagi farq ushbu ma'nolar o'rtasida o'zbek tilida mavjud bo'lgan farq darajasida bo'lmasdan, bir ma'noning turli ottenkalari hisoblanadi. Biz yuqorida بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'li vositasida ifodalanadigan ushbu to'rt ma'noning ishlatilish o'rinlariga misollar keltirib ham o'tdik. Shundan kelib chiqqan holda بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'li funksional ekvivalentlarining “ko'rib chiqish” ma'no guruhidagi umumiy invarianti hamda ushbu fe'l funksional ekvivalentlarining “ko'rib chiqish” ma'no guruhidagi to'rt ma'noning har biridagi invariantlarini ko'rib chiqishda ana shunga tayanamiz.

Ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq ma'nolarini ifodalashda بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining barcha ma'no guruhlaridagi funksional ekvivalentlari hamda ma'no guruhlaridan biridagi – “ko'rib chiqish” ma'no guruhidagi funksional ekvivalentlari to'g'risidagi mulohazalarimizdan kelib chiqqan holda, ushbu fe'l funksional ekvivalentlarining

“ko‘rib chiqish” ma‘no guruhidagi umumiy invarianti hamda ushbu guruhdagi alohida ma‘nolardagi invariantlarini quyidagicha aniqladik.

3.3.2.1. **بررسی کردن [barresi kardan] qo‘shma fe’li funksional ekvivalentlarining “ko‘rib chiqish” ma‘no guruhidagi umumiy invarianti**

Fe’llarning funksional ekvivalentlarini yagona invariant ma‘no birlashtirib turishi to‘g‘risidagi qarashga tayangan holda **بررسی کردن [barresi kardan]** qo‘shma fe’lining “ko‘rib chiqish” ma‘no guruhidagi funksional ekvivalentlarining umumiy invariantini aniqlash uchun ushbu ma‘no guruhidagi ma‘nolarning invariantini aniqlaymiz va shundan so‘ng yagona invariant ma‘noni o‘zining boshqa funksional ekvivalentlariga nisbatan ko‘proq qamrab oladigan fe’lni topamiz.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, **بررسی کردن [barresi kardan]** qo‘shma fe’li “ko‘rib chiqish” ma‘no guruhidagi to‘rt ma‘noni ifodalashda quyidagi fe’llar bilan funksional ekvivalentlik munosabatida bo‘ladi:

1) *ko‘rib chiqmoq, o‘rganib chiqmoq* ma‘nosini ifodalashda: **مورد بررسی دیدن, نگاه کردن, ملاحظه کردن, رسیدگی کردن, قرار دادن**;

2) *muhoqama qilmoq* ma‘nosini ifodalashda: **مورد بررسی قرار دادن, مورد بحث و بررسی قرار دادن, مورد بحث قرار دادن, بحث کردن**;

3) *o‘ylab ko‘rmoq, o‘rganib ko‘rmoq* ma‘nosini ifodalashda: **فکر کردن, تأمل کردن, محاسبه کردن, اندیشیدن**;

4) *maslahatlashib ko‘rmoq, o‘ylashib ko‘rmoq, maslahatlashib olmoq* ma‘nosini ifodalashda: **رایزنی کردن, مشاوره کردن, مشورت کردن**.

بررسی کردن [barresi kardan] qo‘shma fe’li va uning funksional ekvivalentlari tomonidan ifodalanadigan, bir-biridan alohida bo‘lgan ushbu to‘rt ma‘noni o‘zida birlashtirib turadigan mohiyatni umumiy qilib *ma’lum maqsadda o‘rganib chiqmoq* deb ta’riflash ham mumkin. Zero *ko‘rib chiqmoq, o‘rganib*

chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq ma'nolarining barchasi haqiqatdan ham aniq maqsadlarda amalga oshiriladigan o'rganib chiqish (ko'rib chiqish, muhokama qilish, o'ylab ko'rish, o'ylashib ko'rish, maslahatlashish)ni anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda *ma'lum maqsadda o'rganib chiqmoq* mohiyati orqali bir-biriga bog'lanib turadigan ushbu to'rt ma'noni o'z ichiga olgan umumiy – invariant ma'noni quyidagicha ta'riflash mumkin bo'ladi: *biror narsa to'g'risida xulosa chiqarish yoki qaror qabul qilish maqsadida uni o'rganib chiqmoq*.

Ushbu xulosamizni quyidagi jadval ko'rinishida ifodalash mumkin:

№	<i>ma'no variantlari</i>	<i>invariant ma'no</i>
1	ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq	biror narsa
2	muhokama qilmoq	to'g'risida xulosa
3	o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq	chiqarish yoki qaror
4	maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq	qabul qilish maqsadida uni o'rganib chiqmoq

بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining funksional ekvivalentlarining qo'llanilish o'rinlari xususida yuqorida keltirgan misollarimiz [barresi kardan] qo'shma fe'li va uning funksional ekvivalentlari tomonidan ifodalanadigan *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq* ma'nolarni o'zida aks ettira oladigan umumiy, ya'ni invariant ma'no bo'lmish *biror narsa to'g'risida xulosa chiqarish yoki qaror qabul qilish maqsadida uni o'rganib chiqmoq* ma'nosining mazkur funksional ekvivalentlar orasida ko'proq بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining o'zida mujassam bo'lishini ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida بررسی کردن [barresi

kardan] qo'shma fe'lining *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq* ma'nolarini ifodalashdagi umumiy o'rinlarda yuqorida ko'rsatib o'tilgan o'n beshta fe'l uchun yagona formal invariant vazifasini o'tay olishi to'g'risida xulosa chiqarishimizga sabab bo'ladi.

بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining "ko'rib chiqish" ma'no guruhidagi umumiy o'rinlarda ushbu fe'llarning formal invarianti bo'la olishi to'g'risidagi xulosamizni quyidagi tartibda asoslash mumkin:

Birinchidan, بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'li *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq* ma'nolarini ifodalashda نگاه, ملاحظه کردن, رسیدگی کردن, مورد بررسی قرار دادن, مورد بحث و بررسی, مورد بحث قرار دادن, بحث کردن, دیدن, کردن مشورت, تأمل کردن, محاسبه کردن, اندیشیدن, فکر کردن, قرار دادن fe'llari bilan funksional ekvivalentlik munosabatida bo'ladi. Bunda nafaqat mazkur fe'llar بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining funksional ekvivalentlari hisoblanadilar, balki بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lining o'zi ham ushbu fe'llardan har birining funksional ekvivalenti bo'la oladi. Ya'ni بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'li ham ushbu funksional ekvivalentlardan biri hisoblanadi.

Ikkinchidan, *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq* ma'nolarini ifodalab kelayotgan مورد بررسی قرار, مورد بحث کردن, دیدن, نگاه کردن, ملاحظه کردن, رسیدگی کردن, دادن فکر کردن, مورد بحث و بررسی قرار دادن, بحث قرار دادن, مشاوره کردن, مشورت کردن, تأمل کردن, محاسبه کردن, اندیشیدن, بررسی کردن fe'llarining barchasini umumiy qilib faqatgina

[barresi kardan] fe'li vositasida ta'riflash mumkin. Holbuki mazkur ma'no o'rnida ushbu fe'llarning barchasini umumiy qilib ular orasidagi boshqa fe'l vositasida ta'riflashning iloji yo'q.

Uchinchidan, بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'lini umumiy *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq* ma'nolarini ifodalashda, ya'ni "ko'rib chiqish" ma'no guruhi ma'nolarga bo'linmagan umumiy holatda gap ma'nosini o'zgartirmagan holda uning funksional ekvivalentlari vazifasini bajarib keladigan مورد بررسی قرار دادن, بحث کردن, دیدن, نگاه کردن, ملاحظه کردن, رسیدگی کردن, دادن فکر کردن, مورد بحث و بررسی قرار دادن, بحث قرار دادن, مشاوره کردن, مشورت کردن, تأمل کردن, محاسبه کردن, اندیشیدن fe'llaridan har birining o'rnida ishlatish mumkin. Holbuki ushbu fe'llardan boshqa birortasini mazkur fe'llardan har birining o'rnida ishlatib bo'lmaydi.

Ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq ma'nolarini ifodalab keladigan barcha fe'llarni umumiy qilib faqatgina [barresi kardan] fe'li vositasida ta'riflash mumkinligi, hamda [barresi kardan] qo'shma fe'lini *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq; maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq* ma'nolarini ifodalashda shu ma'nolarni ifodalab keladigan boshqa barcha funksional ekvivalentlardan har birining o'rnida ishlatish mumkinligi barobarida ushbu ma'nolarni ifodalashda o'zaro funksional ekvivalent bo'lgan fe'llardan boshqa birortasining bunday vazifalarni bajara olmasligi [barresi kardan] qo'shma fe'lining *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq;*

maslahatlashib ko‘rmoq, o‘ylashib ko‘rmoq, maslahatlashib olmoq ma’nolarini ifodalashdagi umumiy o‘rinlarda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan o‘n sakkizta fe’l uchun yagona formal invariant vazifasini o‘tay olishi to‘g‘risida xulosamizni tasdiqlaydi.

Quyida *بررسی کردن* [barresi kardan] qo‘shma fe’lining formal invariant sifatida *ko‘rib chiqmoq, o‘rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o‘ylab ko‘rmoq, o‘rganib ko‘rmoq; maslahatlashib ko‘rmoq, o‘ylashib ko‘rmoq, maslahatlashib olmoq* ma’nolarini ifodalashda ishlatiladigan barcha fe’llar – funksional ekvivalentlardan har birining o‘rnida ishlatish mumkinligiga ayrim misollar keltiramiz:

№	<i>funksional ekvivalent ishtirokida</i>	<i>formal invariant ishtirokida</i>	<i>o‘zbekcha tarjimasi</i>
1	به درخواست او رسیدگی کردند	درخواست او را بررسی کردند	Uning arizasini ko‘rib chiqishdi
2	در باره این موضوع بحث کردیم	این موضوع را بررسی کردیم	Bu masalani muhokama qildik
3	روی این پیشنهاد فکر کنید	این پیشنهاد را بررسی کنید	Bu taklif to‘g‘risida o‘ylab ko‘ring
4	در باره این امر با هم مشورت کردند	این امر را با هم بررسی کردند	Bu masala to‘g‘risida maslahatlashib olishdi

3.3.2.2. *بررسی کردن* [barresi kardan] qo‘shma fe’li funksional ekvivalentlarining alohida ma’nolardagi invariantlari

Ko‘rib o‘tganimizdek, *بررسی کردن* [barresi kardan] qo‘shma fe’li va uning funksional ekvivalentlari tomonidan ifodalanadigan *ko‘rib chiqmoq, o‘rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o‘ylab ko‘rmoq, o‘rganib ko‘rmoq; maslahatlashib ko‘rmoq, o‘ylashib ko‘rmoq, maslahatlashib olmoq* ma’nolarini o‘z ichiga olgan invariant ma’no bo‘lmish *biror narsa to‘g‘risida xulosa chiqarish yoki qaror qabul qilish maqsadida uni o‘rganib chiqmoq* ma’nosi mazkur funksional ekvivalentlar

orasida ko‘proq کردن بررسی [barresi kardan] qo‘shma fe’lining o‘zida mujassam bo‘ladi. Biroq کردن بررسی [barresi kardan] qo‘shma fe’li “ko‘rib chiqish” ma’no guruhidagi ma’nolarning hammasida ham o‘zining funksional ekvivalentlari uchun formal invariant bo‘la olmaydi. Chunki ushbu ma’nolarning har biri o‘zining alohida invariant ma’nosiga ega bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

№	<i>ma’no variantlari</i>	<i>invariant ma’no</i>
1	ko‘rib chiqmoq, o‘rganib chiqmoq	biror narsa to‘g‘risida xulosa chiqarish yoki qaror qabul qilish maqsadida uni o‘rganib chiqmoq
2	muhokama qilmoq	biror narsa to‘g‘risida xulosaga kelish uchun har tomonlama o‘ylashmoq va fikr almashmoq
3	o‘ylab ko‘rmoq, o‘rganib ko‘rmoq	biror masala yoki taklif to‘g‘risida qaror qabul qilish, fikr bildirish yoki unga javob berish maqsadida uni o‘rganib chiqmoq
4	maslahatlashib ko‘rmoq, o‘ylashib ko‘rmoq, maslahatlashib olmoq	biror masalada nima va qanday qilish kerakligi haqida o‘zaro fikr almashmoq

Ushbu to‘rt ma’no guruhidagi to‘rt invariant ma’no esa ana shu guruhlardan har birida unga kiruvchi fe’llardan – funksional ekvivalentlardan birida mujassam bo‘ladi. Ya’ni mazkur fe’llar ushbu ma’no guruhlaridan har birida o‘z invariantiga ega bo‘ladi. Chunki, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, کردن بررسی [barresi kardan] qo‘shma fe’li hozirgi fors tilida umumiy *ko‘rib chiqmoq, o‘rganib chiqmoq; muhokama qilmoq; o‘ylab ko‘rmoq, o‘rganib ko‘rmoq; maslahatlashib ko‘rmoq, o‘ylashib ko‘rmoq, maslahatlashib olmoq* ma’nolarini ifodalashda ishlatiladigan fe’llarning barchasi uchun invariant vazifasini bajara olsa-da, ushbu

fe'llar vositasida ifodalanayotgan "ko'rib chiqish" ma'no guruhidagi ma'nolarning barchasida ham ma'noni ifodalovchi asosiy so'z vazifasida kelmaydi.

بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'li funksional ekvivalentlarining "ko'rib chiqish" ma'no guruhidagi ma'nolarning har biridagi invariantlari quyidagilardan iborat:

1. Ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llarni ملاحظه, رسیدگی کردن, مورد بررسی قرار دادن, بررسی کردن) birlashtirib turadigan invariant ma'no *biror narsa to'g'risida xulosa chiqarish yoki qaror qabul qilish maqsadida uni o'rganib chiqmoq* ushbu fe'llar orasida ko'proq [barresi kardan] fe'lida mujassam bo'lib, ushbu fe'llarning barchasini umumiy qilib [barresi kardan] fe'li vositasida ta'riflash mumkin va [barresi kardan] fe'li mazkur ma'noni ifodalashda ushbu fe'llarning har birining o'rnida kela oladi.

Shulardan kelib chiqib, *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq* ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan مورد بررسی قرار دادن, بررسی کردن, رسیدگی کردن fe'llarining formal invarianti [barresi kardan] qo'shma fe'lidir, degan xulosaga kelish mumkin. Misollar:

№	<i>funksional ekvivalent ishtirokida</i>	<i>formal invariant ishtirokida</i>	<i>o'zbekcha tarjimasi</i>
1	مجلس لایحه بودجه را مورد بررسی قرار داد.	مجلس لایحه بودجه را بررسی کرد.	Parlament byudjet loyihasini ko'rib chiqdi.
2	دادگاه به شکایت من رسیدگی می کند.	دادگاه شکایت مرا بررسی می کند.	Sud mening shikoyatimni ko'rib chiqadi.
3	دکتر ضربات قلب را ملاحظه کرد.	دکتر ضربات قلب را بررسی کرد.	Doktor yurak urishini ko'rdi (ko'rib chiqdi).

4	موضوع را از این نظر بررسی کنند.	موضوع را از این نظر بررسی کنند.	Masalani shu nuqtai nazardan ko'rib chiqing.
5	این را یک بین که چیست؟	این را یک بررسی کن که چیست؟	Buni ko'rginchi (ko'rib chiqqinchi), nima ekan?

2. Muhokama qilmoq ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llarni مورد بحث قرار, بحث کردن, مورد بررسی قرار دادن, بررسی کردن (مورد بحث و بررسی قرار دادن, دادن birlashtirib turadigan invariant ma'no biror narsa to'g'risida xulosaga kelish uchun har tomonlama o'ylashmoq va fikr almashmoq ushbu fe'llar orasida ko'proq [barresi kardan] بررسی کردن fe'lida mujassam bo'lib, ushbu fe'llarning ham barchasini umumiy qilib [barresi kardan] fe'li vositasida ta'riflash mumkin. Zero, yuqorida aytib o'tganimizdek, [barresi kardan] qo'shma fe'li tomonidan ifodalanadigan "ko'rib chiqish" ma'no guruhidagi to'rt ma'noning barchasi fors tili nuqtai nazaridan bir ma'noning turli ottenkalari hisoblanib, ayniqsa *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq* va *muhokama qilmoq* ma'nolari o'rtasida aytarli farq ko'zga tashlanmaydi. Shu sababli ham *ko'rib chiqmoq, o'rganib chiqmoq* ma'nosini ifodalaydigan fe'llarning har birining o'rnida kela oladigan [barresi kardan] fe'li *muhokama qilmoq* ma'nosini ifodalaydigan fe'llarning ham har birining o'rnida kela oladi.

Bularning barchasi *muhokama qilmoq* ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan مورد بحث قرار, بحث کردن, مورد بررسی قرار دادن, بررسی کردن fe'llarining formal invarianti بررسی قرار دادن, دادن [barresi kardan] qo'shma fe'lidir, degan xulosaga kelishimizga asos bo'ladi:

No	funksional ekvivalent ishtirokida	formal invariant ishtirokida	o'zbekcha tarjimai
1	مجلس برنامه سرمایه	مجلس برنامه	Parlament kelgusi

	گذاری برای سال آینده را مورد بررسی قرار داد.	سرمایه گذاری برای سال آینده را بررسی کرد.	yilga mo'ljallangan investitsiya dasturini muhokama qildi.
2	رؤسای جمهوری دو کشور در مورد مسئله افغانستان بحث کردند.	رؤسای جمهوری دو کشور مسئله افغانستان را بررسی کردند.	Ikki davlat prezidentlari Afg'oniston masalasini muhokama qilishdi.
3	شورای امنیت سازمان ملل متحد مسئله کریمه را مورد بحث قرار داد.	شورای امنیت سازمان ملل متحد مسئله کریمه را بررسی کرد.	BMT Xavfsizlik Kengashi Qrim masalasini muhokama qildi.
4	طرفین مسایل توسعه همکاری را مورد بحث و بررسی قرار دادند.	طرفین مسایل توسعه همکاری را بررسی کردند.	Tomonlar hamkorlikni rivojlantirish masalalarini muhokama qildilar.

3. O'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llar (تأمل کردن, محاسبه کردن, اندیشیدن, فکر کردن, بررسی کردن) *biror masala yoki taklif to'g'risida qaror qabul qilish, fikr bildirish yoki unga javob berish maqsadida uni o'rganib chiqmoq* invariant ma'nosida birlashib turar ekan, ushbu fe'llarning har birida tafakkur fe'llariga xos bo'lgan *o'ylamoq, fikrlamoq* umumiy ma'no ohangi hozir bo'lib turadi. Shu sababli ham ushbu invariant ma'noning mazkur fe'llar orasida ko'proq روی [ru-ye], در باره [dar bāre-ye], در مورد [dar mowred-e] kabi sodda va murakkab predloglar bilan qo'shilib keladigan فکر کردن [fekr kardan] fe'lida mujassam bo'lishi kuzatiladi. Chunki mazkur fe'llarning barchasini روی [ru-ye], در باره [dar bāre-ye], در مورد [dar mowred-e] kabi sodda va murakkab predloglar bilan qo'shilib kelib,

o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq ma'nosini ifodalaydigan [fekr kardan] fe'li vositasida ta'riflash mumkin bo'ladi. Shuningdek [fekr kardan] fe'li mazkur ma'noni ifodalashda ushbu fe'llarning har birining o'rnida kela oladi.

Bu esa *o'ylab ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq* ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan تامل کردن, محاسبه کردن, اندیشیدن, فکر کردن, بررسی کردن fe'llarining formal invarianti [fekr kardan] qo'shma fe'lidir, degan xulosaga kelishimizga sabab bo'ladi. Misollar:

№	<i>funksional ekvivalent ishtirokida</i>	<i>formal invariant ishtirokida</i>	<i>o'zbekcha tarjimasi</i>
1	پیشنهاد مرا بررسی کنید.	روی پیشنهاد من فکر کنید.	Mening taklifim to'g'risida o'ylab ko'ring.
2	در باره صادرات کالا اندیشیدند.	روی صادرات کالا فکر کردند.	Tovar eksporti borasida o'ylab ko'rishdi.
3	در این موضوع تأملی کرد.	در باره این موضوع فکری کرد.	Bu masala to'g'risida o'ylab ko'rdi.
4	سود و زیان این کار را محاسبه کرد.	روی سود و زیان این کار فکر کرد.	Bu ishning foyda-zarari to'g'risida o'ylab ko'rdi.

4. Maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe'llarni (مشورت کردن, بررسی کردن) esa *biror masalada nima va qanday qilish kerakligi haqida o'zaro fikr almashmoq* invariant ma'nosi birlashtirib turadi. Aytib o'tish lozimki, [barresi kardan] qo'shma fe'li tomonidan ifodalanadigan “ko'rib chiqish” ma'no guruhidagi uchinchi ma'no – *o'ylab*

ko'rmoq, o'rganib ko'rmoq ma'nosini ifodalashda bo'lgani kabi ushbu guruhdagi to'rtinchi ma'no – *maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq* ma'nosini ifodalashda ham بررسی کردن [barresi kardan] qo'shma fe'li ma'noni ifodalovchi asosiy fe'l vazifasini bajara olmaydi. Chunki, yuqorida keltirib o'tgan misollarimiz *biror masalada nima va qanday qilish kerakligi haqida o'zaro fikr almashmoq* invariant ma'nosi vositasida birlashib turgan fe'llarda *maslahatlashish* umumiy ma'no ohangi hozir bo'lib turganini ko'rsatadi. Shunga ko'ra mazkur fe'llarning barchasini *maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq* ma'nosini ifodalaydigan asosiy fe'l bo'lmish مشاورت کردن [mašvarat kardan] fe'li vositasida ta'riflash mumkin va مشاورت کردن [mašvarat kardan] fe'li mazkur ma'noni ifodalashda ushbu fe'llarning har birining o'rnida kela oladi. Chunki *biror masalada nima va qanday qilish kerakligi haqida o'zaro fikr almashmoq* invariant ma'nosining ushbu ma'noni ifodalovchi funksional ekvivalentlardan aynan مشاورت کردن [mašvarat kardan] fe'lida mujassam bo'lishini ko'rish mumkin.

Shulardan kelib chiqib, *maslahatlashib ko'rmoq, o'ylashib ko'rmoq, maslahatlashib olmoq* ma'nosini ifodalashda ishtirok etadigan بررسی کردن, مشاورت کردن, رایزنی کردن, مشاوره کردن, مشاورت کردن fe'llarining formal invarianti [mašvarat kardan] qo'shma fe'lidir, degan xulosaga kelish mumkin.

Misollar:

№	<i>funksional ekvivalent ishtirokida</i>	<i>formal invariant ishtirokida</i>	<i>o'zbekcha tarjimasi</i>
1	با پدر و مادران پیشنهاد ما را بررسی کنید.	با پدر و مادران در مورد پیشنهاد ما مشاورت کنید.	Ota-onangiz bilan bizning taklifimiz to'g'risida maslahatlashib ko'ring.
2	مسئولین شرکت در مورد برنامه	مسئولین شرکت در مورد برنامه	Kompaniya rahbarlari moliyaviy faoliyat

	فعالیت مالی مشاوره کردند.	فعالیت مالی مشورت کردند.	dasturi haqida maslahatlashib olishdi.
3	دو کشور در مورد راه حل مشکل رایزنی کردند.	دو کشور در مورد راه حل مشکل مشورت کردند.	Ikki davlat muammoni hal qilish yo‘li borasida maslahatlashib olishdi.

Ko‘rib o‘tdikki, بررسی کردن [barresi kardan] qo‘shma fe’li funksional ekvivalentlarining “ko‘rib chiqish” ma’no guruhidagi ma’nolarning har biridagi invariantlari quyidagilardan iborat:

1. *Ko‘rib chiqmoq, o‘rganib chiqmoq* ma’nosini ifodalashda ishtirok etadigan ملاحظه کردن, رسیدگی کردن, مورد بررسی قرار دادن, بررسی کردن [barresi kardan] qo‘shma fe’li.

2. *Muhokama qilmoq* ma’nosini ifodalashda ishtirok etadigan بررسی کردن, مورد, مورد بحث قرار دادن, بحث کردن, مورد بررسی قرار دادن بررسی [barresi kardan] qo‘shma fe’li.

3. *O‘ylab ko‘rmoq, o‘rganib ko‘rmoq* ma’nosini ifodalashda ishtirok etadigan fe’l تأمل کردن, محاسبه کردن, اندیشیدن, فکر کردن, بررسی کردن variantlarining formal invarianti [fekar kardan] qo‘shma fe’li.

4. *Maslahatlashib ko‘rmoq, o‘ylashib ko‘rmoq, maslahatlashib olmoq* ma’nosini ifodalashda ishtirok etadigan مشاوره, مشورت کردن, بررسی کردن مشاوره مشورت کردن [mašvarat kardan] qo‘shma fe’li.

Eslatib o‘tilgan ma’nolardagi invariantlarni quyidagi jadval shaklida ko‘rsatish ham mumkin:

	<i>ma'nolar</i>	<i>funksional ekvivalentlar</i>	<i>formal invariantlar</i>
1	<i>ko'rib chiqmoq,</i> <i>o'rganib chiqmoq</i>	بررسی کردن مورد بررسی قرار دادن رسیدگی کردن ملاحظه کردن نگاه کردن دیدن	بررسی کردن
2	<i>muhokama qilmoq</i>	بررسی کردن مورد بررسی قرار دادن بحث کردن مورد بحث قرار دادن مورد بحث و بررسی قرار دادن	بررسی کردن
3	<i>o'ylab ko'rmoq,</i> <i>o'rganib ko'rmoq</i>	فکر کردن بررسی کردن اندیشیدن محاسبه کردن تأمل کردن	فکر کردن
4	<i>maslahatlashib</i> <i>ko'rmoq,</i> <i>o'ylashib ko'rmoq,</i> <i>maslahatlashib olmoq</i>	مشورت کردن مشاوره کردن رایزنی کردن بررسی کردن	مشورت کردن

Uchinchi bob bo'yicha xulosalar

Dissertatsiyamizning fors tili fe'l tizimida invariant-variant munosabatiga bag'ishlangan uchinchi bobida fors tilidagi sodda, prefiksli va qo'shma fe'llarning

formal invariantlarini خواستن [xāstan], برداشتن [bar-dāštan] va بررسی کردن [barresi kardan] fe'llari misolida tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Invariant tushunchasi variant tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, muayyan til birligining muayyan til sathidagi invarianti o'sha til birligining o'sha til sathidagi variantlarining umumiy ko'rinishi, turli variantlarda namoyon bo'ladigan til birligining birlamchi shakli, uning turli variantlarining umumlashmasi ekanligi, invariant faqatgina variantlar mavjud bo'lgan o'rinda izlanishi, chunki variantlar bo'lmagan joyda invariant ham mavjud bo'lmasligidan kelib chiqqan holda muayyan til birligining muayyan til sathidagi invariantini aniqlash uchun avval o'sha til birligining o'sha til sathidagi variantlarini aniqlash lozim bo'ladi, ya'ni invariant variantlarni aniqlash asosida aniqlanadi. Jumladan, **fors tilidagi fe'llarning formal invariantlarini aniqlash uchun avval ularning funksional ekvivalentlari aniqlanib, shuning asosida funksional ekvivalentlarning formal invarianti aniqlanadi.**

2. Fors tilidagi muayyan fe'lning formal invariantlarini quyidagi bosqichlar ketma-ketligida aniqlash usuli ishlab chiqildi:

Birinchi bosqich – fe'lning barcha ma'nolari – leksik-semantik variantlari aniqlanadi. Ushbu leksik-semantik variantlar o'z ko'lamiga qarab bir necha ma'no shaklida yoki bir necha ma'no guruhi shaklida bo'lishi mumkin.

Ikkinchi bosqich – fe'lning aniqlangan ma'nolari – leksik-semantik variantlari asosida ushbu leksik-semantik variantlarning har biridagi funksional ekvivalentlar qatori aniqlanadi.

Uchinchi bosqich – fe'lning aniqlangan funksional ekvivalentlari qatorlaridan biri tanlab olinib, ana shu qatordagi funksional ekvivalentlarni birlashtirib turadigan **yagona invariant ma'no**, shuningdek ushbu qatordagi funksional ekvivalentlar vositasida ifodalanayotgan ma'no ottenkalariga ko'ra bo'linadigan ma'no guruhchalaridagi **invariant ma'nolar** aniqlanadi. Aytib o'tish lozimki,

tadqiqotdan koʻzda tutilgan maqsaddan kelib chiqqan holda, muayyan feʼlning boshqa funksional ekvivalentlari qatorlaridagi invariantni aniqlashda ham shu usuldan foydalanish mumkin.

Toʻrtinchi bosqich – funksional ekvivalentlarni birlashtirib turadigan yagona invariant maʼnoni oʻzida toʻla yoki boshqa funksional ekvivalentlarga nisbatan koʻproq mujassam etuvchi funksional ekvivalentlardan biri aniqlanadi. Ana shu funksional ekvivalent muayyan funksional ekvivalentlar qatorining **formal invarianti** hisoblanadi. Xuddi shuningdek ushbu qatordagi funksional ekvivalentlar vositasida ifodalanayotgan maʼno ottenkalariga koʻra boʻlinadigan maʼno guruhchalarining har biridagi invariant maʼnolarni oʻzida toʻla yoki nisbatan koʻproq mujassam etuvchi funksional ekvivalentlar aniqlanadi. Har bir maʼno guruhchasidagi shunday funksional ekvivalent ushbu maʼno guruhchasining **formal invarianti** hisoblanadi.

3. Fors tilidagi feʼllarning formal invariantlari quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1) muayyan maʼnoni ifodalashda boshqa feʼllar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishuvchi feʼllarning oʻzi ham ushbu funksional ekvivalentlardan biri hisoblanadi. Yaʼni muayyan maʼnoni ifodalashda bir-biriga funksional ekvivalent boʻlib kelayotgan feʼllarning – funksional ekvivalentlarning **formal invarianti ana shu funksional ekvivalentlardan biri boʻladi**;

2) muayyan maʼnoni ifodalashda bir-biriga funksional ekvivalent boʻlib kelayotgan feʼllarning – **funksional ekvivalentlarning barchasini umumiy qilib faqatgina funksional ekvivalentlarning formal invarianti vositasida taʼriflash mumkin**. Holbuki mazkur maʼno oʻrnida ushbu feʼllarning barchasini umumiy qilib ular orasidagi boshqa feʼl vositasida taʼriflashning iloji boʻlmaydi;

3) muayyan maʼnoni ifodalashda bir-biriga funksional ekvivalent boʻlib kelayotgan feʼllarning – **funksional ekvivalentlarning formal invariantini gap maʼnosini oʻzgartirmagan holda uning funksional ekvivalentlari vazifasini**

bajarib keladigan boshqa fe'llardan har birining o'rnida ishlatish mumkin. Holbuki ushbu fe'llardan boshqa birortasini mazkur fe'llardan har birining o'rnida ishlatib bo'lmaydi.

4. Muayyan ma'noni ifodalashda bir-biriga funksional ekvivalent bo'lib kelayotgan fe'llardan – funksional ekvivalentlardan har biri o'ziga xos bo'lgan ma'no ottenkalariga ega bo'lib, barcha o'rinlarda ham bir-biri bilan o'zaro o'rin almasha olmasligi sababli ushbu funksional ekvivalentlarning formal invarianti ushbu funksional ekvivalentlar vositasida ifodalanayotgan ma'no ottenkalariga ko'ra bo'linadigan ma'no guruhchalarida ham formal invariant bo'la olmasligi, ya'ni **muayyan funksional ekvivalentlik qatorida invariant hisoblangan fe'l ushbu funksional ekvivalentlik qatorining ma'no ottenkalariga ko'ra bo'linadigan ma'no guruhchalarida invariant bo'lmasligi ham mumkin.** Shunga ko'ra biz خواستن [xāstan], برداشتن [bar-dāštan] va بررسی کردن [barresi kardan] fe'llari misolida fors tilidagi muayyan fe'l funksional ekvivalentlarining **bir ma'no yoki ma'no guruhi doirasidagi umumiy invariantini**, hamda fors tilidagi muayyan fe'l funksional ekvivalentlarining **alohida ma'no yoki ma'no ottenkalari doirasidagi invariantlarini** bir-biridan alohida tarzda ko'rib o'tdik.

XULOSA

Dissertatsiya ishimizda ko‘rib o‘tganimizdek, fors tilida tildagi gap yasashida faol ishtirok etadigan eng muhim leksik unsurlardan biri hisoblangan fe‘l tildagi variantlashuv hodisasida muhim o‘rin tutadi. Fors tilida fe‘llar sonining, xususan sodda va prefiksli fe‘llar sonining nisbatan kamligi, ikkinchi tomondan qo‘shma fe‘llar sonining sodda va prefiksli fe‘llarga nisbatan ko‘pligi fors tili fe‘llarida turlicha variantlashuv holatlarining, jumladan, ko‘pma‘nolilik (leksik-semantik variantlashuv) va funksional ekvivalentlik hodisalarining yuz berishini keltirib chiqadigan asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Tildagi variantlashuvda faol ishtirok etadigan **fe‘llarning turli til sathlaridagi invariantlari, jumladan, formal (funksional) invariantlari fors tilshunosligida hali o‘rganilmagan mavzu bo‘lib, ushbu tadqiqotimiz bu boradagi ilk qadamlardan hisoblanadi.**

Ko‘rib o‘tganimizdek, invariant faqatgina variantlar mavjud bo‘lgan o‘rinda izlanadi, zero variantlar bo‘lmagan joyda invariant ham mavjud bo‘lmaydi. Shu sababli ham muayyan til birligining muayyan til sathidagi invariantini aniqlash uchun oldin o‘sha til birligining o‘sha til sathidagi variantlarini aniqlashga, boshqacha qilib aytganda, invariantni variantlarni aniqlash asosida aniqlashga harakat qildik.

Fors tilidagi sodda, prefiksli va qo‘shma fe‘llarning formal invariantlarini aniqlash va o‘rganish uchun ham ularning funksional ekvivalentlarini aniqlash, ko‘rib chiqish va tadqiq qilish lozimligidan kelib chiqib, namuna sifatida olingan sodda, prefiksli va qo‘shma fe‘llarning funksional ekvivalentlarini ko‘rib chiqdik, buning asosida esa ularning formal invariantlarini aniqladik.

Dissertatsiyamizda fors tilidagi fe‘llarning formal invariantlarini ko‘rib chiqish uchun avval ushbu mavzu bilan bog‘liq bo‘lgan til tizimidagi variantlik va invariantlik hamda fors tilida fe‘llar variantlilik tog‘risida umumiy ma‘lumotlar

hamda bu bo'yicha o'z mulohazalarimizni keltirib o'tdik. Shundan so'ng fors tilidagi sodda, prefiksli va qo'shma fe'llarning formal invariantlarini خواستن [xāstan], برداشتن [bar-dāštan] va بررسی کردن [barresi kardan] fe'llari misolida ko'rib chiqdik. Natijada dissertatsiyamizda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan quyidagi xulosalarga keldik:

1. Turli til birliklarining turli til sathlaridagi variantlaridan hisoblangan so'zlarning **funksional ekvivalentlari** tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytirishda asosiy rollardan birini o'ynaydi.

2. Turli til sathlaridagi variantlashuv hodisasi bilan bog'liq bo'lgan **invariant** turli variantlarda namoyon bo'ladigan til birligining birlamchi shakli, uning turli variantlarining umumlashmasi bo'lib, turli til birliklarining turli til sathlaridagi invariant turlari orasida fe'llardagi funksional ekvivalentlik bilan bog'liq bo'lgan **fe'llarning formal (funksional) invariantligi** ham mavjud bo'lib, fe'llarning funksional ekvivalentlarini birlashtirib turgan yagona invariant ma'no formal (funksional) invariant vazifasidagi fe'lda yoki fe'llarda mujassam bo'ladi.

3. Fors tilidagi variantlashuv hodisasida katta rol o'ynaydigan fe'llar tilning turli sathlarida eng ko'p variantlarga ega bo'lgan so'z turkumlaridan hisoblanib, fe'llarning turli til sathlaridagi variant turlari orasida **leksik-semantik variantlar** hamda **funksional ekvivalentlar** fe'l tizimidagi variantlashuvning ikki muhim tomoni – ma'noviy va shakliy variantlashuv jihatlarini aks ettiradigan vositalar sifatida muhim o'rin tutadi. Fe'llardagi ko'pma'nolilik (leksik-semantik variantlashuv) va funksional ekvivalentlik esa o'zaro bog'liq hodisalar bo'lib, ko'pma'noli fe'llar o'zlari anglatadigan ma'nolarning – leksik-semantik variantlarning har birida boshqa fe'llar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishadi. Bunda biz ma'lum fe'lning bir necha ma'no qatoridagi funksional ekvivalentlarini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shu nuqtai nazardan **leksik-semantik variantlar fe'llarning funksional ekvivalentlarini o'rganishda muhim o'rin tutadi.**

4. Muayyan til birligining muayyan til sathidagi invariantini aniqlash uchun avval o'sha til birligining o'sha til sathidagi variantlarini aniqlash lozim bo'ladi, ya'ni invariant variantlarni aniqlash asosida aniqlanadi. Jumladan, **fors tilidagi fe'llarning formal invariantlarini aniqlash uchun avval ularning funksional ekvivalentlari aniqlanib, shuning asosida funksional ekvivalentlarning formal invarianti aniqlanadi.**

5. Fors tilidagi muayyan fe'lning formal invariantlarini quyidagi bosqichlar ketma-ketligida aniqlash usuli ishlab chiqildi:

Birinchi bosqich – fe'lning barcha ma'nolari – leksik-semantik variantlari aniqlanadi. Ushbu leksik-semantik variantlar o'z ko'lamiga qarab bir necha ma'no shaklida yoki bir necha ma'no guruhi shaklida bo'lishi mumkin.

Ikkinchi bosqich – fe'lning aniqlangan ma'nolari – leksik-semantik variantlari asosida ushbu leksik-semantik variantlarning har biridagi funksional ekvivalentlar qatori aniqlanadi.

Uchinchi bosqich – fe'lning aniqlangan funksional ekvivalentlari qatorlaridan biri tanlab olinib, ana shu qatordagi funksional ekvivalentlarni birlashtirib turadigan **yagona invariant ma'no**, shuningdek ushbu qatordagi funksional ekvivalentlar vositasida ifodalanayotgan ma'no ottenkalariga ko'ra bo'linadigan ma'no guruhchalaridagi **invariant ma'nolar** aniqlanadi. Aytib o'tish lozimki, tadqiqotdan ko'zda tutilgan maqsaddan kelib chiqqan holda, muayyan fe'lning boshqa funksional ekvivalentlari qatorlaridagi invariantni aniqlashda ham shu usuldan foydalanish mumkin.

To'rtinchi bosqich – funksional ekvivalentlarni birlashtirib turadigan yagona invariant ma'noni o'zida to'la yoki boshqa funksional ekvivalentlarga nisbatan ko'proq mujassam etuvchi funksional ekvivalentlardan biri aniqlanadi. Ana shu funksional ekvivalent muayyan funksional ekvivalentlar qatorining **formal invarianti** hisoblanadi. Xuddi shuningdek ushbu qatordagi funksional ekvivalentlar vositasida ifodalanayotgan ma'no ottenkalariga ko'ra bo'linadigan ma'no

guruhchalarining har biridagi invariant ma'nolarni o'zida to'la yoki nisbatan ko'proq mujassam etuvchi funksional ekvivalentlar aniqlanadi. Har bir ma'no guruhchasi shunday funksional ekvivalent ushbu ma'no guruhchasining **formal invarianti** hisoblanadi.

6. Fors tilidagi fe'llarning formal invariantlari quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1) muayyan ma'noni ifodalashda boshqa fe'llar bilan funksional ekvivalentlik munosabatiga kirishuvchi fe'llarning o'zi ham ushbu funksional ekvivalentlardan biri hisoblanadi. Ya'ni muayyan ma'noni ifodalashda bir-biriga funksional ekvivalent bo'lib kelayotgan fe'llarning – funksional ekvivalentlarning **formal invarianti ana shu funksional ekvivalentlardan biri bo'ladi**;

2) muayyan ma'noni ifodalashda bir-biriga funksional ekvivalent bo'lib kelayotgan fe'llarning – **funksional ekvivalentlarning barchasini umumiy qilib faqatgina funksional ekvivalentlarning formal invarianti vositasida ta'riflash mumkin**. Holbuki mazkur ma'no o'rnida ushbu fe'llarning barchasini umumiy qilib ular orasidagi boshqa fe'l vositasida ta'riflashning iloji bo'lmaydi;

3) muayyan ma'noni ifodalashda bir-biriga funksional ekvivalent bo'lib kelayotgan fe'llarning – **funksional ekvivalentlarning formal invariantini gap ma'nosini o'zgartirmagan holda uning funksional ekvivalentlari vazifasini bajarib keladigan boshqa fe'llardan har birining o'rnida ishlatish mumkin**. Holbuki ushbu fe'llardan boshqa birortasini mazkur fe'llardan har birining o'rnida ishlatib bo'lmaydi.

7. Muayyan ma'noni ifodalashda bir-biriga funksional ekvivalent bo'lib kelayotgan fe'llardan – funksional ekvivalentlardan har biri o'ziga xos bo'lgan ma'no ottenkalariga ega bo'lib, barcha o'rinlarda ham bir-biri bilan o'zaro o'rin almasha olmasligi sababli ushbu funksional ekvivalentlarning formal invarianti ushbu funksional ekvivalentlar vositasida ifodalanayotgan ma'no ottenkalariga ko'ra bo'linadigan ma'no guruhchalarida ham formal invariant bo'la olmasligi,

ya'ni **muayyan funksional ekvivalentlik qatorida invariant hisoblangan fe'l ushbu funksional ekvivalentlik qatorining ma'no ottenkalariga ko'ra bo'linadigan ma'no guruhchalarida invariant bo'lmasligi ham mumkin.** Shunga ko'ra biz خواستن [xāstan], برداشتن [bar-dāštan] va بررسی کردن [barresi kardan] fe'llari misolida fors tildagi muayyan fe'l funksional ekvivalentlarining **bir ma'no yoki ma'no guruhi doirasidagi umumiy invariantini** hamda fors tilidagi muayyan fe'l funksional ekvivalentlarining **alohida ma'no yoki ma'no ottenkalari doirasidagi invariantlarini** bir-biridan alohida tarzda ko'rib o'tdik.

Shu bilan birga dissertatsiyamizda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan quyidagi tavsiyalarni berishni lozim deb topdik:

1. Til tizimidagi variantlik va invariantlikni tadqiq qilishda haligacha ayrim tushunchalar xususida, jumladan, *leksik variant* borasida yagona qarash mavjud emasligi, *leksik-semantik invariant* va *semantik invariant* tushunchalarining esa aralash holda qo'llanilayotganligidan kelib chiqqan holda ushbu tushunchalarga aniqlik kiritilishi lozim deb hisoblaymiz. Shuningdek, haligacha qat'iy qoidalar yoki biror bir nazariya doirasida aniq belgilab berilmagan *invariant* hodisasi haqida ham aniq yagona ta'rif, qoida va nazariyaning ishlab chiqish vaqti keldi, deb o'ylaymiz.

2. Invariant umuman tilshunoslikda, jumladan, fors tilshunosligida hali yaxshi o'rganilmagan mavzu ekanligidan, fors tilidagi leksik-semantik invariantlik va formal invariantlikni o'rganish esa hali boshlanmaganligidan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda fors tilidagi turli til birliklarining turli sathlaridagi invariantlarini o'rganishni boshlash o'zbek eronshunosligidagi yangi sahifa bo'lardi, deb hisoblaymiz.

3. Fors tilida invariantlik bilan bog'liq bo'lgan variantlik hodisasi ham nafaqat o'zbek eronshunosligi, balki boshqa mamlakatlar, jumladan, rus eronshunosligida ham haligacha yaxshi o'rganilmaganligi, Eronning o'zida esa bu borada endi ilk

qadamlar tashlanayotganligidan kelib chiqqan holda, fors tilidagi turli til birliklarining turli sathlaridagi variantlarini, jumladan, fors tilidagi leksik-semantik variantlik va funksional ekvivalentlikni o'rganish O'zbekistondagi fors tili tadqiqotlari rivojiga qo'shilgan yana bir hissa bo'lardi, deb o'ylaymiz.

4. O'zbek tilidagi variantlik va invariantlik hodisalari ma'lum vaqtdan buyon o'rganilayotgan bo'lsa-da, hali ona tilimizdagi variantlik va invariantlik hodisalari, uning barcha jihatlarini qamrab oladigan kompleks tadqiqotlar amalga oshirilganicha yo'q. Bizning nazarimizda o'zbek tilshunosligida variantlik va invariantlik bilan bog'liq tushunchalar xususida aniq va yagona qarashlar, atamalar tizimi yaratilsa, bu ish boshqa tillardagi variantlik va invariantlik hodisalarini o'rganish ishiga ma'lum darajada yordam berardi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA MANBALAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari:

1. Каримов И.А. Асарлар. 4-жилд. Бунёдкорлик йўлидан. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. - 357 б.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: Шарқ, 1997. - 24 б.
3. Каримов И.А. Асарлар. 6-жилд. Хавфсизлик ва барқарорлик йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998. - 409 б.

II. Asosiy adabiyotlar:

O‘zbek tilida:

4. Абузалова М., Назарова С. Систем тилшунослик асослари. Лингвистика (ўзбек тилшунослиги) мутахассислиги магистрантлари учун қўлланма. - Бухоро, 2008. - 83 б.
5. Бўронов Ж.Б. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. - 284 б.
6. Набиева Д. Ўзбек тилининг турли сатҳларида умумийлик-хусусийлик диалектикасининг намоён бўлиши. - Тошкент, 2005. - 180 б.
7. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. - Тошкент, 2001. - 210 б.
8. Сайфуллаева Р., Курбонова М., Менглиев Б., Боқиева Г. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланмаси. - Тошкент, 2005. - 391 б.
9. Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 8 жилдли. - Тошкент. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2005. Ж.4. - 704 б.

Rus tilida:

10. Арутюнова Н.Д. О минимальной единице грамматической системы // Единицы разных уровней грамматического строя языка и их взаимодействие. – Москва: Наука, 1969. - 330 с.
11. Апресян Ю.Д. Лексическая семантика. - Москва: Наука, 1974. - 464 с.
12. Ахманова О.С. Очерки по общей и русской лексикологии. – Москва, 2004. - 296 с.
13. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. - Москва, 1969. - 608 с.
14. Балли Ш. Общая лингвистика и вопросы французского языка. - Москва: Эдиториал УРРС, 2001. - 416 с.
15. Бондарко А.В. Инварианты и прототипы в системе функциональной грамматики [Текст] / Бондарко А.В. // Проблемы функциональной грамматики: Семантическая инвариантность / вариативность. / отв. ред. Бондарко А.В., Шубик С.А. – СПб.: Наука, 2003. - 366 с.
16. Букчина Б.З. Орфографические варианты // Литературная норма и вариантность. – Москва, 1981. - 271 с.
17. Валгина Н.С. Активные процессы в современном русском языке. Учебное пособие. - Москва: Логос, 2001. Часть 3. - 304 с.
18. Ельмслев Л. Прологомены к теории языка. – Новое в лингвистике. - Москва, 1960. Вып.1. - 215-262 с.
19. Жеребило Т.В. Лингвостилистическая парадигма в информационном пространстве современного языкознания. - Назрань: Пилигрим, 2007. - 192 с.
20. Жеребило Т.В. Функционально-стилистический инвариант в учебной лексикографии. - Назрань: Пилигрим, 2005. - 102 с.
21. Жуковская Л.П. Лексические варианты в древних славянских рукописях / Исследования по исторической лексикологии древнерусского языка. - Москва, 1964. - С.5-17.

22. Жуковская Л.П. Текстология и язык древнейших славянских памятников. - Москва, 1976. - 176 с.
23. Звегинцев В.А. Семасиология. - Москва, 1957. - 232 с.
24. Исаченко А.В. Грамматический строй русского языка в сопоставлении со словацким. Морфология. – Братислава, 1960. - 580 с.
25. Карцевский С.О. Об асимметричном дуализме лингвистического знака // История языкознания 19-20 веков в очерках и изречениях. - Москва, 1965. Ч. 2. - 495 с.
26. Кобозева И.М. Лингвистическая семантика: Учебное пособие. - Москва, 2004. - 267 с.
27. Кошелев А.Д. К проблеме лексической многозначности. Описание общего значения глагола *брать / взять* // Язык. Личность. Текст: К 70-летию Т.М. Николаевой. - Москва: Языки славянских культур, 2005. - 975 с.
28. Краткая философская энциклопедия. – Москва: Прогресс, 1994. - 576 с.
29. Кузнецова Э.В. Лексикология русского языка. – Москва: Высшая школа, 1989. - 216 с.
30. Лакофф Д., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. - Москва, 2004. - 256 с.
31. Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева. – Москва: Сов. энциклопедия, 1990. - 683 с.
32. Лингвистический энциклопедический словарь / Под ред. В.М. Солнцева. - Москва, 2002. - 682 с.
33. Литературная норма и вариантность. - Москва, 1981. - 272 с.
34. Мартине А. О книге “Основы лингвистической теории” Луи Ельмслева // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 1. – Москва: Прогресс, 1960. - С.437-462.

35. Михайловская Н.Г. Системные связи в лексике древнерусского книжно-письменного языка XI-XIV вв. - Москва, 1980. - 253 с.
36. Москальчук Г.Г. Структура текста как синергетический процесс. – Москва: Едиториал, 2003. - 296 с.
37. Немченко В.Н. Основные понятия лексикологии в терминах. Учебный словарь-справочник. – Нижний Новгород, 1995. - 251 с.
38. Новиков А.И. Семантика текста и ее формализация. - Москва: Наука, 1983. - 213 с.
39. Лакофф Дж. О порождающей семантике // Новое в зарубежной лингвистике. – Москва: Прогресс, 1981. Вып. X. - С.302-349.
40. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. — Москва: Восточная литература РАН, 2001. - 600 с.
41. Персидско-русский словарь: в 2-х томах, под редакцией Ю.А. Рубинчика, 3-издание. I-том, - Москва: Русский язык, 1985. - 784 с.
42. Перцов Н.В. Инвариант в русском словоизменении. - Москва, 2001. - 280 с.
43. Плунгян В.А. Общая морфология. – Москва: Эдиториал УРСС, 2000. - 384 с.
44. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. - Москва, 1985. - 357 с.
45. Сдобников В.В., Петрова О.В. Теория перевода. - Москва, 2006. - 721 с.
46. Словарь-справочник. Термины и понятия лингвистики: Лексика. Лексикология. Фразеология. Лексикография. (сост. Т.В. Жеребило.). - Назрань: ООО “Пилигрим”, 2011. - 280 с.
47. Смирницкий А.И. К вопросу о слове (проблема «тождества» слова) // Тр. Ин-та языкознания АН СССР. Т 4. - Москва, 1954. - С.3-50.

48. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. - Москва, 1998. - 260 с.
49. Солнцев В.М. Вариантность, вариативность // Русский язык – энциклопедия. – Москва: БРЭ, 1997. - 721 с. (- С.60-61)
50. Солнцев В.М. Варианты слова // Русский язык – энциклопедия. – Москва: БРЭ, 1997. - 721 с. (- С.61)
51. Солнцев В. М. Язык как системно-структурное образование. – Москва: Наука, 1977. - 341 с.
52. Тихонов А.Н., Пардаев А.С. Роль гнезд однокоренных слов в системной организации русской лексики. Отраженная синонимия. Отраженная омонимия. Отраженная антонимия. – Ташкент, 1989. - 139 с.
53. Улуханов И.С. Словообразовательная семантика в русском языке. – Москва: Наука, 1977. - 256 с.
54. Филлмор Ч. Фреймы и семантика понимания // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XXIII. 1988. - 320 с.
55. Шмелев Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики (на материале русского языка). - Москва: Наука, 1973. - 280 с.
56. Шмелев Д.Н. Современный русский язык. Лексика. – Москва: Просвещение, 1977. - 303 с.
57. Щерба Л. В. Фонетика французского языка. – Москва: Наука, 1953. - 305 с.
58. Якобсон Р.О. О структуре русского глагола (1932). // Избранные работы. – Москва: Прогресс, 1985. - 460 с.
59. Якобсон Р.О. К общему учению о падеже (1936). // Избранные работы. – Москва: Прогресс, 1985. - 460 с.

Fors tilida:

60. ناتل خانلری، پرویز، تاریخ زبان فارسی، جلد دوم، ساختمان فعل، تهران، 1349. 410 ص.
61. ناتل خانلری، پرویز، دستور زبان فارسی، تهران: انتشارات توس، تهران، 1359. 367 ص.
62. ناتل خانلری، پرویز، دستور تاریخی زبان فارسی، تهران: انتشارات توس، 1373. 279 ص.
63. انوری، حسن؛ احمدی گیوی، حسن، دستور زبان فارسی 2، قم: انتشارات فاطمی، 1373. 416 ص.
64. ماهوتیان شهرزاد، دستور زبان فارسی، تهران: نشرمرکز، 1387. 384 ص.
65. طبیب زاده، امید. ستور زبان فارسی: براساس نظریه گروه‌های خودگردان در دستور وابستگی، تهران: نشر مرکز، 1391. 482 ص.
66. دهخدا، علی اکبر. لغتنامه دهخدا. در 222 جزوه. تهران، 1324 – 1359.
67. معین، محمد. فرهنگ معین. در 6 جلد. تهران، 1342.
68. عمید، حسن. فرهنگ عمید. در 3 جلد. تهران، 1389.
69. انوری، حسن، فرهنگ بزرگ سخن/ به سرپرستی حسن انوری، تهران، سخن، در 8 جلد. 1381.

III. Qo'shimcha adabiyotlar:

Dissertatsion tadqiqotlar:

70. Абдуллаева Д.А. Ўзбек тилида антисемия: Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2010.
71. Азимджанова Д.А. Синонимия глагольной лексики персидского языка: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1997.

72. Васильева Л.В. Модальный глагол MUST и его функциональные эквиваленты как сегмент функционально-семантического поля модальности: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Москва, 1990.

73. Зинин Е.О. Русские деминутивы в общевариологическом аспекте: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 2008.

74. Мирзакулов Ш.Ў. Ўзбек тилида сўз ясалиши маъноси ва парадигмаси: Филол. фан. номз. дисс. – Самарқанд, 1995.

75. Плотникова А.М. Когнитивное моделирование семантики глагола: Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. - Екатеринбург, 2009.

76. Потылицина Н.С. Модели репрезентации концепта «mouvement» в старофранцузском тексте: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. - Иркутск, 2012.

77. Хантакова В.М. Синонимия форм и синонимия смыслов: теоретическая модель анализа интегративного взаимодействия синонимических единиц одно и разноуровневой принадлежности: Дисс. ...докт. филол. наук: 10.02.04. - Иркутск, 2006.

78. Шереметьева А.Г. Лексико-грамматическая вариантность в русском языке (синхронно-диахронный аспект): Автореф. дисс. ...докт. филол. наук. – Ташкент, 2001.

Maqolalar:

79. Бондарко А.В. Функциональная грамматика: проблемы сочетаемости // Русский язык в научном освещении. 2003. - №1. - С.9.

80. Грязнова В.М. Понятие инварианта в лингвистике: история вопроса и современное состояние // Вестник Ставропольского университета. 2009. - №65. -С.187.

81. Ельмслев Л. Прологомены к теории языка // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 1. – Москва: Прогресс, 1960. - С.320.

82. Жеребило Т.В. Инвариантно-вариативная парадигма в современной лингвистике и перспективы ее развития. - **Москва: Наука, 2009.**
83. Зализняк А.А. Лингвистическая многозначность // Вопросы языкознания. - Москва: Наука, 2004. – №2.
84. Кропотова Л.В. Проблема разграничения синонимии и вариативности // Филологические науки. Вопросы теории и практики. 2009. - № 2 (4).
85. Кузнецова Э.В. О соотношении многозначности и функциональной эквивалентности слов // Вопросы языкознания. - Москва: Наука, 1978. - №2. - С.100.
86. Левина Т.В. Инвариант в языкознании и теория инварианта в языке. Вестник КАСУ (Казахстанско - Американский свободный университет), 2005. - №2. - С.18.
87. Манакова Н.А. Слово и его лексико-семантические варианты // <http://genling.ru/books/item/f00/s00/>
88. Нурмонов А. Лисоний бирликларда умумийлик ва хусусийлик, моҳият ва ҳодиса диалектикаси. ЎТА. – Тошкент, 1995, 1-сон.
89. Подтележникова Е.Н., Кретов А.А. О лексико-семантическом инварианте и его роли в организации словаря // Вестник ВГУ, 2008. - №3. - С.17-21.
90. Серебрякова С.В. Концептуально значимая информация как инвариант перевода. Статья. Lingua-Universum.– Пилигрим, 2007. - № 4.
91. Смирницкий А.И. Значение слова. Вопросы языкознания, 1955. - №2.
92. Султанова А.П. Системность лексики на примере лексико-семантической группы глаголов разрушения в русском языке // Вестник СамГУ, 2008. - №5/2(64). - С.132.
93. Шаумян С. Абстракция в современной лингвистике // Логос, 1999. - №1. - С.186.

Fors tilida:

94. شهلا شریفی. بررسی معنایی افعال مرکب اندام بنیاد از دیدگاه معناشناسی شناختی // مجموعه مقالات ششمین همایش بین المللی «انجمن ترویج زبان و ادبیات فارسی». دانشگاه مازندران - خرداد 1390. ص 3000 - 2990.
95. ابراهیم مرادی. بررسی معنایی فعل مرکب در زبان فارسی // نشریه ادب و زبان دانشکده ادب و علوم انسانی دانشگاه شهید با هنر کرمان. سال 16، شماره 33، بهار و تابستان 1392.
96. راحله گندمکار. رویکردی شناختی به مسئله هم معنایی بافتی در سطح افعال زبان فارسی // پژوهش های زبانی، دوره دوم، شماره 2، پاییز و زمستان 1390. ص 125-115.
97. علی صفری. تناوب سببی در زبان فارسی // پژوهش های زبانی، دوره 3، شماره 1، بهار و تابستان 1392. ص 94-75؛
98. علی صفری. معناشناسی زمینه و تناوب فعل های مرکب در زبان فارسی // جستارهای زبانی، دوره 2، شماره 2، بهار و تابستان 1392. ص 98-81.
99. مریم سادات فیاضی. خاستگاه استعاره افعال حسی چندمعنا در زبان فارسی از منظر معنی شناسی شناختی // ادب پژوهی، شماره 6، زمستان 1382. ص 109-87.
100. لیلا شریفی. رویکردی شناختی به یک فعل چندمعنای فارسی // تازه های علوم شناختی، سال 11، شماره 4، 1388، ص 11 - 1.
101. حمید ربیعی. عناصر مؤثر در تغییر معنای فعل // رشد آموزش زبان و ادبیات فارسی. دوره بیست و سوم، شماره 2، زمستان 1388، ص 50-48.

102. ارسلان گلفام. فضای معنایی فعل «شدن» در زبان فارسی: نگرش شناختی // پژوهش های زبان و ادبیات تطبیقی. دوره 2، شماره 4، زمستان 1390.
103. صادقی علی اشرف. در باره فعل های جعلی در زبان فارسی // مجموعه مقالات سمینار زبان فارسی و زبان علم. تهران، مرکز نشر دانشگاهی، 1372.
104. www.ichodoc.ir گفت و گو با غلام حسین صدری افشار مولف فارسی امروز // 29 نوامبر 2011.

Manbalar:

Badiiy adabiyotlar:

105. ابو نصر احمدی جام، روضه المذنبین و جنبه المشتاقین، تهران، 1372.
106. بزرگ علوی، چمدان، تهران، امیر کبیر، 1357.
107. جلال آل احمد. سه تار. تهران. انتشارات فردوس. چاپ دوم. 1349.
108. جمال میرصادقی. منتخب داستان ها. تهران. توس. 1351.
109. حاتمی. شکوفایی داستان کوتاه در دهه نخستین انقلاب (مجموعه داستان ها). تهران. علمی و فرهنگی. 1372.
110. حبیب احمدزاده. شطرنج با ماشین قیامت. رمان. تهران. شرکت انتشارات سوره مهر. 1387.
111. خانلری، نمونه هایی از نثر فصیح فارسی معاصر، تهران، بی نا، 1338.
112. صادق هدایت، سه قطره خون، تهران، امیر کبیر، 1341.
113. صادق هدایت. مازیار. تهران، امیر کبیر، 1333.
114. عبدالرحیم بن شیخ ابو طالب نجار تبریزی (طالبوف). مسالک المحسنین. تهران، شب گیر، 1356.

115. قنبرعلی جوان مرد شیراز، کنت گوبینو - ترجمه و نگارش از محمدعلی جمال زاده. تهران، کانون معرفت بی تا. 1356.
116. محمدعلی اسلامی ندوشن. روزها (سرگذشت). تهران. یزدان. 1363. ج. 1.
117. محمد علی جمال زاده، قصه ما به سر رسید، تهران، شرکت مؤلفان و مترجمان ایران، 1357.
118. محمدعلی جمال زاده. هفت قصه. تهران. پروین. 1321.
119. محمد مصدق، خاطرات و تألمات دکتر مصدق، تهران، علمی، 1360.
120. محمد محمود. زمین سوخته. تهران. نشر نو. 1361.
121. محمد مسعود. تفریحات شب. تهران، بی نا، 1335.
122. مرتضی مشفق کاظمی. تهران مخوف. تهران، ابن سینا، 1340.
123. مرتضی مطهری. عدل الاهی. قم، صدرا. 1379.
124. میگل دو سروانتس ساودرا. دن کیشوت. ترجمه محمد قاضی. تهران، نیل - هدایت. 1369.
125. نمونه هایی از نثر فصیح فارسی معاصر مینوی // گردآوری از جلال متینی. تهران، بی نا، 1338.
126. نمونه هایی از نثر فصیح فارسی معاصر اقبال // گردآوری از جلال متینی. تهران، بی نا، 1338.

Ommaviy axborot vositalari:

127. 1392/11/8 روزنامه کیهان، مورخ
128. 1392/9/12 روزنامه همشهری، مورخ
129. www.irna.ir // خبرگزاری جمهوری اسلامی
130. www.farsnews.com // خبرگزاری فارس

131. <http://isna.ir> // خبرگزاری دانشجویان ایران (ایسنا)
132. www.ibna.ir // خبرگزاری کتاب ایران
133. www.iribnews.ir // واحد مرکزی خبر صدا و سیمای جمهوری اسلامی ایران
134. <http://danakhabar.com> // خبرگزاری دانا
135. www.ghatreh.com // ایلنا - خبرگزاری کار ایران
136. www.asriran.com // سایت تحلیلی عصر ایران
137. <http://solhnews.org/> // خبرگزاری صلح
138. www.tasnimnews.com // خبرگزاری تسنیم
139. www.magiran.com // سایت خبری محله ایران
140. www.entekhab.ir // پایگاه خبری تحلیلی انتخاب
141. www.yjc.ir // باشگاه خبرنگاران
142. www.alef.ir // جامعه خبری تحلیلی الف
143. www.tolonews.com // سایت خبری طلوع نیوز
144. www.irinn.ir // پایگاه اطلاع رسانی شبکه خبر
145. www.varzesh3.com // پایگاه اطلاع رسانی ورزش سه
146. www.ofoghehroshan.persianblog.ir // افق روشن (مدیریت و سرمایه گذاری)
147. www.linuxreview // سایت linuxreview
148. www.soroushpress.ir // سایت مجله سروش
149. <http://krccima.ir> //
150. www.irinn.ir // پایگاه اطلاع رسانی شبکه خبر
151. www.shafaqna.com/persian // شفقنا (پایگاه بین المللی همکاری های خبری شیعه)
152. www.radiofarda.com // رادیو فردا
153. <http://farsi.alarabiya.net/fa> // سایت خبری العربیه
154. www.momtaznews.com // پایگاه اطلاع رسانی ممتاز

155. <http://www.leader.ir> // سایت پایگاه اطلاع رسانی دفتر مقام معظم رهبریا
156. <http://pru.isu.ac.ir> // سایت دانشگاه امام صادق ایران
157. <http://zanjan.irib.ir> // سایت بسیج صدا و سیمای مرکز زنجان
158. <http://www.kanoon.ir> // سایت کانون فرهنگی آموزش قلمچی
159. www.mohabatnews.com // آژانس خبری مسیحیان
- ایران.